

**ELEKTR  
TIZIMLARINING  
AVTOMATIKASI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**X.A. Shamsiyev, Sh.M. Mirzabekov, G.F. Mo'sinova**

**ELEKTR TIZIMLARINING  
AVTOMATIKASI**

**O'quv qo'llanma**

**TOSHKENT – 2021**

**UDK 621.31:681.5(075.8)**

**BBK 31.27-5-05ya7**

**Sh 21**

Shamsiyev X.A., Mirzabekov Sh.M., Mo'sinova G.F. Elektr tizimlarining avtomatikasi. O'quv qo'llanma. – T.: ToshDTU, 2021. - 152 b.

Taqrizchilar: Situdkov R.A. ToshDTU «Elektr energetika» fakulteti «Elektr stansiyalari, tarmoqlari va tizimlari» kafedrasi, t.f.d., professor.

Mirzayev A.T. O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari AJ tizim xizmatlari bosh boshqarmasi boshlig'i, t.f.n., dotsent.

10200 – Elektr energetikasi” va “5A310204 – Elektr energetika tizimlari va tarmoqlari” yo'nalishlarida tahsil olayotgan bakalavr va magistrlarga, shuningdek, tegishli mutaxassisliklar va ta'lim yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan. Taqdim etilgan materialdan elektr energetika tizimlarida qo'llaniladigan avtomatika qurilmalarini o'rganish bilan shug'ullanadigan olimlar, mutaxassislar foydalanishi mumkin.

Учебное пособие предназначено для бакалавров и магистров, обучающихся по специальностям «5310200-Электроэнергетика» и «5A310204 - Электрические системы и сети», а также студентов соответствующих специальностей и направлений подготовки. Представленный материал может быть использован учеными и специалистами в области устройств автоматизации, применяемых в энергосистемах.

The study guide is intended for bachelors and masters studying in the specialties "5310200-Electrical engineering" and "5A310204 - Electrical systems and networks", as well as students of the relevant specialties and areas of training. The presented material can be used by scientists and specialists in the field of automation devices used in power systems.

## MUNDARIJA

	<b>KIRISH.....</b>	10
	<b>1-BOB. UMUMIY TUSHUNCHALAR VA MA'LUMOTLAR.....</b>	11
1.1.	Energetika tizimida eng keng tarqalgan avariyalar.....	11
1.2.	Energetika tizimi holatlarini boshqarish va nazorat qilish. Avtomatika turlari.....	19
	Nazorat savollari.....	24
	<b>2-BOB. GENERATORLARNI AVTOMATIK SINXRONLASH.....</b>	26
2.1.	Generatorlarni aniq sinxronlash .....	26
2.2.	Generatorlarni o'z-o'zini sinxronlash .....	30
2.3.	O'zgarmas o'zish burchakli yarim avtosinxronizator .....	34
2.4.	O'zgarmas o'zish vaqtiga ega avtomatik sinxronizator.....	39
2.5.	Elektr stansiya generatorlarini avtomatik sinxronlashni hisoblash va usullarini tanlash.....	41
	Nazorat savollari .....	47
	<b>3-BOB. AVTOMATIK QAYTA ULAsh.....</b>	48
3.1.	Moyli uzgichlar uchun bir karrali AQU qurilmasining sxemasi.....	49
3.2.	Liniyalarning ikki karralik AQUsi .....	52
3.3.	Ikki tomonlama ta'minotli liniyalarning AQUsi .....	54
3.4.	Liniyalarning bir fazalik AQUsi (BAQU).....	60
3.5.	AQU ni hisoblash .....	65
3.5.1.	AQU ni hisoblash algoritmlari.....	65
3.5.2.	Stansiya va tizimni bog'lovchi liniyaning AQU turini tanlash va o'matmalarini hisoblash (Ikki tomonlama ta'minlangan liniya misolida).....	70
	Nazorat savollari .....	82
	<b>4-BOB. ZAXIRANI AVTOMATIK ULAsh (ZAU).....</b>	84
4.1.	ZAU qurilmalariga qo'yilgan talablar.....	84
4.2.	Zaxirani avtomatik ulash (ZAU) qurilmasining o'matmalarini hisoblash.....	87
	Nazorat savollari .....	89
	<b>5-BOB. SINXRON GENERATORLARNING QO'ZG'ATISHINI AVTOMATIK ROSTLASH (QAR).....</b>	90

5.1.	Proporsional tipdag'i qo'zg'atishni avtomatik rostlagich (QAR-P).....	90
5.2.	Kuchli ta'sir etuvchi qo'zg'atishli avtomatik rostlagich QAR-K ( $U_G=0$ zgarmas).....	96
5.3.	Qo'zg'atishni avtomatik rostlash tavsiflari .....	98
5.4.	Qo'zg'atishni avtomatik rostlash qurilmalari .....	100
	Nazorat savollari .....	109
<b>6-BOB. CHASTOTA VA AKTIV QUVVATNI AVTOMATIK ROSTLASH (ChQAR).....</b>		111
6.1.	Avtomatik chastota rostlagich tavsiflari .....	112
6.2.	Zamonaviy energetika tizimlarida chastota va quvvatni avtomatik rostlashni tashkil etish prinsiplari .....	113
6.3.	Elektr stansiya agregatlarining chastota va quvvatni avtomatik rostlash (CHQAR) qurilmasi.....	115
	Nazorat savollari.....	121
<b>7-BOB. AVTOMATIK CHASTOTAVIY YUKSIZLANTIRISH (AChYu) VA CHASTOTAVIY AVTOMATIK QAYTA ULAsh (CHAQU).....</b>		123
7.1.	Energetika tizi mining chastotaviy tavsifi .....	123
7.2.	Avtomatik chastotaviy o'chirishning bajarilish prinsiplari va hisobi....	125
7.3.	Chastotaviy avtomatik qayta ulash (CHAQU).....	128
7.4.	AChYu va ChAQU qurilmalari .....	128
7.5.	Zamonaviy avtomatik chastotani yuksizlantirish qurilmalari .....	133
7.5.1.	"Sirius-2-AChYu" qurilmasi.....	133
7.5.2.	"AChYu-MP" chastotaviy avtomatika mikroprotsessor qurilmasi.....	134
	Nazorat savollari .....	134
<b>8-BOB. AVARIYANING OLDINI OLİSH AVTOMATİKASI</b> .....		136
8.1.	Asinxron rejim .....	136
8.2.	Asinxron holatni avtomatik tugatish .....	140
8.3.	Asinxron rejimlarni bartaraf etuvchi zamonaviy raqamli avtomatika qurilmalari .....	142
8.4.	Liniyani o'ta kuchlanishlardan himoyalash avtomatikasi.....	143
	Nazorat savollari .....	149
	Ilova.....	151
	Glossariy.....	160
	Foydalanilgan adabiyotlar .....	162

## СОДЕРЖАНИЕ

	<b>ВВЕДЕНИЕ .....</b>	10
	<b>ГЛАВА 1. ОБЩИЕ ПОНЯТИЯ И ИНФОРМАЦИЯ .....</b>	11
1.1.	Самые масштабные аварии в энергосистемах .....	11
1.2.	Контроль и управление режимами энергосистемы. Виды автоматики .....	19
	Контрольные вопросы .....	24
	<b>ГЛАВА 2. АВТОМАТИЧЕСКАЯ СИНХРОНИЗАЦИЯ ГЕНЕРАТОРОВ .....</b>	26
2.1.	Точная синхронизация генераторов .....	26
2.2.	Самосинхронизация генераторов .....	30
2.3.	Полуавтосинхронизатор с постоянным углом опережения .....	34
2.4.	Автоматический синхронизатор с постоянным временем опережения .....	39
2.5.	Выбор способов и расчет автоматической синхронизации генераторов электрической станции .....	41
	Контрольные вопросы .....	47
	<b>ГЛАВА 3. АВТОМАТИЧЕСКОЕ ПОВТОРНОЕ ВКЛЮЧЕНИЕ .....</b>	48
3.1.	Схема устройства однократного АПВ для масляных выключателей .....	49
3.2.	Двукратное АПВ линий .....	52
3.3.	АПВ линий электропередачи с двухсторонним питанием .....	54
3.4.	ОАПВ линий .....	60
3.5.	Алгоритмы и примеры расчета АПВ .....	65
3.5.1.	Алгоритмы расчета АПВ .....	65
3.5.2.	Пример выбора способа и расчета АПВ линий связи станции с системой (линии с двухсторонним питанием) .....	70
	Контрольные вопросы .....	82
	<b>ГЛАВА 4. АВТОМАТИЧЕСКИЙ ВВОД РЕЗЕРВА (АВР) .....</b>	84
4.1.	Требования, предъявляемые к устройствам АВР .....	84
4.2.	Расчет уставок устройства автоматического ввода резерва .....	87
	Контрольные вопросы .....	89
	<b>ГЛАВА 5. АВТОМАТИЧЕСКОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ .....</b>	90

	<b>ВОЗБУЖДЕНИЯ СИНХРОННЫХ ГЕНЕРАТОРОВ (АРВ)...</b>	
5.1.	Регулирование возбуждения пропорционального типа ( $E_q^1 = \text{пост}$ ) .....	90
5.2.	Автоматический регулятор возбуждения сильного действия АРВ-с ( $U_f = \text{пост}$ ) .....	96
5.3.	Характеристики АРВ .....	98
5.4.	Устройства АРВ .....	100
	Контрольные вопросы .....	109
	<b>ГЛАВА 6. АВТОМАТИЧЕСКОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЧАСТОТЫ И АКТИВНОЙ МОЩНОСТИ (АРЧМ) .....</b>	111
6.1.	Характеристики автоматического регулятора скорости .....	112
6.2.	Принцип организации автоматического регулирования частоты и мощности (АРЧМ) в современных энергосистемах .....	113
6.3.	Устройства АРЧМ агрегатов электростанций .....	115
	Контрольные вопросы .....	121
	<b>ГЛАВА 7. АВТОМАТИЧЕСКАЯ ЧАСТОТНАЯ РАЗГРУЗКА (АЧР) И ЧАСТОТНОЕ АВТОМАТИЧЕСКОЕ ПОВТОРНОЕ ВКЛЮЧЕНИЕ (ЧАПВ) .....</b>	123
7.1.	Частотная характеристика системы .....	123
7.2.	Принципы выполнения и расчет автоматической частотной разгрузки .....	125
7.3.	Частотное автоматическое повторное включение (ЧАПВ) .....	128
7.4.	Устройства АЧР и ЧАПВ .....	128
7.5.	Современные устройства автоматической частотной разгрузки .....	133
7.5.1.	Устройства «Сириус-2-АЧР» .....	133
7.5.2.	Микропроцессорное устройство частотной автоматики «АЧР-МП» .....	134
	Контрольные вопросы .....	134
	<b>ГЛАВА 8. ПРОТИВОАВАРИЙНАЯ АВТОМАТИКА .....</b>	136
8.1.	Асинхронный режим .....	136
8.2.	Автоматика ликвидации асинхронного режима .....	140
8.3.	Современные цифровые устройства автоматики ликвидации асинхронных режимов .....	142
8.4.	Автоматика защиты ЛЭП от повышения напряжения (от перенапряжений) .....	143
	Контрольные вопросы .....	149
	<b>Приложение .....</b>	151

	Глоссарий.....	160
	Литературы .....	162

## CONTENTS

	<b>INTRODUCTION.....</b>	10
	<b>CHAPTER 1. GENERAL CONCEPTS AND INFORMATION..</b>	11
1.1.	The most widespread accidents in power systems .....	11
1.2.	Control and management of power system modes. Types of automation.....	19
	Test questions.....	24
	<b>CHAPTER 2. AUTOMATIC SYNCHRONIZATION OF GENERATORS.....</b>	26
2.1.	Accurate synchronization of generators.....	26
2.2.	Self-synchronizing generators.....	30
2.3.	Semi-auto synchronizer with constant advance angle.....	34
2.4.	Automatic synchronizer with constant lead time.....	39
2.5.	Selection of methods and calculation of automatic synchronization of power plant generators.....	41
	Test questions.....	47
	<b>CHAPTER 3. AUTOMATIC RECLOSE (ARC).....</b>	48
3.1.	Single-shot automatic recloser device diagram for oil circuit breakers.....	49
3.2.	Double automatic recloser of lines.....	52
3.3.	Automatic recloser of power lines with two-way power supply.....	54
3.4.	Single-phase automatic recloser of lines.....	60
3.5.	Algorithms and examples of automatic reclosure calculation.....	65
3.5.1.	Automatic reclosing algorithms.....	65
3.5.2.	An example of choosing the method and calculating the automatic reclosure of communication lines between the station and the system (lines with two-way power supply).....	70
	Test questions.....	82
	<b>CHAPTER 4. AUTOMATIC RESERVE SWITCH (ARS).....</b>	84
4.1.	Requirements for ARS devices.....	84

4.2.	Calculation of the settings of the automatic reserve switch (ARS).....	87
	Test questions.....	89
	<b>CHAPTER 5. AUTOMATIC REGULATION OF EXCITATION OF SYNCHRONOUS GENERATORS (ARE).....</b>	90
5.1.	Automatic excitation control of proportional type ( $E_q^1 = \text{const}$ ).....	90
5.2.	Automatic excitation regulator of strong action ( $U_G = \text{const}$ ).....	96
5.3.	ARE characteristics.....	98
5.4.	ARE devices.....	100
	Test questions.....	109
	<b>CHAPTER 6. AUTOMATIC FREQUENCY AND ACTIVE POWER CONTROL (AFPC).....</b>	111
6.1.	Characteristics of automatic speed governor .....	112
6.2.	The principle of organizing automatic frequency and power control (AFPC) in modern power systems.....	113
6.3.	AFPC devices for power plant units.....	115
	Test questions.....	121
	<b>CHAPTER 7. AUTOMATIC FREQUENCY UNLOADING (AFU) AND FREQUENCY AUTOMATIC RECLOSE (FARC).....</b>	123
7.1.	Frequency characteristics in the power system.....	123
7.2.	Principles of implementation and calculation of automatic frequency unloading.....	125
7.3.	Frequency automatic reclosing (FARC) .....	128
7.4.	AFU and FARC devices.....	128
7.5.	Modern devices for automatic frequency unloading .....	133
7.5.1.	«Sirius-2-AFU» device.....	133
7.5.2.	Microprocessor device of frequency automation "AFU-MP".....	134
	Test questions.....	134
	<b>CHAPTER 8. EMERGENCY AUTOMATION.....</b>	136
8.1.	Asynchronous mode.....	136
8.2.	Automatic elimination of asynchronous mode.....	140
8.3.	Modern digital devices for automatic elimination of asynchronous modes.....	142
8.4.	Automatic overvoltage protection of power lines (overvoltage).....	143
	Test questions.....	149

	<b>Application</b> .....	<b>151</b>
	<b>Glossary</b> .....	<b>160</b>
	<b>Literature</b> .....	<b>162</b>

## KIRISH

Energetika tizimidagi biror bir elementning normal ish rejimi buzilishi energetika tizimining boshqa elementlari ishiga, ayrim holatlarda esa butun texnologik jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Natijada avariyyaviy elementning normal ish rejimini iloji boricha tezroq tiklash yoki uni boshqa zaxiradagi element bilan almashтиrish hamda ishlab chiqarilayotgan va iste'mol qilinayotgan energiya balansini tiklash kabi talablar paydo bo'ladi.

Energetika tizimining yana bir xususiyati shundan iboratki, uning normal ish rejimi buzilganida elektromexanik jarayonlar paydo bo'lib, ular, odatda, shu qadar tez o'tadiki, bu jarayonlarning boshlanishini aniqlash va ularning rivojlanib ketishining oldini olish xizmat ko'rsatuvchi personalning qo'llidan kelmaydi.

Shuning uchun energetika tizimining rejimlarini nazorat qilish va boshqarish texnika nuqtayi nazaridan juda ham murakkab masaladir. Bu masalaning yechimi maxsus texnikaviy qurilmalarni qo'llash yordamidagina bajarilishi mumkin.

Energetika tizimlarida normal rejimlarini boshqarish hamda avariya va avariyanadan keyingi rejimlarda uning barqaror ishlashini ta'minlash uchun tizim avtomatikasidan keng foydalaniladi. Tizim avtomatikasi bo'lmagan yoki yetarli darajada samarali bo'lmagan joylarda baxtsiz hodisalarining kaskadli rivojlanishi va kutilmagan salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**I BOB.**  
**UMUMIY TUSHUNCHALAR VA MA'LUMOTLAR**

**1.1. Energetika tizimida eng keng tarqalgan avariylar**

**Rossiya, Moskva, 2005-yil 23-may**

Quyidagi sodir bo'lgan avariya chaqmoq yoki portlash tufayli yoki qish kunining maksimal yuklama paytida emas, balki may oyining ish paytida barcha podstansiya va elektr tarmoqlari ishchilari, shuningdek, energetika va energoxolding kompaniyasi rahbarlari o'z ish joyalarida bo'lganlarida sodir bo'lgan.

Elektr stansiyasidagi uskunalar shikastlanganda va elektr uzatish liniyalari da o'ta yuklanish sodir bo'lgan paytda xodimning malakasiz harakati (va harakatsizligi) tufayli Moskva energetika tizimi soha rahbariyati oldida 35 soat davomida, tom ma'noda misli ko'rilmagan falokatga olib keldi.

Bu kabi hodisalar mamlakatimiz elektr energetikasi tarixida hech qachon bo'lmagan.

Elektr energiyasining uzilish maydoni 5 ta mintaqadan 6,5 million nafar odamni qamrab oldi. 12 ta elektr stansiyasi umuman to'xtatilgan va 35-500 kV kuchlanishli podstansiyalar kuchsizlangan.

510-raqamli "Chagino" podstansiyasida o'matilgan olti transformatorning birida unchalik katta bo'lmagan olov paydo bo'ldi. U karbonat angidridli o't o'chirgich yordamida o'chirildi. Ushbu hodisadan keyin iste'molchilarni elektr bilan ta'minlash qolgan beshta transformatorga o'tkazilgan.

24-may kuni kechqurun to'rtta transformator ham yonib ketdi, ish holatida qolgan yagona transformatorni esa o'chirishga to'g'ri keldi, chunki u Moskvaning janubisharqiy okrugidagi barcha iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlay olmas edi. 220 kV kuchlanishli podstansiyani o'chirish davomida eng yirik iste'molchi bo'lgan Moskva neftni qayta ishlash zavodi (MNQI)ni ham o'chirishga to'g'ri keldi. Ushbu zavodga elektr energiyasini IEM-22 va "Chagino" podstansiyasidan uzatish qayta tiklandi. MNQI zavodining elektr ta'minoti to'xtatilishi uzoq vaqtga kechiktirilmadi, chunki bu nasoslarning to'xtashiga va qizib ketish natijasida halokatga olib kelishi mumkin edi.

25-may kuni ertalab "Chagino"da oxirgi transformator yuklamaga chiday olmasdan qulab tushdi. Tizim "buzila" boshladи, kaskadli o'chirish jarayoni boshlandi. "Ochakova" podstansiyasi ishlamay qoldi, 1-sonli GES, Moskvaning janubidagi yettita IEM lari hamda 4-IES ning ishlab chiqarishi yo'qoldi. Moskva yaqinidagi 500 kVli podstansiyalar, elektr stansiyalari va elektr ta'minoti markazlari to'xtay boshladи. Zanjirli reaksiya Moskva viloyati, Tula, Ryazan va Kaluga viloyatlarini elektrsiz qoldirdi. Avariyanı tezda bartaraf etishning iloji yo'q edi, eng muhim obyektlarning elektr ta'minoti faqat kechga borib tiklandi. Energetika tizininining to'liq tiklanishiga esa bir kun vaqt ketdi. Ushbu vaqt mobaynida uy-joylar, kasalxonalar, ishlab chiqarish obyektlari, infratuzilmalar elektrsiz qoldi. Ba'zi bir xavfli ishlab chiqarishlarda avariylar sodir bo'ldi. Uylar va idoralardagi

liftlar, metrolarning yurishi, transportlar to'xtadi, svetoforlar o'chdi. Sovutish tizimi ishlamay qoldi, Moskvaning ba'zi bir tumanlari suvsiz qolib ketdi. Internet va uyali aloqa operatori tarmoqlari hamda telefon tarmoqlari ishlashida uzilishlar paydo bo'ldi.



**1.1-rasm. Rossiyada sodir bo'lgan avariya holati.**

Rossiya aksiyadorlik jamiyatni yagona energetika tizimi (RAJ YET) ma'lumotlariga ko'ra, ushbu avariya 3 millionga yaqin odamga zarar yetkazgan. Moskva uchun umumiyligi zarar 1,708 mln rublga, Moskva viloyatlari uchun esa 503 mln rublga baholangan.

**Avariyaning sababi quyidagi muammolar va omillar to'plami hisoblanadi:**

- elektr tarmog'idagi yuklama ortishi natijasida hosil bo'ladigan issiqlik;
- uskunaning eskirishi va texnik xizmat ko'rsatilmayishi;
- RAJ YET va "Mosenergo" kompaniyalari rahbarlarining professional emasligi, xodimlarning tayyor bo'lmaganliklari;
- asosiy sabab esa Moskvadagi iste'molchilarini favqulotda avtomatlashtirishdan uzib qo'yishga qo'yilgan taqiq.

Moskva energetika tizimidagi avariya Rossiya tarixidagi eng yirik elektr o'chishiga aylandi va moskvaliklar xotirasida chuqur iz qoldirdi.

**AOSH, Nyu-York, 1965-yil 9-novabr**

Amerika Qo'shma Shtatlari, ayniqsa, Nyu-York shtatidagi aholi energetika tizimidagi nosozliklar bilan juda yaxshi tanish. "Blackout" so'zi "Shimoli-sharqning buyuk tutilishi" dan keyin aniq elektr energiyasining uzilishi kabi ma'noga ega bo'ldi. Avariyaning sababi xodimning xatosi edi.

Kuinston (Ontario, Kanada) va Niagara dengizlarida joylashgan, "Ser Adam Bek 2" elektr stansiyalari o'rta sidagi 230 kV kuchlanishli EUL dagi rele o'matmasi noto'g'ri o'matilganligi liniya ortiqcha yuklamaga dosh bera olmasligiga olib keldi

va u o'chqandan so'ng qolgan liniyalar bir zumda haddan tashqari yuklanib, Niagara tugunida domino effektini o'matdi.

Nyu-Jersi, Nyu-York va Pensilvaniya hamda Kanadaning ikkita provensiyasida elektr energiyasidan uzilish bo'ldi. Hududning 30 mln nafar aholisi yarim sutka davomida markazlashgan energiya ta'minotisiz qoldi. Elektr energiyasining yo'qolishi ishdan uyga qaytayotganlarni kutilmaganda ushlab qoldi, 800 ming nafardan ortiq odam Nyu-York metrosida qolib ketdi. O'chishning umumiy maydoni 200 ming kv. km ni tashkil etdi. Iste'molchilarning elektr ta'minotini to'liq tiklash uchun energetiklarga 13 soat, umuman, tiklash ishlari uchun esa bir oyga yaqin vaqt kerak bo'ldi.

### **AQSh, Nyu-York, 1977-yil 13-iyul**

Momaqaldiroq paytida Nyu-Yorkdagi elektr uzatish liniyalaridan biriga chaqmoq tushdi, shundan so'ng butun millionlab shahar zulmatga botdi. Bir kundan ko'proq vaqt davomida elektr toki yonmadi. Avariya misli ko'rilmagan moliyaviy inqirozni olib keldi. Elektr uzilishidan bir necha soat o'tgach, tunda kambag'al mahallalardan kelgan to'dalar shaharning zamona viy kvartallariga hujum qilishdi. Politsiya qariyb 3700 kishini hibsga olishga muvaffaq bo'ldi, ammo bu tajovuzkorlar va qaroqchilarning ahamiyatsiz qismi edi. Talonchilar va buzg'unchilar tomonidan Nyu-York shahriga yetkazilgan zarar 1 milliard dollarga baholanmoqda (2000-yildagi hisob-kitoblarga ko'ra).



**1.2-rasm. Nyu-York shahridagi avariya holati**

Shahar hokimiysi 9 mln dollar yo'qotdi; 5 mln soliq sifatida va yana 4 mln ni politsiya hamda o't o'chiruvchilarning ortiqcha ishlagini uchun to'lashga to'g'ri keldi. Nyu-York birjasи elektr o'chishidan 20 mln dollardan ortiqroq zarar ko'rdi.

Biroq eng katta yo'qotishlarga oddiy fuqarolar duch keldi. 2000 dan ortiq do'kon talon-taroj qilindi.

### **AQSh, Nyu-York, 2003-yil 14-avgust**

Shimoliy Ogayoda yuqori kuchlanishli liniyalar ostida o'sib chiqqan daraxtlar qisqa tutashuvga olib keldi va qisqa muddatga liniyaning uzilishiga sabab bo'ldi. Shimoli-sharqdagi uchta elektr uzatish liniyasi o'chirildi, ammo nosoz ogohlantirish tizimi signal bermadi va hodisa energetika kompaniyasi tomonidan e'tiborga olinmadi. Bu barcha qo'shni energetika tizimlarini navbatdagi "blackout" holatiga olib keldi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, o'sha paytdagi AQSh energetika tizimining tizim avtomatikasi shunchalik qadimiy ediki, butun mamlakat zulmatga botishi mumkin edi. Katta elektr uzilishlari AQSH ning shimoli-sharqiy qismidagi eng yirik shaharlari (Nyu-York, Ogoyo, Michigan, Pensilvaniya, Konnektikut, Nyu-Jersi)ni va Kanada (Toronto, Ottawa)ni qamrab oldi. Umumiy holatda, avariyaning rivojlanish jarayonida 10 ta AES ni (AQSh da 7 ta va Kanadada 3 ta, jami 19 ta blok) o'z ichiga olgan 263 ta elektr stansiyasi (531 ta energiya bloklari) o'chirildi. Baxtsiz hodisani bartaraf etish deyarli 2 sutka davom etdi.




**1.3-rasm. Nyu-York shtatidagi avariya holati**

Bu vaqt davomida 50 mln odamlar yorug'liksiz qolishdi. Jamoat transporti harakati to'liq to'xtatildi, ba'zi fuqarolar transport vositalarini tartibga solish uchun ixtiyoriy ravishda chiqishdi. Metrolar to'xtadi. Uzoq vaqt davomida hokimiyat metroda tizilib qolgan odamlarni evakuatsiya qilish masalasini hal qila olmadi, minglab odamlar o'zlarini vagonlardan tushishga harakat qilishdi. Vaziyatni ishlamaydigan sovutgichlar va issiqlik yanada yomonlashtirdi. Sharqiy sohil bo'ylab aeroportlar yopildi va kompaniyalar millionlab daromadlarini yo'qtdilar. Bu Nyu-

Yorkdagi eng qorong‘u tun bo‘ldi. Umumiy zarar 6 milliard dollarga yetdi. 12 kishi vafot etdi.

### **Italiya, 2003-yil 28-sentabr**

Butun Apennin yarim oroli elektrsiz qoldi. Avariya mahalliy vaqt bilan 03:01 da sodir bo‘ldi. Yiqilgan daraxt tufayli Shvetsariyadan Italiyaga o‘tadigan Mettlen-Lavorgo elektr uzatish liniyasi kuchsizlandi. Bu Sils-Soazzo ikkinchi liniyasini 110 % gacha o‘ta yuklanishga olib keldi. 20 daqiqadan so‘ng San-Bernardino liniyasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi va qolgan Shvetsariya yo‘nalishlarda bir necha marta elektr o‘chdi. Keyin Fransiyadan, Avstriyadan va Sloveniyadan Italiyaga yo‘naltirilgan liniyalar o‘chdi. Katta miqdorda elektr energiyasi tanqisligi tufayli “chastota ko‘chkisi” boshlandi va Italiya energetika tizimidagi generatorlar yakuniy nosozlikni keltirib chiqardi, bu esa uning to‘liq so‘nishiga olib keldi.




**1.4-rasm. Italiyadagi avariya holati**

Odatda, bir kecha-kunduzda sodir bo‘lgan bunday voqeа deyarli sezilmasdan o‘tadi. Biroq o’sha kuni tunda Rimda “Oq tun” deb nomlangan tadbir o‘tkazilishi vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. Shuning uchun teatrlar, magazinlar va restoranlar ishslashda davom etdi. Bayramda minglab shahar aholisi qatnashayotgan edi. Elektr yo‘qolgan paytda poyezdlar yurayotgan edi. 30 mingdan ko‘proq yo‘lovchilarni tashiyotgan 110 ga yaqin poyezdlar to‘xtatildi. Bu Italiyadagi eng yirik avariya bo‘ldi, 56 mln nafar italiyaliklar elektrsiz qoldi. Elektr ta’minoti to‘laligicha 16 soatdan so‘ng tiklandi.

### **Braziliya, 2009-yil 10-novabr**

Parana daryosi mintaqasida avj olgan dovul tarmoqning ayrim qismlariga zarar yetkazdi va dunyodagi ikkinchi eng yirik elektr stansiyasi – Itaypu GES tomonidan quvvatlanadigan tarmoqda o‘ta yuklanishni keltirib chiqardi. Stansiya Braziliyaning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojining 20 foizini va Paragvayning elektr energiyasining 90 foizini ta’minlaydi. Stansiyadagi g‘ayritabiyy vaziyat keyinchalik tizimning alohida bo‘limlarini kuchsizlantirdi. Energetika tizimi milliy operatori matbuot xizmatining xabar berishicha, qariyb 17 ming megavatt elektr energiyasini yetkazib berish to‘xtatilgan. Elektr ta’minoti buzilishi Braziliyada yashovchi 60 million aholini shuningdek, Paragvayning deyarli barcha hududini qamrab olgan.



**1.5-rasm. Braziliyadagi avariya holati**

Braziliyaning yirik shaharlaridan Rio-de-Janeyro va San-Pauluda millionlab aholi elektrsiz qoldi.

### **Germaniya va boshqa G‘arbiy Yevropaning mamlakatlari, 2006-yil 5-novabr**

2006-yil 5-noyabrdagi G‘arbiy Yevropaning bir qancha mamlakatlarda millionlab odamlar elektr ta’minotidan uzilishi natijasida elektrsiz qoldi. Germaniyada sovutish tizimidagi iste’molning keskin ortishi natijasida avariya yuz berdi. Ushbu katta avariya Germaniyaning shimoli-g‘arbida kema havo liniyalari ostidan o‘tishi uchun elektr uzatish liniyasining rejalashtirilgan ravishda o‘chirishidan kelib chiqqan. Sentabr oyida kemasozlik qizil va oq Konneford-Diele liniyalarini o‘chirishni talab qilgan, bu esa 5-noyabr soat 01:00 da boshlangan. Ushbu o‘zgarish qo‘shti tizim operatorlariga (QTO) yetkazilgan va ular energiya tizimining barqarorligini ta’minlash uchun simulyatsiyalar o‘tkazgan. Natijada QTO lari o‘rtasida rejalashtirilgan elektr energiyasi oqimi 5-noyabr soat 00:00 dan 06:00 gacha qisqartirildi. Biroq 3-noyabr kuni kemasozlik korxonasi yopilishni 4-noyabr kuni

kechki soat 22-ga qoldirishni talab qildi. Dispatcher buni foydaliroq deb o'yadi va arizani qabul qildi, o'zgarishni qo'shni TO larga juda kech yetkazdi, shuning uchun to'liq ko'rib chiqish amalga oshirilmadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish allaqachon sotilgan edi va uni o'zgartirish faqatgina fors-majordan tashqari imkonsiz bo'lib qoldi.

Landesbergen-Werendorf liniyasi o'z chegarasiga juda yaqin edi. Keyingi yarim soat ichida ushbu liniyada quvvat kamaydi, lekin keyin yana ko'tarildi va ikkinchi zanjir o'ta yuklanishdan shikatlanish xavfi tufayli o'chirildi. Bu jarayon faqatgina Germaniya va Fransiyaga emas, balki Italiya, Belgiya va Ispaniyaga ham ta'sir ko'rsatmasligi, avtomatlashtirish iste'molchilami birin-ketin uzib qo'ymasligi hamda umuman o'chish sodir bo'lmasligi uchun oradan 28 soniya o'tib Yevropa bo'ylab kaskadli o'chirish boshlandi. Tizim uchta asinxron zonalarga bo'lindi.

**ПРЕДПОСЫЛКА  
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ СОБЫТИЙ**




Рис. 6. Разделение системы, которое произошло в переходном состоянии западной Европы в 2006 году.

Источник: Финальный отчет – Развитие системы 4 ноября 2006 г., UCTE

### 1.6-rasm. G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi avariya holatida tizimning bo'linishi

#### Hindiston, 2012-yil 31-iyl


Tarixdag'i eng katta elektr uzilishi Hindistoncl'a sodir bo'ldi. Inqiroz mamlakatning shimoliy, g'arbiy va sharqidagi 22 viloyatni qamrab oldi. Eng qiyin vaziyat Rajasthan, Haryana, Panjob, Jammu va Kashmir, Himachal Pradesh, Uttaranchal, Uttar Pradesh, G'arbiy Bengal va Orissa shtatlarida yuzaga keldi. Poytaxt okrugi Dehli ham zarar ko'rди.

Bunga to'rtta shimoliy shtatlar tomonidan energiya iste'molining haddan tashqari ko'payib borganligi va mamlakatning energetika kompleksi tez o'sib borayotgan

aholining doimiy ravishda o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondira olmasligi sabab bo'lgan.

Elektr energiya uzilishidan 670 mln aholi aziyat chekdi, bu deyarli mamlakatning yarim aholisi edi.

1-avgust energiya tiklanguniga qadar, taxminan 10 foiz aholining hammasi qorong'ulikda bo'ldi. Aholi jazirama issiq bilan kurashdi, G'arbiy Bengaliyada yuzlab konchilar liftlar to'xtab qolganligi uchun yer ostida qolishdi. 500 dan ortiq poyezdlarning, shu jumladan, 300 nafar yo'lovchilarning harakati to'xtab qoldi. Katta tibbandliklar mamlakat shimalidagi barcha megapolislarni qamrab oldi.



1.7-rasm. Hindistonda sodir bo'lgan avariya

### **Yuqorida muhokama qilingan barcha baxtsiz hodisalardagi umumiyligimada?**

Ularning har birida biron bir elementning ishlamay qolishi sababli quvvat balansida nomutanosiblik paydo bo'ladi va bu ishda qolgan elementlarning ortiqcha yuklanishiga olib keladi. N-1 ishonchlilik prinsipi bo'yicha ishlaydigan g'arbiy energetika tizimlarida bitta elementning uzilishi qolganlarning ortiqcha yuklanishiga olib kelmasligi kerak.

Buning uchun o'z vaqtida choralar qabul qilishi va bu yuklanishni olib tashlashi kerak bo'lgan dispetcherda, birinchidan, sodir bo'lgan jarayonni tezroq hal qilish uchun yuqori malaka va ikkinchidan esa avariya rivojlanib ketishini oldini olish uchun yetarli miqdorda quvvat zaxirasini bo'lishi kerak.

Yuqoridagi keltirilgan avariylar shuni isbotlaydiki, N-1 ishonchlilik prinsipi bajarilgan taqdirda ham “tor” doiradagi vaqtida choralarни qo'llashga ulgurmagan yoki xato harakat qilishi mumkin bo'lgan odam ahamiyatga ega bo'ladi.

O'xhash tuzilishga va umumiy ildizga ega bo'lgan MDH energetika tizimida elektr tarmoqlarini loyihalash ko'pincha tarmoqlarni qurishga minimal mablag' sarflash orqali bajariladi (ko'p hollarda N-1 ishonchlilik prinsipi bajarilmaydi), energetika tizimining turg'unligi avariyyaga qarshi avtomatikani (QA) keng qo'llash hisobiga ta'minlanadi. Iste'molchilarни avariyyaga qarshi avtomatikadan uzish taqiqlangan yuqori mavqega ega Moskva shahrida bo'lgan 2005-yildagi avariya shuni isbotlaydiki, avtomatikani ishlatmasdan energetika tizimining yuqori ishonchliligini ta'minlab bo'lmaydi.

## **1.2. Energetika tizimi holatlarini boshqarish va nazorat qilish. Avtomatika turlari**

Avariyaning rivojlanish jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

**1.1-jadval**

Normal rejimda	Avariya rejimida	Avariyadan keyingi rejimda	Tiklangan normal rejimda
Normal holatni nazorat qilish va boshqarish	Avariyanı bartaraf etish (releli himoya)	Normal holatni tiklash	Normal holatni nazorat qilish va boshqarish

Energiyani ishlab chiqarishga xos xususiyatlaridan energetika tizimlarini keng jarayonda avtomatlashtirish talabi kelib chiqadi.


**Energetika tizimlarini avtomatlashtirish** deb, ularni elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash texnologik jarayonlarini avtomatik tarzda boshqaruvchi qurilmalar bilan jihozlashga aytildi. Ushbu qurilmalar normal va avariyyaviy rejimlarda inson ishtirokisiz, ularga o'matilgan dastur hamda o'rnatmalar asosida ish yuritadi.

Ishlatish nuqtayi nazaridan barcha avtomatika qurilmalarini quyidagi ikkita guruhga ajratish mumkin:

- texnologiya avtomatikasi;
- tizim avtomatikasi.

O'z navbatida ushbu guruhlardagi avtomatika qurilmalari quyidagilarga bo'linadi:

- avtomatik boshqarish qurilmalari;
- avtomatik rostlash qurilmalari.



### 1.8-rasm. Avtomatlashtirishning guruhlanishi

**Texnologiya avtomatikasi** – normal ishlash rejimida avtomatik boshqarish yoki rostlashni ta'minlab beradi (kuchlanishni avtomatik rostlash, generatorlarni avtomatik sinxronlash qurilmalari yordamida) va mahalliy ahamiyatga ega.

**Tizim avtomatikasi** – avariya rejimlarida avtomatik boshqarish yoki rostlashni ta'minlab beradi. Ahamiyat nuqtayi nazaridan ushbu avtomatika umumiy (generatorlarning forsirovkasi, avtomatik chastotaviy yuksizlantirish (AChYu)) va mahalliy (avtomatik qayta ulash (AQU), zaxirani avtomatik ulash (ZAU)) bo'lishi mumkin.

Chastota va quvvatni avtomatik rostlash (ChQAR) qurilmasi energetika tizimining normal rejim avtomatikasiga kiradi.

#### 1.2-jadval

Texnologiya avtomatikasi	Tizim avtomatikasi		
	Avariya holati	Normal holat	
Mahalliy ahamiyati	Mahalliy ahamiyati	Umumiy ahamiyati	Umumiy ahamiyati
QAR, GAS	AQU, ZAU	GF, AChYu	ChQAR

Elektr stansiyalar va energetika tizimlari birmuncha va turli xil o'zaro bog'langan elementlardan tashkil topib, murakkab komplekslar hisoblanadi.

Bugungi kunda elektr stansiyalar va energetika tizimlari ishonchlilikini, ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini va elektr energiya sifatini oshirish kabi talablar energetika tizimida avtomatikani va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini (ABT) keng ravishda tattbiq qilishgina orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Avtomatika qurilmalari quyidagi masalalarni yechishga yordam beradi:**

- elektr stansiyalar va energetika tizimlarining xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga berilgan texnologik rejimni olib borish;
- energetika tiziminining turg'unligini va iste'molchilar elektr ta'minotining ishonchlilikini ko'tarish;
- avariya jarayonini bartaraf etilishini tezlashtirish.

Avtomatika qurilmalarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: **stansiya avtomatikasi** qurilmalari va **tizim avtomatikasi** qurilmalari.

**Stansiya avtomatikasining asosiy qurilmalari:**

- yoqilg'i tayyorlash va uzatish avtomatikasi;
- kimyoiy tozalangan svjni tayyorlash avtomatikasi;
- qozon va turbinaning berilgan rejimini olib borish avtomatikasi;
- agregatlarni ishga tushirish va to'xtatish avtomatikasi;
- generatorlarni avtomatik sinxronlash;
- sinxron mashinalar qo'zg'atish tizimini avtomatik rostlash;
- sinxron mashinalarning magnit maydonini avtomatik so'ndirish;
- turbinalarning aylanish tezligini avtomatik rostlash;
- aktiv va reaktiv quvvatni elektr stansiya generatorlari orasida avtomatik taqsimlash;

- zaxirani avtomatik ulash.

**Tizim avtomatikasiga** quyidagilar kiradi:

- energetika tizimi yuklamasini elektr stansiylar orasida avtomatik taqsimlash qurilmasi;
- energetika tizimida chastota va aktiv quvvatni avtomatik rostlash qurilmasi;
- energetika tizimining asosiy bo'g'inlarida kuchlanishni avtomatik rostlash qurilmasi;
- turg'unlik buzilishini avtomatik oldini olish qurilmasi;
- asinxron rejimni avtomatik bartaraf etish qurilmasi;
- chastota bo'yicha avtomatik yuklamalarni o'chirish qurilmasi;
- avtomatik qayta ulash qurilmasi;
- podstansiyalarda zaxirani avtomatik ulash qurilmasi.

Elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va iste'mol qilish jarayonini insonning bevosita ishtirokisiz boshqarish **avtomatika** deb ataladi.

Bugungi kunda faqatgina ayrim elektr energetika obyektlari avtomatik tarzda boshqariladi.

Umuman olganda, hozircha elektr energiyani ishlab chiqarish va uzatish jarayonining boshqaruvi faqatgina energetika tizimi dispetcherining, ya'ni insonning ma'lum darajadagi operativ ishtirokida bajarilishi mumkin. Boshqarishning bunday turi **avtomatlashtirilgan** deb ataladi va **avtomatlashtirilgan dispetcherlik boshqaruv tizimi** (ADBT) yordamida bajariladi. Ushbu boshqaruv tizimining asosiy qismini energetika tizimining dispetcherlik punktida joylashgan boshqaruv hisoblash kompleksi tashkil etadi.

Avtomatik boshqaruv elektr energetika obyektlarining xususiyatlari, energetika tizimining rejimiga bog'liq bo'lgan parametrlari hamda ulaming holati va ishslash rejimlari haqidagi ma'lumotni tahlil qilish asosida bajariladi.

Elektr energiyani ishlab chiqarish va uzatish jarayonining avtomatik boshqaruvi quyidagi **texnik vositalar** yordamida bajariladi:

- energetika tizimi normal ishslash rejimlarini boshqarish avtomatikasi;
- avariyaning oldini olish avtomatikasi.

Energetika tizimi **normal ishslash rejimlarini boshqarish** avtomatikasi quyidagilarni bajarib beradi:

- energoblok (turbina-generator)larni avtomatik ishga tushirish va sinxron generatorlarni parallel ishlashga ulash (sinxronlash);
  - elektr stansiya shinalaridagi kuchlanishni va sinxron generatorlarning reaktiv quvvatini berilgan qiymatda avtomatik tarzda ushlab turish;
  - energetika tizimi rejimlarini kuchlanish va reaktiv quvvat bo'yicha avtomatik boshqarish;
  - sinxron ishlayotgan generatorlarning aylanish tezligini o'zgarmas holatda ushlab turish hamda chastota va quvvatni avtomatik rostlash (ChQAR).

Avariyaning **oldini olish avtomatikasining** vazifasi energetika tizimida katta uzunlikka ega va katta yuklanish bilan ishlayotgan liniyalarda qisqa tutashuvlar bo'lganda hamda ular bilan bog'liq bo'lgan katta quvvatli energoobyektlar o'chishi oqibatida paydo bo'lgan rejimlarda parallel ishlayotgan elektrostansiyalar majmuasining sinxron turg'unligini saqlab qolishdan iboratdir.

Bunday holatlarda aktiv quvvat yetishmovchiligi yoki ortiqligi mavjud avariya rejimi paydo bo'lib, u butun energetika tizimiga oid avariyyada rivojlanib ketib, birlashgan energetika tizimi turg'unligining buzilishiga va uning bo'linishiga, issiqlik stansiyalar to'xtab qolishiga va iste'molchilar elektr ta'minotini katta hududlarda yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

**Avariya holati** asosiy turtki bo'lmish qisqa tutashuvdan hamda unga va uning o'chisiga bog'liq bo'lgan quvvatlar balansi buzulishidan boshlanadi va quyidagicha rivojlanib boradi:

- EET ning quvvat yetishmagan qismida kuchlanish va chastota pasayishi;
- EET ning quvvat ortiqcha qismida esa kuchlanish va chastota ko'tarilishi.

Chastotaning pasayib ketishi issiqlik elektr stansiyalarida ehtiyojlar qurilmalari unumdonligining pasayishiga va buning oqibatida uning yana ham keskin, qayta tiklab bo'lmaydigan qiyatgacha tushib ketishiga, ya'ni «**chastota ko'chkisiga**» olib kelishi eng xavfli avariya deb hisoblanadi.

Shunga o'xshash, reaktiv quvvat yetishmovchiligidan paydo bo'lgan kuchlanish pasayib ketishi «**kuchlanish ko'chkisiga**» rivojlanib ketishi mumkin.

Avariyaning oldini olish avtomatikasining eng muhim vazifasi avariyyaga olib kelgan turtkini yo'qotishdan iboratdir.

Bu masala releli himoya va avtomatika (RHA) hamda RHAdan o'chirilgan uzgichlarni avtomatik qayta ulash (AQU) qurilmalari yordamida bajariladi.

Ko'pchilik hollarda qisqa tutashuvlar (ayniqsa, havo liniyalardagi bir fazali qisqa tutashuvlar) o'tkinchi (elektr yoyi orqali) bo'ladi. Muvaffaqiyatli avtomatik qayta ulash jarayonida avariyyaviy turtki, odatda, yo'qoladi va energetika tizimi rejimi qayta tiklanadi.

**Turg'un qisqa tutashuvlar** bo'lganda, ularni releli himoyadan qayta o'chirish jarayonida quvvatlar balansining buzilishi takroran paydo bo'ladi va energetika tizimi **sinxron turg'unligining buzilish xavfi** yuzaga keladi.

Bunday holatda butun **tizimga taalluqli avariyaning oldini olish avtomatikasi** ishga tushadi va uning vazifasi:

- statik va dinamik sinxron turg'unlik buzilishining oldini olishdan;

• yoki qisqa asinxron rejimdan so'ng energetika tizimining natijaviy turg'unligini saqlab qolishdan iboratdir.

**Dinamik turg'unlik** buzilishining oldini olish uchun, masalan, bug' turbinalarni qisqa muddatga impulsli yuksizlantirish yoki gidrogeneratorlarni qisqa muddatli elektr tormozlash kabi tadbirlardan foydalaniлади.

Avariyanadan keyin paydo bo'lgan rejimlarda **statik turg'unlik** buzilishining oldini olish elektr liniyalarning statik turg'unlik nuqtayi nazaridan o'ta yuklanishini kamaytirishga qaratilgan quyidagi tadbirlar orqali bajariladi:

- tizimning defitsit qismida sinxron kompensator rejimida ishlab turgan gidrogeneratorlarni faol rejimga o'tkazish;

- tizimning ortiq qismida ishlab turgan gidrogeneratorlarning bir qismini o'chirish;

- boshqa tadbirlar.

Shunga o'xshash tadbirlar asinxron holatni tugatish avtomatikasi (AHAT)ga ham xosdir. Qoidaga ko'ra, AHAT tarmoq bo'linishi (TB) bilan ishlaydi va energetika tizimi ikkita asinxron qismiga ajraladi:

- Chastotaning tushishi va AChYu ishlashining yetishmasligi. Agar yetishmovchilik juda katta bo'lsa, u holda AChYu samarasiz bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun qoidaga ko'ra AHAT ishga tushgandan so'ng aniq yuklamaga ega oldindan tanlangan elektr uzatish liniyasini o'chirish uchun yuklamalarni uzishning maxsus avtomatikasi (YuMA) ishga tushadi va bu yetishmovchilikning kamayishini hamda AchYu ni samarali ishlashini ta'minlaydi.

- Chastotaning haddan tashqari ortishi yuqori chastotali generatorlar uchun xavf tug'diradi va uni kamaytirish uchun oldindan tanlangan generatorlarni uzish avtomatikasi (GUA) ishlaydi.

Energetika tizimining dispetcheri chastotalarni tenglashtirish bo'yicha choralar ko'rgandan so'ng, u energetika tizimining bo'lingan qismlarini sinxronlashtirish, ya'ni sinxronlashtirish tekshiruvi bilan AHATdan uzilgan liniyani yoqish buyrug'ini beradi.

Loyiha bo'yicha o'matilishi kerak bo'lgan joylarda AHAT siz ishslash taqiqланади. Shuning uchun AHAT ni remontga chiqarish yoki uni ishlamay qolish holatlarini bartaraf etish uchun boshqa liniyaning oxiriga komplekt zaxira AHAT o'matilinadi.

Bu rejimda energetika tizimining har ikkala qismida quvvat balansi buziladi. Energetika tizimining ortiq quvvatlari qismida chastota va kuchlanishlar oshib ketadi, defitsit qismida esa pasayadi.

Bunda energetika tizimi parametrlarining ruxsat etilgan qiymatlardan chiqib ketishi oldini olish avtomatikasi (QA) ishga tushadi:

- kuchlanish tushib ketishini (KTChA) yoki ko'tarilib (KKChA) ketishini cheklash avtomatikasi;

- chastota tushib ketishini (ChTChA) yoki ko'tarilib (ChKChA) ketishini cheklash avtomatikasi.

Ushbu avariyaning oldini olish avtomatikasining vazifasi quyidagidan iborat:

- quvvat balanslarining buzilishini to'xtatish;

- balanslami to'liq tiklashga yordam berish;
- rejim parametrlarini nominal qiymatlarga qaytarish.

Energetika tizimining bo'lingan qismlari orasidagi bog'lanishni tiklash sinxronizatsiyali **avtomatik qayta ulash avtomatikasi** (SAQU) yordamida bajariladi.

Agar energetika tizimidagi asinxron rejimni yo'qotish amalga oshmay qolsa va "chastota ko'chkisi" paydo bo'lganda alohida-alohida stansiyalarni yoki generatorlarni izolyatsiyalangan ishini ozmi-ko'pmi muvozanatli yuklama bilan taqsimlashni amalga oshiruvchi **chastotani taqsimlash avtomatikasi** (ChTA) ishga tushadi. Bu esa to'liq qaytarilgandan so'ng energetika tizimini "no!" dan rivojlantirishga yordam beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Tizim avtomatikasi bo'lмаган energetika tizimining faoliyatı nega mushkul?
2. Agar tizim avtomatikasi ishlamasaga yoki mavjud bo'lmasa energetika tizimida qanday voqealar sodir bo'lishi mumkin?
3. Texnologik avtomatikaga qanday avtomatikalar kiradi? Ular qayerda ishlatiladi?
4. Stansiylar avtomatikasiga qanday qurilmalar kiradi? Stansiya avtomatikasi energetika tizimi yoki uning tarkibiy qismlarining turg'unligiga ta'sir qiladimi?
5. Tizim avtomatikasiga qanday qurilmalar kiradi? Ular qanday rejimlarda ishlatiladi?
6. Avtomatik boshqaruv avtomatlashtirilgan boshqaruvdan nima bilan farqlanadi?
7. Normal rejimlarni boshqarish avtomatikasi avariyaning oldini olish avtomatikasidan nima bilan farqlanadi?
8. Normal rejimlarda avtomatikaning qaysi turlari ishlatiladi? Ularning vazifasi nimadan iborat?
9. Statik turg'unlikni kuchaytirish uchun qanday avtomatika ishlatiladi?
10. Statik turg'unlik buzilishining oldini olish uchun qanday avariyaning oldini olish tadbirlaridan qo'llanadi?
11. Turg'unlik buzilganidan so'ng avtomatikaning qanday turlari ishlaydi? Shunda qanday avtomatika tadbirleri ishlatiladi?
12. Tarmoqni bo'lish avtomatikasi nima uchun mo'ljallangan va ushbu avtomatika ishlaganda energetika tizimida nimalar sodir bo'ladi?
13. Liniyalarni avtomatik qayta ulash avtomatikasi turg'unlikga ta'sir qiladimi? Javobingizni dalillar bilan asoslang.
14. Normal rejimlarni tiklash uchun avtomatikaning qanday turlari ishlatiladi?
15. Energetika tizimida kuchlanish pasayib ketishi nima bilan xavfli? Kuchlanish ko'chkisini nima bilan oldini olish mumkin?
16. Energetika tizimida kuchlanish ko'tarilib ketishi nima bilan xavfli? Kuchlanish ko'tarilishini nima bilan oldini olish mumkin?

17. Energetika tizimida chastota pasayib ketishi nima bilan xavfli? Chastota ko'chkisini nima bilan oldini olish mumkin?
18. Energetika tizimida chastota ko'tarilib ketishi nima bilan xavfli? Chastota ko'tarilishini nima bilan oldini olish mumkin?
19. Liniyalarda asinxron holatni avtomatik to'xtatish avtomatikasining (AHAT) asosiy komplektidan tashqari rezerv komplekti mavjud. Bu nima uchun qilingan? Asinxron rejim energetika tizi miga qanday xavf tug'diradi?
20. Energetika tizimida quvvatlar balansi buzilmay turib (generatorlar o'chmasa va sh.k.) asinxron rejim paydo bo'lishi mumkinmi?

## II BOB. GENERATORLARNI AVTOMATIK SINXRONLASH

Generatorni tarmoqqa muvaffaqiyatli ulash uchun yoqish paytidagi tenglashtiruvchi tokning ko'tarilishi ruxsat etilgan qiymatdan oshmasligi va yoqilgan generator rotorini uzoq muddatli tebranishlarsiz sinxronlash kerak.

Bu shartlarni bajarish uchun generator aylanish chastotasini shunday boshqarish kerakki, u sinxronga yaqin bo'lishini, generator chiqishidagi kuchlanish esa energetika tizimi kuchlanishiga teng yoki yaqin bo'lishini va uzgichni ulash uchun beriladigan buyruq vaqtini aniq tanlashni bajarish kerak.

Aylanish chastotasi va kuchlanishni tenglashtirish hamda generatorni tarmoqqa ulash momentini tanlash jarayoni **sinxronlash** deb ataladi.

Generatorlarni energetika tizimiga parallel ulashning ikkita asosiy usullaridan soydalaniladi:

- (1) aniq sinxronlash;
- (2) o'z-o'zini sinxronlash.

Generator **aniq sinxronlash** usuli bilan ulanganda sinxronga yaqin chastotada ochiladi va qo'zg'atiladi. Keyin sinxronlashtirilayotgan generator va tarmoqning kuchlanish hamda chastotasi avtomatik yoki qo'l yordamida tenglashtiriladi. Shundan so'ng generatorni tarmoqqa ulash uchun buyruq beriladi.

Yoqish paytida tenglashtiruvchi tokning ruxsat etilgan qiymatdan ortib ketmasligi, generatoring tebranishi tez to'xtashi uchun generator va tarmoqning kuchlanish hamda chastotasini juda aniq tenglashtirish hamda uzgichni yoqish uchun aniq vaqtni tanlash muhim ahamiyatiga ega.

**O'z-o'zini sinxronlashda** generator sinxronga yaqin chastotada ochiladi va qo'zg'atilmagan holatda ulanadi. Generator uzgichi yoqilishi bilanoq rotor chulg'amiga qo'zg'atish toki beriladi. Keyin rotor toki va EYK ning o'sishi kuzatiladi, keyin generator sinxronizmga o'tadi.


### Aniq sinxronlash shartlari:

- a) generator va tizim kuchlanishlari tengligi;
- b) ularning chastotalari tengligi;
- d) generator va tizim kuchlanishlari faza bo'yicha bir xilligi;
- e) fazalar ketma-ketligi bir xilligi.

Quyida ushbu shartlar bajarilmasa qanday oqibatlarga olib kelishini ko'rib chiqamiz.

### 2.1 Generatorlarni aniq sinxronlash

Har bir shartning ta'sirini quyidagi sxema misolida alohida ko'rib chiqamiz.



**2.1-rasm. Oddiy elektr tizimining sxemasi**

Bu yerda:

$X_d''$  – tizimga ulanayotgan generatorming o'ta o'tkinchi qarshiligi;

$X_b$  – tizimning qarshiligi;

$X_s$  – generatorming tizim bilan bog'lanish qarshiligi.

Umumiy holda generatormi tizimga ulayatganda Om qonuniga asosan tenglashtiruvchi tokning o'ta o'tkinchi qiymati quyidagicha topiladi

$$J_{teng}'' = \frac{U_t - U_g}{X_d'' + X_b + X_s}, \quad (2.1)$$

bu yerda  $U_t$  va  $U_g$  – tizim va generator kuchlanishlari;


$X_d'' + X_b + X_s$  – tenglashtiruvchi tok oquvchi yo'lning qarshiligi (amalda bu qarshilikni induktiv deb hisoblash mumkin).

a)  $U_t$  va  $U_g$  kuchlanishlari qiymat bo'yicha teng bo'limganda, tenglashtiruvchi tok

$$J_{teng} = \frac{\Delta U}{X_{\Sigma}}, \quad (2.2)$$

bu yerda  $\Delta U = U_t - U_g$ ;

$X_{\Sigma}$  – tenglashtiruvchi tok oquvchi yo'lning qarshiligi. Rasmida ko'rsatilgandek  $J_{teng}$  vektori  $\Delta \vec{U}$  vektoridan  $90^{\circ}$  ga orqadadir (2.2-rasm).



**2.2-rasm. Tenglashtiruvchi tok va kuchlanishning vektor diagrammasi**

$U_s$  va  $U_g$  kuchlanishlari qiymat bo'yicha teng bo'linaganda tenglashtiruvchi tokning maksimal qiymati qo'zg'atilmagan generator cheksiz quvvatlil tizimga ulanganda bo'ladi.


Bunda  $U_g = 0$ ,  $\Delta U = U_t$ ,  $X_s = X_g \neq 0$  va  $J_{teng\ max} = \frac{U_t}{X_d}$ , ya'ni generatordaning chiqish klemmalaridagi qisqa tutashuv tokining o'ta o'tkinchi  $J''$  qiymatidan oshmaydi. Bunday tokga generatordan mo'ljallangan bo'ladi va uning qisqa muddat davomida oqishi generatordaning shikastlanishga olib kelmaydi. Vektor  $\bar{U}_t$  bilan tok  $J_{teng}$  orasidagi  $\varphi$  burchagi  $90^\circ$  dir, shu sababli generatordaning valida aylantiruvchi moment ham nolga teng bo'ladi.

$$M = \frac{U_t * J_{teng} * \cos \varphi}{\omega} = 0.$$

bu yerda  $\omega$  – agregatning aylanish tezligi.

Aytildigan shunday xulosa qilish mumkinki, aniq sinxronlash paytida  $\Delta U = |U_t - U_g|$ - ning qiymati nominal kuchlanishning 20 % gacha bo'lishi mumkin.

b) Quyidagi rasmda ko'rsatilgandek  $\bar{U}_t$  va  $\bar{U}_g$  vektorlari faza bo'yicha farqlansa,



2.3-rasm. Kuchlanishlarning vektor diagrammasi

u holda kuchlanishlar farqi quyidagicha:

$$\Delta U = 2U \cdot \sin \frac{\delta}{2}, \quad (2.3)$$

bu yerda  $U = U_s = U_g$ ;  $\delta$  – generator tizimga ulanayotgan vaqtida  $\bar{U}_t$  va  $\bar{U}_g$  vektorlar orasidagi burchak.

Tenglashtiruvchi tokning qiymati:

$$J_{teng} = \frac{2U}{X_{\Sigma}} \sin \frac{\delta}{2} \quad (2.4)$$

Uning maksimal qiymati  $\delta=180^\circ$  da hamda generator cheksiz quvvatli tizimga ulanganda bo'ladi. Bunda


$$J_{teng, max.} = \frac{2U}{X_d''} \quad (2.5)$$

Bu qiymat  $J''$  qiymatidan ancha kattadir va bunday tokga generatorlar mo'ljallanmagan. Bundan tashqari  $\delta$  burchagi  $0-180^\circ$  oraliq'ida bo'lsa, agregatlarning validagi aylantiruvchi moment quyidagicha:

$$M = \frac{P}{\omega} = \frac{U_g \cos \frac{\delta}{2}}{\omega} > 0.$$

Shuning uchun sinxronlash paytida tizim va generator kuchlanish vektorlari ustma-ust tushmasa, generatorga shikast yetishi mumkin va bu shart yetarli darajada aniq bajarilishi shart.

d) Generator va tizim fazalarining ketma-ketligi har xil bo'lsa, unda generator va tizimning nomdosh fazalarida kuchlanishlar vektorlari ustma-ust tusha olmaydi.



**2.4-rasm. Kuchlanish vektor diagrammasi**

Masalan, yuqorida rasmida ko'rsatilgandek, A fazasi kuchlanishlari ustma-ust tushgan taqdirda ham, B fazasi kuchlanishlari orasidagi burchak  $120^\circ$  ni tashkil qiladi (C fazasida ham shunday).

$U_t$  va  $U_g$  kuchlanish vektorlari ustma-ust tushmagandagi holat yuqorida ko'rib chiqilgan edi. O'z-o'zidan tushunarlikni, generator va tizim fazalarining ketma-ketligi bir xil bo'lishi kerak. Bu shart generator montaj qilinayotganda bajarilib, sozlash vaqtida qayta tekshiriladi.

e) Generator va tizimning  $f_g$  va  $\omega_g$  chastotalarini teng bo'lmaganda, tizim agregatlarining va generatorning  $\omega_1$  va  $\omega_2$  aylanish tezliklari ham teng bo'lmaydi. Ularning  $\omega_s = \omega_1 - \omega_2$  farqi hisobiga hosil bo'lgan ortiqcha aylanish momenti:

$$M_{int} = J \frac{\omega_s^2}{2}, \quad (2.6)$$

bu yerda / inorniya momenti;  $\omega_s$  – sirpanish burchak chastotasi.

Ottiqchali moment hisobiga generator va tizim kuchlanish vektorlari orasida hosil bo'lgan burchak quyidagiaga teng:

$$\delta = \omega_s t, \quad (2.7)$$

bu yerda  $t$  – generator tizimga ulangandan so'ng o'tgan vaqt.

$\delta$  burchagi paydo bo'lishi  $J_{teng}$  tenglashtiruvchi tokini va agregatlar valida aylantiruvchi momentni paydo qiladi. Ushbu moment quyidagicha:

$$M = \frac{E_q \cdot J_{teng} \cdot \cos \frac{\delta}{2}}{\omega_g}, \quad (2.8)$$

bu yerda  $E_q'$  – generatorning o'tkinchi elektr yurituvchi kuchi;  $\omega_g$  – generatorning burchak aylanish tezligi.

Bu momentning qiymati generatorning nominal aylanish momentidan 5÷6 barobar katta bo'lishi mumkin va unga katta xavf tug'diradi. Shuning uchun generator chastotasi tizimnikidan katta farqlansa, uni tizimga ularash taqiqilanadi.

## 2.2. Generatorlarni o'z-o'zini sinxronlash

Texnik ekspluatatsiya qilish qoidalariga ko'ra, o'z-o'zini sinxronlash usulidan favqulodda vaziyatlarda quvvati 200 Mvt gacha bo'lgan turbogeneratorlarda va 500 Mvt gacha bo'lgan gidrogeneratororda foydalananishga ruxsat beriladi. Katta quvvatlari generatorlarni esa o'ta o'tkinchi tok nominalga nisbatan 3 martadan ortib ketmasligi sharti bajarilganda ushbu usulda ularash mumkin.

Normal sharoitlarda generator-transformator sxemasida ishlaydigan bilvosita sovitish chulg'amiga ega turbo va gidrogeneratorlarni (elektr stansiyasi ishlash sharoiti va aggregatning holatiga bog'liq ravishda), shuningdek, kuchaytiruvchi motorga ega bo'lgan sinxron kompensatorlarni o'z-o'zini sinxronlash usuli yordamida ularsha ruxsat beriladi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, generatorni o'z-o'zini sinxronlash usuli bilan tarmoqqa ularash jarayoni generator chiqishida kuchlanishning sezilarli darajada

pasayishiga olib keladi, bu esa generatorning shinasiga ulangan iste'molchilarning normal ishlashiga ta'sir ko'rsatadi. Qoldiq kuchlanish qiymatini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$U_g = U_t \frac{X'_d}{X'_d + Z_{nat}}, \quad (2.9)$$

bu yerda,  $Z_{nat}$  – energetika tizimining generator chiqishiga keltirilgan eng kichik natijaviy qarshiligi;

$X'_d$  – generatorning o'tkinchi qarshiligi.

Sinxron mashinalami o'z-o'zini sinxronlash usuli yordamida tarmoqqa ulashda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- generator qo'zg'atilmagan;
- maydonni so'ndirish avtomati (MSA) o'chirilgan;
- stator chiqishidagi qoldiq kuchlanish 0,1-0,3U<sub>nom</sub> dan oshmasligi kerak;
- mashinaning sirpanishi ruxsat etilgan qiymatdan oshmasligi;
- ulash paytida mashinaning tezlanishi ruxsat etilgan qiymatdan oshmasligi (tinchlantiruvchi chulg'amga ega bo'limgan gidrogeneratorlar uchun 0,5 Gs/s va tinchlantiruvchi chulg'amga ega gidrogeneratorlar hamda turbogeneratorlar uchun 2-5 Gs/s).

Agar o'z-o'zini sinxronlash generator chiqishida katta qoldiq kuchlanish bilan sodir bo'lsa, u qo'zg'atilgan generatorni asinxron ulash kabi katta miqdorda zarbaviy tokni hosil qiladi.

Generatoni tarmoqqa katta sirpanish yoki tezlanish bilan ulash holatida o'z-o'zini sinxronlash jarayoni uzoq davom etadi va uzoq tebranishlar bilan birga bo'ladi.

O'z-o'zini sinxronlash usuli bilan tarmoqqa ulangan generator qanchalik qo'zg'atilmagan bo'lsa, tizim faza kuchlanishiga nisbatan tarmoqqa ulash momenti ahamiyatga ega emas.

Maydonni so'ndirish avtomati (MSA) yordamida magnit maydoni o'chirilgan generatorga (rotor chulg'ami qo'zgatgichdan ajratilgan va so'ndirish qarshiligiga ulangan) turbina yordamida sinxron tezlikga yaqin qiymatgacha tezlik beriladi (nominalning 97 % - 98 % ini tashkil qilishi kerak) va u tizimga ulanadi. So'ng maydonni so'ndirish avtomati ajratilib, rotor chulg'amiga salt ishlash qo'zg'atish toki beriladi. Bunda salt ishlash qo'zg'atish toki va nominal tezlik bilan ishlayotgan generatoring kuchlanishi **nominal** qiymatga tengdir.


Shundan so'ng generator o'zi aylanish tezligini oshiradi va sinxronizmga kirib ketadi, ya'ni uning sirpanishi nolgacha kamayadi.

Bu jarayonning fizikaviy mohiyati quyidagi iborat.

Qo'zg'atilmagan generator tizimga ulangandan so'ng, qo'zg'atish toki berilgunga qadar unga quyidagi aylantiruvchi momentlar ta'sir qiladi:

- $M_T$  turbina momenti;
- $M_{as}$  asinxron moment;
- $M_r$  refaol moment.

Gidroagregatlarda turbinaning yo'naltirish apparati salt ishlash holatiga o'matiladi, bunda salt ishlash rejimida nominal tezlik bilan aylanayotgan agregatda  $M_T$  turbina momenti ishqalanishga bog'liq qarshilik momenti bilan teng bo'ladi.



2.5-rasm. Asinxron momentning sirpanishga bog'liqlik grafigi

Turboagregatlarda ham bug'ni turbinaga uzatuvchi klapanlar shunga o'xshash holatga o'matiladi.  $M_{as}$  asinxron momentning kelib chiqishi shundan iboratki, rotor so'ndiruvchi qarshilikka ulangan generatorni tarmoqqa ulaganda, u asinxron motorga aylanadi va tarmoqdan energiya iste'mol qiladi. Bu momentni  $S$  sirpanishga bog'liq ravishda o'zgarishi 2.5-rasmda ko'rsatilgan. Maksimal momentga xos sirpanishning  $S_{kr}$  qiymati zamonaviy generatorlarda 0,05 ga tengdir.

Turbogeneratorlarda maksimal asinxron moment qiymati  $2.5M_{nom}$ , gidrogeneratorlarda esa  $(0.5 \div 1.0)M_{nom}$  gacha yetishi mumkin (bu yerda  $M_{nom}$  – nominal yuklama bilan ishlayotgan agregatning aylantiruvchi momenti).

$M_r$  refaol momentning kelib chiqishi shundan iboratki, statoring aylanuvchan maydoni o'z ortidan generator rotorini ergashtiradi (doira bo'yicha aylanayotgan doimiy magnit temir to'rburchak shaklidagi plastinani o'z o'qi atrofida aylantirgani kabi). Ayon qutbli gidrogeneratorlarda bu moment sezilarli darajada bo'ladi, noayon qutbli turbogeneratorlarda esa uning qiymati juda ham kichik.

Yuqorida qayd etilgan aylantiruvchi momentlar agregatni sinxron tezlikka juda yaqin holatga olib keladi.

Qo'zg'atish toki berilgandan so'ng uni statoring aylanuvchan maydoni bilan o'zarlo ta'siri oqibatida  $M_s$  sinxron momenti paydo bo'ladi

$$M_s = \frac{E_q \cdot U_t}{\omega X_{\Sigma}} \cdot \sin\delta, \quad (2.10)$$

Bu yerda  $E_q$  – generatorming elektr yurituvchi kuchi;  $U_t$  – tizimning kuchlanishi;  $\omega$  – generatorming burchak aylanish tezligi;  $X_{\Sigma}$  – generator va tizimning umumiyligi;  $\delta = \omega_{st}$  – generator va tizim kuchlanishlarining vektorlari orasidagi burchak. Bu moment ta'sirida generator tamomila sinxronizmga tortiladi (uning S sirpanishi nolga tenglashadi).


O'z-o'zini sinxronlashning aniq sinxronlashga nisbatan asosiy afzalligi generatorming tizimga tez ularishidadir. Buning sababi shundan iboratki, generatorming kuchlanishi va chastotasini energotizim kuchlanishi va chastotasiga mos keltirishga, ularning kuchlanish vektorlari fazasi bo'yicha ustma-ust tushishini kutishga vaqt sarf qilish kerak bo'lmaydi.

Bu afzallik energetika tizimida quvvat defitsiti mavjud avariya holat paydo bo'lganda, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega.


Normal rejimlarda generatormi tizimga o'z-o'zini sinxronlash usuli bilan sirpanish 5 % dan oshmagan taqdirda ulash mumkin.

Katta quvvat defitsiti mavjud avariya holatlarda esa generatormi o'z-o'zini sinxronlash usuli bilan ulash sirpanish 20 % gacha bo'lganda ruxsat etiladi.

### 2.3. O'zgarmas o'zish burchakli yarim avtosinxronizator



2.6-rasm. O'zgarmas uzish burchakli yarim avtosinxronizator sxemasi



2.7-rasm. Kuchlanish vektorlari diagrammasi

O'zgarmas o'zish burchakli yarim avtosinxronizator sxemasi ishlataliganda generatorming kuchlanishi va chastotasini energetika tizimi kuchlanishi va chastotasiga mos keltirish dastagi orqali, yuqori mas'uliyatga ega amallar esa (moslash aniqligini nazorat qilish va ulashga impuls yuborish) avtomatik tarzda bajariladi.

Tizim va generatorming nomdosh kuchlanishlariga ulangan 1TV va 2TV kuchlanish transformatorlarining ikkilamchi cho'lg'amlarining bosh uchlari bitan bir-biriga ulanib, oxirlari esa 1KV va 2KV minimal kuchlanish relefleri ta'minot olayotgan shinalarga ulangan.


Bu shinalardagi **pulsjanish kuchlanishi** deb ataluvchi  $u_p$  kuchlanishi generator va tizim kuchlanishlarining ayirmasiga tengdir:

$$U_p = U_t \sin \omega_s t - U_g \sin \omega_g t \quad (2.11)$$

Pulslanish kuchlanishining ta'sir etuvchi qiymati **sirpanish kuchlanishi**  $U_{sr}$  deb ataladi va  $U_t = U_g = U$  bo'lganda quyidagicha topiladi:

$$U_{sr} = 2U_s \sin \delta / 2 \quad (2.12)$$

Bu ifodada tizim va generator kuchlanishlari orasidagi burchak  $\delta = \omega_s t$  deb belgilangan, o'z navbatida sirpanish burchak tezligi  $\omega_s = \omega t - \omega_g$ .




**2.8-rasm.** Sirpanish kuchlanishning vaqtga bog'liqlik grafigi

Generator va tizim chastotalar ayirmasi  $\omega_{sr}$  qanchalik katta bo'lsa,  $\delta$  burchagi shunchalik tez o'zgaradi va  $u_p$  pulslanish kuchlanishining o'zgarish davri  $T_p$  ham kichik bo'ladi.

Pulslanish kuchlanishining quyidagicha o'zgarish holatlarini ko'rib chiqaylik:

- a) sirpanish hisobiy qiymatdan katta bo'lganda ( $\omega_{sr} > \omega_{sr,his}$ );
- b) sirpanish hisobiy qiymatga teng bo'lganda ( $\omega_{sr} = \omega_{sr,his}$ );
- d) sirpanish hisobiy qiymatdan kichik bo'lganda ( $\omega_{sr} < \omega_{sr,his}$ ).

**Hisobiy sirpanish**  $\omega_{sr}$  deb, generator va tizim chastotalar ayirmasining shunday eng katta miqdoriga aytildiki, unda generator asinxron yurishsiz sinxronizmga kirishi ta'minlanadi.



2.9-rasm. Sirpanishning turli qiymatlarida pulschanishining o'zgarishi

Bu rasmida yuqorida qayd etilgan uchala holat tasvirlangan.  $U_{kv1}$  va  $U_{kv2}$  belgilari orqali KV1 va 2KV minimal kuchlanish relelarining ishga tushish kuchlanishlari ko'rsatilgan. Q uzgichining ulanishiga signal KL1 va KL2 oraliq relelarining ikkova ham kontaktlar ulangan taqdirdagina boradi. KL1 relesi KV1 relesining kontaktlari orqali ta'minot oladi, o'z navbatida bu rele  $U_p$  kuchlanishi  $U_{kv2}$  qiymatigacha pasayganda kontaktni ulyadi ( $2, 2', 2''$  nuqtalari).

KV2 relesi ishlagunga qadar kuchlanish  $U_{kv1}$  qiymatigacha pasayganda rele KV1 ishga tushib, KT vaqt relesini ishga tushirib yuboradi. Bu relening ishga tushish  $t_r$ , o'rnatmasi  $\omega_{sr,his}$  hisobiy sirpanishga mos bo'lib,  $t_k$  nazorat vaqtiga tengdir.

KT relesi kontaktini ulaganda, KL1 relesining normal ulangan kontakti orqali KV2 relesi ta'minot oladi. Bu zanjir hosil bo'lishi uchun KT relesi kontaktini ochgunga qadar KV2 relesi ishga tushishga ulgurmasligi kerak. Bu esa chastotalar farqi kichik bo'lganda, ya'ni  $\omega_{sr} < \omega_{sr,his}$  sharti bajarilganda ((d)holati) bo'lishi mumkin.

Agar chastotalar farqi katta bo'lsa, ya'ni  $\omega_{sr} > \omega_{sr,his}$ , unda KV2 relesi kontaktini KT relesi kontaktini ularidan ilgariroq qo'shadi.

Bu holatda KL1 relesining normal qo'shilgan kontaktlari ochilib, KV2 relesining chulg'ami ta'minot ololmaydi va Q uzgichini ularshga signal bormaydi ((a) holati).

Shunday qilib, sinxronizatorda KT relesining  $t_r$  o'rnatmasini KV1 va KV2 relelarini ishga tushiishi oraliq'idagi  $t$  vaqt bilan solishtirib,  $U_g$  va  $U_t$  kuchlanishlari bir-biriga mosligi tekshiriladi.

Sirpanish chastotasi chegaraviy ( $\omega_s = \omega_{sr,his}$ ) qiymatga ega, sinxronlash hali ham bajarilishi mumkin bo'lgan holat 2.9-rasm (b) holatida ko'rsatilgan.

Ushbu holatda ularsga signal kuchlanish nol qiymatidan o'tishidan avvalroq beriladi va shunga mos o'zish vaqtin uzgichning ishga tushish  $t_Q$  vaqtiga teng olinadi.

Bu vaqtga mos  $\delta_{o'z}$  burchagi **o'zish burchagi** deb ataladi. Sxema shunday ishlashida tenglashtiruvchi tok paydo bo'lmaydi.

Chastotalar farqi kichik bo'lganda ((d) **holati**) sirpanish kuchlanishining davri yetarlicha kattadir. KV1 relesi ishlagandan so'ng (1'nuqtasi), KV2 relesi ishlagunga qadar KT relesi ishlagsga ulguradi ( $t > t_k$ ) va KL1 relesining normal holatda ulangan kontaktlari orqali KL2 relesining chulg'amiga ta'minot beradi. KL2 relesi ishga tushib, o'z-o'zini ushlab turish holatida turadi.

KV2 relesi ishlaganda KL1 relesi ta'minot oladi va ishga tushib, o'zining normal holatda uzilgan kontaktlari yordamida Q uzgichining ular solenoidiga ta'minot yetkazib beradi. Q uzgichining kontaktlari  $t_Q$  vaqtin o'tganidan so'ng ulanadi, bunda  $U_s$  kuchlanishning qiymati hali nolgacha tushmagan bo'ladi.

Ushbu holatga mos keluvchi **xatolik burchagi** quyidagicha:

$$\delta_x = \omega_{sr,his} t_Q \quad (2.13)$$

Ushbu burchakning hisobiga Q uzgichining kontaktlari ulanganda tenglashtiruvchi tok paydo bo'ladi.

Sirpanishning burchak tezligi qanchalik katta bo'lsa, xatolik burchagi  $\delta_x$  hamda shunga mos ravishda tenglashtiruvchi tok ham shunchalik katta bo'lishi mumkin.

Berilgan turdag'i uzgich va sinxronlash qurilmalari uchun  $\Delta t_Q$  ning aniq qiymatlarida tenglashtiruvchi tokning zarbaviy qiymati ruxsat etilgan chegaradan oshmasligi uchun sinxronlashtirayotgan kuchlanish chastotalarining bir-biriga yaqin kelishi sharti bajarilishi kerak:

$$\omega_s \approx 0 \text{ yoki } f_g \approx f_s \quad (2.14)$$

Ko'rib chiqilayotgan sinxronizatorning **afzalligi** – uni amalga oshirish soddaligidir. Doimiy burchakka ega bo'lgan ushbu va boshqa sinxronizatorlarning asosiy kamchiligi shundaki, ular ishlag prinsipi binoan generator sirpanishining past tezligida tenglashtiruvchi tokning zarbasi bilan generatorni yoqishga imkon beradi.

Sirpanishning turlicha chastotalarida doimiy o'zish burchagiga ega sinxronizatorlar uchun o'zish vaqtin quyidagicha aniqlanadi:

$$t_{o'z} = \frac{\delta_{o'z}}{\omega_5}, \quad (2.15)$$

Bu yerda  $\delta_{o'}$  – doimiy kattalik bo'lib, sirpanish tezligi qanchalik kichik bo'lsa, shunga mos ravishda sinxronizatorдан berilayotgan o'zish vaqt va generatormi tarmoqqa ularshdagи xatolik burchagi shunchalik katta bo'ladi. Shuningdek, uzbekchning ularsh vaqt o'zgarmas qoladi.

Haqiqatdan ham, agar  $\omega$ , sirpanish chastotasida bo'lsa (2.9-rasm. (b)), generatormi tarmoqqa ularsh optimal aniq vaqtida amalga oshiriladi ( $t_{o'z}=t_Q$  bo'lgan holatda). Agar  $\omega$ , sirpanish chastotasidan kichik bo'lsa, optimaldan oldinroq ulanadi ( $t_{o'z}>t_Q$ ).

Doimiy o'zish burchagiga ega bo'lgan yarim avtomatik sinxronizator sxemasidagi relening ishga tushish o'matmasi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

KV2 kuchlanish relesining berilgan o'zish burchagidagi ishga tushish kuchlanishi:

$$U_{ish.t.2} = 2U_{nom} \sin \frac{\delta_x}{2} \quad (2.16)$$

Yoki ikkilamchi kuchlanish  $U_{nom}=100V$  bo'lganda:

$$U_{ish.t.2} = 200 \sin \frac{\delta_x}{2}, \quad (2.17)$$

$\delta_x$  – xatolik burchagini maksimal qiymati bo'lib, tokning zarbasi bilan ulanganda ruxsat etilgan qiymatdan oshib ketmaydi:

$$\delta_x = 2 \arcsin \frac{I_{ruxz_x}}{2U_{nom}}, \quad (2.18)$$

Bu yerda  $I_{rux}$  – ruxsat etilgan tok (periodik tashkil etuvchi)  $I_{nom}$  ga teng deb olinadi.

Bir qancha kichik burchaklarni  $\sin \delta \approx \delta$  deb olish mumkin va hisoblash quyidagi soddalashtirilgan formulaga keladi:

$$\delta_x \approx \frac{I_{ruxz_x}}{U_{nom}} \quad (2.19)$$

Maksimal ruxsat etilgan sirpanish maksimal bo'lishi mumkin bo'lgan ularsh burchagi  $\delta_x$  dan oshmaydigan qilib aniqlanadi:

$$\omega_s \leq \frac{2\delta_x}{t_Q} \quad (2.20)$$

Relening ushlab turish vaqt (boshqarish vaqt)  $t_K = 1 \div 1,5$  s qilib tanlanadi.

KV1 kuchlanish relesining ishlab ketish kuchlanishi quyidagi formula orqali topiladi:

$$U_{ish.t.1} = 2U_{nom}\sin \frac{\omega_{s,max}(t_Q+t_K)}{2} \quad (2.21)$$

Yoki ikkilamchi kuchlanishi  $U_{nom}=100$  V bo'lganda:


$$U_{ish.t.1} = 200\sin \frac{\omega_{s,max}(t_Q+t_K)}{2} \quad (2.22)$$

Ba'zi holatlarda doimiy o'zish burchagiga ega bo'lgan yarim avtomatik sinxronizatorlar operativ xodimning harakatlari to'g'riligini boshqaruvchi bloklovchi qurilma sifatida foydalaniladi.

Buning uchun sinxronizatorning chiqish zanjiri boshqarish kaliti konturi bilan ketma-ket ulanadi. Navbatchi sinxronoskop strelkasini kuzatgan holda sinxronlanayotgan generatormi qo'lda uzgich orqali ularshga buyruq beradi. Sinxronizator esa o'zish burchagi berilgandan kichikroq bo'lganda va ruxsat etilgan sirpanish tezligida uzgichni ularshga ruxsat beradi.

#### 2.4. O'zgarmas o'zish vaqtiga ega avtomatik sinxronizator

Quyidagi rasmda tuzilish sxemasi keltirilgan o'zgarmas o'zish vaqtiga ega avtomatik sinxronizator (O'O'VAS) aniq sinxronlashdag'i barcha jarayonlarni avtomatlashtirishni ta'minlaydi.



2.10-rasm. O'zgarmas o'zish vaqtiga ega avtomatik sinxronizator

Avtosinxronizator quyidagi asosiy tugunlarga ega:

O'Z (YO) – o'zish bog'lamasi (узел опережения) uzgich ulanishi uchun beriladigan impulsning soniyasini aniqlaydi;

ChFNB (УКРЧ) – chastotalar farqini nazoratlovchi bog'lama (узел контроля разности частот) sirpanish qiymati sinxronlanuvchi generatorni ularash uchun joizligini aniqlaydi;

KFNБ (УКРН) – kuchlanishlar farqini nazoratlovchi bog'lama (узел контроля разности напряжений) tarmoqdag'i va generatordagi kuchlanishlarni solishtiradi;

AChRB (УРЧВ) – aylanish chastotasini rostlash bog'lamasi (узел регулирования частоты вращения) sinxronlanuvchi generator va energotizimning aylanish chastotalarini tenglashtiradi;

KRB (УРН) – kuchlanishni rostlash bog'lamasi (узел регулирования напряжения) sinxronlanuvchi generator va energotizimning kuchlanishlarini tenglashtiradi;


BB (УБ) – bloklash bog'lamasi (узел блокировок) avtosinxronizator sxemasi elementlarini bir-biri bilan munosib harakatda bo'lishini ta'minlab beradi;

ChR (BP) – chiqish relesi (выходное реле) uzgichning ularash elektromagnitiga signal beradi.

O'zish bog'lamasi uzgich ulanishi uchun beriladigan impulsning soniyasini tanlaydi. Bu impuls sinxronlanuvchi kuchlanishlar farqiga bog'liq bo'lmay, doimiy o'zish vaqt bilan berilishi kerak.

Agar avtosinxronizatorda o'zish vaqt ulanishning ulanish vaqt bilan teng o'matilsa ( $t_{o'z} = t_Q$ ), unda uzgich ulanishi doimo optimal soniyada bo'ladi (agar avtosinxronizator va uzgichda vaqt bo'yicha xatoliklar mavjudligini e'tiborga olmasak).

Quyidagi rasmda o'zgarmas o'zish vaqtiga ega avtosinxronizator turli xil sirpanishlarga mos uzgich ulanishi uchun beriladigan impuls soniyalari ko'rsatilgan.



2.11-rasm. O'ZMAS ning sirpanishlarga mos ravishda impulsari

O'zgarmas o'zish vaqtiga ega avtosinxronizator bilan o'zgarmas o'zish burchakli avtosinxronizatorni solishtirsak, birinchisi ishlash prinsipi bo'yicha **yuqoriroq aniqlikka** ega, lekin bu qurilmaning **murakkabligi** uning kamchiligi deb hisoblanadi.

## 2.5. Elektr stansiya generatorlarini avtomatik sinxronlashni hisoblash va usullarini tanlash

Avtomatik sinxronlash (AS) usullarini tanlash vaqtida normal sharoitda generatordagi tizimga o‘zi sinxronlanuvchi usulda ulash mumkinligini tekshirish kerak (ya’ni generator quvvatida keskin yetishmovchilik bo‘lganda). Bunday tekshiruv uchun quyidagilarni bajarish lozim:

a) sinxronlovchi generator ularish shart bo‘lgan tizimning ekvivalent almashtirish sxemasini tuzish va sxemaga tegishli bo‘lgan barcha elementlarning qarshiligini, kuchlanishini 1-pog‘onagan keltirilgan yoki bazis qiymatiga keltirish, NAQU hisobida ko‘rsatilganidek. Bunda generatorlarning qarshiligi va EYUK sxemaga o‘zining o‘tkinchi qiymatlari  $X_d'$  va  $E_s'$  bilan kiritish. Bazis kuchlanish o‘miga sinxronlovchi generator nominal kuchlanishini olish maqsadga muvofiq. Hisobda esa solishtirma tizim birligida bazis o‘miga shu generatordagi nominal quvvatini olish kerak;

b) sxemani 2.12-rasmdagidek soddalashtirish. Bu yerda  $X_d'$  sinxronlovchi generatordagi o‘tkinchi qarshiligi;  $X_s'$  va  $E_s'$  – tizimning o‘tkinchi qarshiligi va EYUK (hisobni osonlashtirish maqsadida  $E_s'$  o‘rniga tizim kuchlanishi  $U_s$  qabul qilinadi).



2.12-rasm. Elektr tiziminining almashtirish sxemasi

d) qo‘zg‘atilmagan generator ishlab turgan paytdagi tenglashtiruvchi tokning o‘tkinchi qiymatini topish (EYuK nolga teng).

$$J_{Teng} = \frac{U_s}{X_d + X_s}, \quad (2.23)$$

Quvvat defitsiti bo‘lmagan paytda generatordagi tizimga o‘zi sinxronlanuvchi ulash imkoniyatini tekshirish uchun quyidagi tengsizlik qanoatlantirilishi kerak:

$$J_{Teng} \leq 3,5 \cdot J_{Nom}, \quad (2.24)$$

Bu yerda  $J_{Nom}$  – sinxronlovchi generatordagi nominal toki.

Agar tengsizlik bajarilsa, gidrogeneratorlar uchun avtomatik, turbogeneratorlar uchun yarim avtomatik sinxronizatsiya qurilmasi qo‘llaniladi. Bu qurilmalarda rele o‘matmasining chastotalalar farqi 1,0-1,5 Gs qabul qilinadi.

$J_{t_{avg}} + 3,5 \cdot J_{nom}$  bo'lganda, elektrostandilya generatorlarini tizim bilan parallel ulash doimiy o'tib ketish burchaglygyn sun bo'lgan yarim avtosinxronizatorlar yordamida (turbogeneratorlar uchun) yoki o'tib ketish burchagini doimiy vaqtiga ega bo'lgan avtosinxronizatori bilan ulanadi.

Eslatib o'tish jolzki, avtomatikani qo'llashda qo'lda sinxronlash ishlatalmaydi, shuningdek, tizimda quvvat yetishimovchiligi ortib ketganda generatorlarni tizimga o'zidan ishyu tushish usulida ulashga ruxsat beriladi. Qachonki, sirpanish tenglashtiruvchi tok qiymatiga bog'liq bo'lman holda 20 % gacha bo'lganida.

Sinxronizatsiyani hisoblash sinxronizatsiya parametrlarini aniqlashdan iborat, ya'ni sirpanishning hisobiy chastotasi ( $\omega_{nch}$ ) va ruxsat etilgan xatolik burchagi ( $\delta_{Rux,Xato}$ ) va sinxronizator o'rnatmasini tanlash.

Ruxsat etilgan xatolik burchagi

$$\delta_{Rux,Xato} = 2 \arcsin \frac{i_{Teng,Rux} (X_d'' + X_{SI'} + X_S)}{3,6 \cdot \sqrt{2} \cdot E_q''}, \quad (2.25)$$

Bu yerda:  $i_{Teng,Xato}$  – tenglashtiruvchi tok turkisining ruxsat etilgan qiyomi;

$X_d''$  va  $E_q''$  – o'ta o'tkinchi qarshilik va EYUK generator uchun;

$X_{SI'}$  – tizim qarshiligi;

$X_S$  – tizim bilan bog'langan generator qarshiligi.

Sirpanishning hisobiy chastotasi taxminan quyidagilardan aniqlanadi:  
doimiy o'zish burchakli sinxronizator uchun

$$\omega = \frac{\delta_{Rux,Xato}}{t_{UU}}, \quad (2.26)$$

Bu yerda  $t_{UU}$  – generator (yoki blok) zanjiridagi uzgichni ulash vaqt; doimiy o'zish vaqtlik sinxronizator uchun:

$$\omega_s = \frac{\delta_{Rux,Xato}}{\Delta t_{UU} + \Delta t_s}, \quad (2.27)$$

Bu yerda  $\Delta t_{UU}$  – uzgichni ulash vaqtidagi tanlash;

$\Delta t_s$  – avtosinxronizator operejeniyasi relesining xatoligi.

Keyin sirpanishning hisobiy chastotani hisoblangan qiymatini tekshirish amalga oshiriladi.

$$\cos \delta_{\text{cheq}} = \cos \delta_{\text{cheq.xato}} - 157 \cdot T_j \cdot \left(\frac{\omega_{SR}}{\omega_N}\right)^2 \cdot (X_d' + X_{SV} + X_{S^*}), \quad (2.28)$$

Bu yerda  $\delta_{\text{cheq}}$  – generatorning tizimga ulangandan keyingi rotorining chegaraviy ochish burchagi;

$\delta_{\text{Cheq.Xato}}$  – ruxsat etilgan burchak xatoligi;

$T_j$  – sinxronizatsiyalovchi agregatning inersiya doimiysi;

$\omega_{SP}$  – sirpanishning hisobiy chastotasi;

$\omega_N$  – nominal chastota;

$X_d'$ ,  $X_{SV}$ ,  $X_{S^*}$  – tizimning, generatorning va uning tizim bilan bog'lanish qarshiligini keltirilgan qiymatdagi o'ta-o'tkinchi qarshiliqi (generatorning nominal parametrlari qiymatiga keltirilgan).

Agar hisoblashda  $\cos \delta_{\text{cheq}} < -1$  bo'lsa, unda  $\omega_{SR}$ ning qiymati  $\cos \delta_{\text{cheq}} \geq -1$  tengsizlik qanoatlantirilguncha kamaytirish kerak.

Sinxronizatsiyaning ma'lum qiymatlarida operejenyaning doimiy burchagi sinxronizator o'matmasi quyidagicha topiladi:

Vaqt relesi o'matmasi ( $t_K$ ) ni  $t_K = 0,3 - 0,5 s$  deb qabul qilinadi.

Minimal kuchlanish relesi o'matmasi:

$$U_{O'r2} = 2 \cdot U_N \cdot \sin \frac{\omega_{SR} \cdot t_{UV}}{2}, \quad (2.29)$$

Bu yerda:  $U_N$  – kuchlanish transformatorining ikkilamchi nominal kuchlanishi:

$$U_{O'r1} = 2 \cdot U_N \cdot \sin \frac{\omega_{SR} \cdot (t_K + t_{UV})}{2}. \quad (2.30)$$

Doimiy o'zish vaqtligiga ega sinxronizatorda quyidagicha qabul qilinadi:

- o'zish vaqt  $t_u = t_{UV}$ ;
- chastotalar farqini boshqaruvchi rele o'matmasi

$$U_{cpk4} = 2U_n \sin \frac{\omega_{SP} \cdot t_{BB}}{2}, \quad (2.31)$$

- kuchlanishlar farqini boshqaruvchi rele o'matmasi  $U_{o'r,KB} = (0,1 - 0,15)$ ;
- qaytish kuchlanish relesi «chastota qo'shamdi» va rele «chastota kamaytiradi»


$$U_{Ch.K.K} = U_{Ch.K.K} = (0,05 - 0,1) \cdot U_N \quad (2.32)$$

- kontur vaqt relesining o'matmasi (sirpanish kuchlanishining bir davriga mos keluvchi chastota o'zgarishining inipuls davomiyligi)  $t_{imp} = 0,2 - 0,3 s$ .

### Sinxronlashni hisoblashga oid misol:

KES generatorining o'z-o'zini sinxronlash usuli bilan ulash imkoniyatini tekshirish. KES cheksiz quvvatlari tizim bilan bog'langan ( $S_s = \infty$ ). EUL kuchlanishi  $U_L = 110kV$  va uzunligi  $l = 100km$ . Elektrostansiyada ikkita blok TVF-60-2 generatori va TDS-80 tipidagi transformatoriga ega. EULda VMK-110 uzgichlari o'matilgan (2.13-rasmida prinsipial sxema ko'rsatilgan).

Shu KES generatorlarini parallel ishlashga ulash uchun doimiy o'zish burchakli yarim avtosixronizator o'matmasini tanlash.



2.13-rasm. Elektr tizimining prinsipial sxemasi

### Yechish:


Generator parametrlari: quvvat  $S_{Nom} = 75$  MVA; kuchlanishi  $10,5kV$ ; quvvat koeffitsiyenti  $\cos\varphi = 0,8$ ; o'ta-o'tkinchi qarshilik  $X_d' = 0,195$ ; o'tkinchi qarshilik  $X_d = 0,282$ ; inersiya doimiysi  $T_j = 15s$ .

Transformator parametrlari: quvvati  $S_{Nom} = 80$  MVA; qisqa tutashuv kuchlanishi  $e = 11\%$ ;

VMK-110ning xususiy ulash vaqtি  $t_{ul} = 0,18s$

Hisobni keltirilgan qiymatlar tizimida olib boramiz. Bunda har bir manbalar EYUKlar o'zaro teng. Bazis qiymatlar:  $U_B = 10,5kV$ ;  $S_B = S_{Nom, gen} = 75MVA$ . Bunda  $I_B = I_{Nom} = 188A$ .

Generatorlarning o'tkinchi qarshiliklarini kiritib, ekvivalent almashtirish sxemasini tuzamiz (2.14-rasm). Buning uchun barcha elementlar qarshiliklarini bazis qiymatga keltiramiz.



**2.14-rasm. Elektr tizimining almashtirish sxemasi**

Generator qarshiligi –

$$X_1 = X_2 = X_d \cdot \frac{S_B}{S_{Nom}} = 0,282 \cdot \frac{75}{75} = 0,282.$$

Transformator qarshiligi –


$$X_3 = X_4 = \frac{e_{\star} \%}{100} \cdot \frac{S_B}{S_{Nom}} = \frac{11}{100} \cdot \frac{75}{80} = 0,103.$$

Elektr uzatish liniyalari qarshiligi –

$$X_5 = X_{Sel} \cdot I \cdot \frac{S_B}{U_{O_r}^2} = 0,4 \cdot 100 \cdot \frac{75}{115^2} = 0,227.$$

Tizimning nisbiy kuchlanishini 1,05 deb qabul qilamiz.

Sxemani soddalashtirib, 2.15-rasm ko'rinishiga keltiramiz. Bu yerda:



**2.15-rasm. Soddalashtirilgan almashtirish sxemasi**

$$X_6 = X_2 + X_4 = 0,282 + 0,103 = 0,385;$$

$$X_7 = \frac{(X_1 + X_3) \cdot X_5}{X_1 + X_3 + X_5} = \frac{(0,282 + 0,103) \cdot 0,227}{0,282 + 0,103 + 0,227} = 0,143.$$

Generatorning o'tkinchi tenglashtiruvchi tokining nisbiy qiymati:

$$J_{teng} = \frac{U_{s*}}{X_{\Sigma}} = \frac{1,05}{0,385 + 0,143} = 1,99 < J_{Dop} = 3,5.$$

Ketma-ket KES generatorini tizim bilan parallel ishlash uchun ularash mumkin, o'z-o'zini sinxronlash usuli bilan.

5.2-rasmida generator qarshiligi  $x_1$  va  $x_2$  larni o'ta-o'tkinchi qarshilik  $X_d'' = 0,195$  ga almashtiramiz va

$$X_7 = \frac{(X_1 + X_3) \cdot X_5}{X_1 + X_3 + X_5} = \frac{(0,195 + 0,103) \cdot 0,227}{0,195 + 0,103 + 0,227} = 0,129.$$

Generator o'ta-o'tkinchi EYUKning nisbiy qiymati:

$$E_q' = (1 + X_d' \sin \varphi_N) \cdot U_{nom} = (1 + 0.195 \cdot 0.6) \cdot 1 = 1.12.$$

Tenglashtiruvchi tok turtkisi o'tniga generator nominal tokining amplitudasi olinadi (nisbiy qiymati  $i_{dop} = \sqrt{2}$ ), ruxsat etilgan burchak xatolik qiymatini topamiz.

$$\delta_{cheg\ max} = 2 \arcsin \frac{i_{dop} \cdot (X_d' + X_{SV*} + X_{S*})}{3,6 \cdot \sqrt{2} \cdot E_q'} = 2 \arcsin \frac{\sqrt{2} \cdot (0,195 + 0,103 + 0,129)}{3,6 \cdot \sqrt{2} \cdot 1,12} = 12^\circ.$$

Sirpanishning hisobiy chastotasi:

$$\omega_{SR} = \frac{\delta_{cheg\ max}}{t_{UU}} = \frac{12}{0,8} = 15,7^\circ/s.$$

$\omega_{SR}$  ning olingan qiymatini ruxsat etilganligini tekshiramiz.

Buning uchun generator rotorining chegaraviy yugurishining kosinusini topamiz.

$$\begin{aligned} \cos \delta_{cheg} &= \cos \delta_{cheg\ xato} - 157 \cdot T_f \cdot \left( \frac{\omega_{SR}}{\omega_N} \right)^2 \cdot (X_d' + X_{SV*} + X_{S*}) = \\ &= \cos 12^\circ - 157 \cdot 15 \cdot \left( \frac{66,7}{18000} \right)^2 \cdot (0,282 + 0,103 + 0,143) = 0,976 \\ (\omega_n &= 360 \cdot f_{nom} = 360 \cdot 50 = 18000^\circ/s) \end{aligned}$$

Demak,  $\cos \delta_{cheg} = 0,976 > -1$ , oldin topilgan  $\omega_{SR}$  qiymatida KES blokini tizimga asinxron kirishni ulashni ta'minlab beradi.

Sinxronizator vaqt relesi o'matmasini  $t_K = 0,5s$  qabul qilib, relening ishslash kuchlanishini topamiz.

$$U_{ov2} = 2 \cdot U_N \cdot \sin \frac{\omega_{SR} \cdot t_{UU}}{2} = 2 \cdot 100 \cdot \sin \frac{66,7 \cdot 0,18}{2} = 21V$$

$$U_{ov1} = 2 \cdot U_N \cdot \sin \frac{\omega_{SR} \cdot (t_K + t_{UU})}{2} = 2 \cdot 100 \cdot \sin \frac{66,7 \cdot (0,5 + 0,18)}{2} = 77V$$

### Nazorat savollari:

1. Generatorni sinxronlash nima? Sinxronlash shartlari.
2. Sinxronlash jarayonida  $U_t$  va  $U_g$  ning qiymat jihatdan teng bo'lmasligi nimalarga olib keladi?
3. Sinxronlash jarayonida  $U_t$  va  $U_g$  ning faza jihatdan mos kelmasligi nimalarga olib keladi?
4. Sinxronlashtirilayotgan generator va tizimning chastotasi mos kelmasligi qanchalik xavfli?
5. Sinxronlashning qanday usullari mavjud?
6. Generatorlarni o'z-o'zini sinxronlash usuli.
7. O'z-o'zini sinxronlashda nima uchun MAS o'chirilgan holatda generator ulanadi?
8. O'z-o'zini sinxronlashda generatorni kechikishiga nima sababchi bo'ladi?

9. Yarim avtomatik sinxronizator tarkibiga qanday asosiy elementlar kiradi?
10. Pulslanish kuchlanishi deb nimaga aytildi? Agar generator kuchlanishi tarmoq kuchlashidan farqlansa, pulslanish kuchlanishining ko'rinishi qanday o'zgaradi?
11. Sirpanish kuchlanishi deb nimaga aytildi?
12. Sinxronizatorda sirpanish burchak tezligi qanday nazorat qilinadi?
13. Sinxronizatorda generator va tarmoq kuchlanishlarining farqi qanday nazorat qilinadi?
14. Kuchlanishlar farqli bo'lganda yarim avtomatik sinxronizator generatorni tizimga ulashga qanday yo'l qo'ymaydi?
15. Chastotalar farqli bo'lganda yarim avtomatik sinxronizator generatorni tizimga ulashga qanday yo'l qo'ymaydi?
16. Nega yarim avtomatik sinxronizatorning nomida "o'zgarmas o'zish burchakli" iborasi mavjud?
17. Nega avtomatik sinxronizator nomida esa "o'zgarmas o'zish vaqtlik" iborasi mavjud?
18. Yarim avtomatik sinxronizator bilan avtomatik sinxronizatorning prinsip jihatidan farqlari nimadan iborat?
19. Avtomatik sinxronizator tarkibidagi asosiy qismlar.
20. Generatomi tizim bilan sinxronlash paytida tenglashtiruvchi tok paydo bo'lishi qanday xavf tug'diradi?
21. Yarim avtomatik sinxronizator sxemasida xato burchagi mavjudligi nimaga olib keladi?

### III BOB. AVTOMATIK QAYTA ULASH

Havo elektr uzatish liniyalaridagi (EUL) qisqa tutashuvlarning (QT) asosiy qismi izolyatsiyaning yemirilishi, simlarning o'talib qolishi va boshqa sabablar tufayli kelib chiqadi. Bunday shikastlanishlarni relo himoyasi yetarli darajada tez o'chiradi va shikastlanish o'z-o'zini yo'qotadi. Bunday o'z-o'zini yo'q qiluvchi shikastlanishlar noturg'un deb nomlanishi qabul qilingan.

Statik tindiqotlar natijasiga ko'ra, noturg'un shikastlanishlar ulushi 50-90 % ni tashkil etadi.

Odatda, avariyalarni bartaraf etishda operativ xodim liniyani kuchlanish ostida qayta ulash orqali sinovdan o'tkazadi. Bu jarayon **qayta ulash** deb nomlanadi.

Noturg'un shikastlanish sodir bo'lgan liniya qayta ulash jarayonida ish rejimida qoladi. Shuning uchun noturg'un shikastlanishlardagi qayta ulash **muvaffaqiyatli** hisoblanadi.

Turg'un shikastlanish sodir bo'lgan liniyalarни qayta ulashda yana QT sodir bo'ladi va himoyani qayta ulash o'chiradi. Shuning uchun turg'un shikastlanishdagi liniyalarни qayta ulash **muvaffaqiyatsiz** deb nomlanadi.

Liniyalarни qayta ulash tezligini oshirish hamda iste'molchilarни elektr ta'minotidan uzilish vaqtini kamaytirish uchun avtomatik qayta ulash (AQU) maxsus qurilmasidan foydalaniлади.

Elektr uskunalarining tuzilish qoidalari (EUTQ)ga asosan, AQU barcha havo EUL larida va ba'zi hollarda esa kuchlanishi 1kV dan yuqori bo'lgan aralash liniyalarда o'matilishi shart.

AQU ning muvaffaqiyati 50-90 %ni tashkil etadi. AQU rele himoyasining noto'g'ri harakatlari holatida ham normal sxemani tiklaydi.

Noturg'un QT podstansiya shinalarida ham tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun podstansiylar tez ta'sir etuvchi himoyalar bilan jihozlangan bo'ladi hamda AQU ham qo'llaniladi.

Quvvati 1000 kVA va undan yuqori bo'lgan yakka ishlaydigan hamda mas'uliyatli yuklamani ta'minlaydigan kichik quvvatli transformatorlar ham AQU qurilmasi bilan ta'minlanadi. Transformatorlar **maksimal tok himoyasi** orqali o'chirilgandagina transformator AQU si harakatlanishi kerak. Transformatorning o'zi shikastlanganda, ichki shikastlanishdan himoya o'chirganda uni qayta ulash amalga oshirilmaydi. Shina va transformatorlardagi AQU ning muvaffaqiyati 70-90 %ni tashkil etadi.

Kuchlanishi 6-10 kV bo'lgan kabel liniyalarida ham AQU ishlatalidi. Kabellarning shikastlanishi qoidaga ko'ra turg'un bo'lishiga qaramasdan, AQU larning muvaffaqiyati 40-60 % ni tashkil etadi. Buning sababi shundaki, AQU shinalardagi noturg'un shikastlanishlarda, o'ta yuklanish natijasida kabel liniyalar o'chganda va himoyaning yolg'on hamda tanlanmagan harakatlarida iste'molchilar ta'minotini qayta tiklaydi.

AQU ni qo'llash RH si sxemasini soddalashishiga va tarmoqlardagi QT ni tezroq o'chishiga imkon beradi, bu esa ushbu turdag'i avtomatlashtirishning ijobiy sifati hisoblanadi.

AQU qurilmalariga quyidagi **asosiy talablar** qo'yiladi:

- a) iloji boricha tez ishlash;
- b) uzgich operativ xodim tomonidan masofali boshqarish orqali o'chirilganda yoki liniya qisqa tutashuvda ulanganda u himoya orqali o'chirilganda avtomatik bo'lmasligi kerak;
- c) sxema dastlabki holatiga avtomatik tarzda qaytishi kerak;
- d) sxemada nosozliklar bo'lganda ko'p martalik ulashlardan blokirovka bo'lishi shart.


AQU quyidagi holatlarda **ishga tushishi** mumkin:

- boshqarish kaliti bilan uzgich holatlari bir-biriga mos bo'limganda (boshqarish kaliti «ulangan» holatida, uzgich esa himoyadan o'chirilgan);
- bevosita himoyadan.

Bulardan birinchisi afzalroqdir. Buning sababi shundaki, birinchi holatda operativ o'chirishlardan istisno tariqasida AQU barcha avariyaviy o'chishlarda bajariladi, ikkinchi holatda esa faqat releli himoya ishlaganda bajariladi.

### 3.1. Moyli uzgichlar uchun bir karrali AQU qurilmasining sxemasi

Quyidagi sxemada RPV-58 komplekt qurilmasidan foydalanylган.




3.1-rasm. AQU ning sxeması

SQ1 va SQ2 uzgich blok-kontaktlarining holati uzgichning ulagan holatiga mosdir.


Solenoiddan oldindi SQ1 ulanganda YAC – o’chiq, solenoiddan oldindi SQ2 uzilganda YAT – ulangan holatda.

Sxemada KSVF yoki KFV turidagi SA boshqarish kaliti (3.2-rasm) ishlataligan. Bu kalitda quyidagi holatdagi kontaktlar mavjud:

- “ulash” (B<sub>1</sub>) va “uzish” (O<sub>1</sub>) kontaktlari;
- “ulagan” (B<sub>2</sub>) va “uzilgan” (O<sub>2</sub>) muayyan holatida qayd etilgan kontaktlar (3.3-rasm).



**3.2-rasm. Boshqarish kalitining ko‘rinishi**



b)

Jarayon	Kalit holati	1	2	3	4				
		12	34	56	78	910	1112	1314	1516
Ulash	+	+	+	-	-	+	+	-	-
Ulangan	+	+	-	+	-	-	-	-	-
Uzish	+	-	-	+	-	-	-	+	-
Uzilgan	+	-	-	+	+	-	-	-	-

+ Kontaktlar yopilgan      - Kontaktlar ochiq

**3.3-rasm. Boshqarish kalitining kontaktlari**

SA kaliti “ulangan” holatida bo‘lib, uzgich ulangan bo‘lsa, sxemada quyidagi zanjir hosil bo‘ladi:

- plyus;
- “ulangan” holatini ko‘rsatuvchi KQC relesining chulg‘ami;
- r qarshiligi;
- ko‘p martalik ulanishlarning oldini oluvchi (blokirovka etuvchi) KBS relesining ish chulg‘ami;
- SQ2 uzgichining blok-kontaktlari;
- uzgichning o‘chirish chulg‘ami YAT.

Bu zanjir orqali oquvchi tokning qiymati r qarshiligi bilan chegaralangan bo‘lib, “ulangan” holatini ko‘rsatuvchi KQC relesi ishga tushishi uchun yetarlidir, lekin blokirovka etuvchi KBS relesi ishga tushishi uchun va uzgichning o‘chirish

chulg'ami YATda uzgich ulanishi uchun, kerakli magnit maydonini hosil qilish uchun yetarli emasdir.

"Ulangan" holatini ko'rsatuvchi KQC relesi keyinchalik ishlataluvchi "uzilgan" amali zanjirining butunligini nazorat qiladi (uzgich holatini ko'rsatuvchi signallash zanjirlari rasmida ko'rsatilmagan).

$r_2$  qarshiligi orqali C kondensatorini zaryadlash zanjiri ham ulangan. Ushbu qarshilik qiymati shunday tanlanganki, C kondensatori akkumulyator batareyasining kuchlanishi qiymatigacha 20-25 soniya davomida zaryadlanadi.

#### Himoya ishlaganda:

- YAT o'chirish chulg'ami uzgichni o'chiradi;
- uzgich blok-kontaktlari SQ2 uzliladi, SQ1 esa ulanadi;
- KQCning ta'minoti yo'qoladi va "uzilgan" holatini ko'rsatuvchi KQT relesi ta'minot oladi. Bu rele ulash zanjirlari butunligini nazorat qiladi va KQT1 kontaktlari orqali RPV-58 komplekt relesidagi termik nuqtayi nazaridan chidamli EV-133 rusumidagi vaqt relesining ta'minot zanjirini ulaydi.

• elektr yoyi oralig'i deionizatsiya bo'lishi uchun va uzgichni qayta ulanishiga talab etiladigan  $0,3 \div 0,5$  soniya vahti o'tgach, KT relesi o'zining KT2 kontaktlari orqali kondensatorning razryadlash zanjirini qayta ulash KL oraliq relesining ishchi chulg'amiga ulaydi.

• KL relesi ishga tushib, KL1 kontaktlari bilan o'zini-o'zi ushlab turuvchi KL<sub>Y</sub> chulg'ami zanjirini yopadi va KH ko'rsatkich relesi, SX nakladkasi, KBS2 blokirovka relesining ulangan kontaktlari va SQ1 uzgichining blok-kontaktlari orqali uzgichning UAS ulash chulg'amini ulaydi. Uzgich qayta ulanadi.

• agar qisqa tutashuv yo'qolgan bo'lsa (muvaffaqiyatlari AQU), sxema dastlabgi holatiga qaytadi va C kondensatori yana zaryadlanib boshlaydi. Zaryadlanish vahti o'tgach, AQU uskunasi yana ishlashga tayyor bo'ladi.

• agar qisqa tutashuv yo'qolmagan bo'lsa (muvaffaqiyatsiz AQU), unda releli himoya liniyani yana o'chiradi. Himoya ishslash vaqtida kondensator C zaryadlanishga ulgurmaganligi sababli ikkinchi marotaba AQU qayta bo'lmaydi.


• agar o'chirilgan uzgich masofadan ulansa, u yana himoyadan o'chiriladi va bu holatda ham AQU bo'lmaydi, chunki kondensator zaryad olishga ulgurmagan bo'ladi.

• uzgich masofali boshqarish yordamida o'chirilsa, unda SA boshqarish kalitining 2-kontakti orqali kondensator kichik  $r_3$  qarshiligiga razryadlanadi. RPV-58 relesining KT2 kontaktlari qo'shilgunga qadar kondensator razryadlanishga ulguradi. Shuning uchun qayta ulanish bo'lmaydi.

### 3.2. Liniyalarning ikki karralik AQUsi

Statistika ma'lumotlariga qaraganda, AQUning birinchi siklida muvaffaqiyatsiz bo'lgan qayta ulashlarning 15 % iga yaqini taxminan 15-20 soniyali vaqt saqlamasidan so'ng boshlanuvchi ikkinchi sikl davomida muvaffaqiyatlari bo'ladi.

Shuning uchun elektr qurilmalarning tuzilish qoidalari ikki karrali AQUni (3.4-rasm) bir tomonlama ta'minlanuvchi 110 kV liniyalarda o'rnatishni talab qilib, zaxira ta'minotiga ega bo'limgan 35 kV va undan past kuchlanishli bir tomonlama ta'minlanuvchi liniyalarda esa tavsiya qiladi.



3.4-rasm. Ikki karrali AQU sxemasi

Uzgich Q ning SA boshqarish kaliti "ulangan" holatida bo'lganda uning kontaktlari qo'shilgan. Uzgich masofali o'chirilganda esa ushbu kontaktlar ajraydi.

Uzgich Q ulangan bo'lganda uning rasmida ko'rsatilgan SQ blok-kontaktlarining o'rtadagisi ajratilgan, chetdagilari esa qo'shilgan holatda bo'ladi. "r" qarshiliklari orqali C<sub>1</sub> va C<sub>2</sub> kondensatorlarining zaryadlanish zanjirlari ulangan bo'lib, ularning zaryadlanish vaqtı  $t_{zary} \approx 100$  soniyani tashkil etadi.

Uzgich Q himoyadan o'chganda kondensatorlarga zaryad yetkazib turgan uning o'rtadagi blok-kontaktlari ajraydi va qolgan ikkita blok-kontaktlar juftliklari esa ulanadi. KT vaqt relesi ta'minot ola boshlaydi. 0,5-0,7 soniyadan so'ng uning sirpanib o'tuvchi kontaktlari ulanadi va ular orqali KL oraliq relesining ishchi chulg'amiga C<sub>1</sub> kondensatorining razryadlanish toki oqa boshlaydi. Ishga tushgach, u o'z kontaktlari va ushlab qoluvchi chulg'ami orqali Q uzgichning UAS ulash chulg'amiga zanjimi ulaydi. AQU muvaffaqiyatlari bo'lsa, sxema dastlabki holatiga qaytadi va C<sub>1</sub> kondensatori yana zaryad olishni boshlaydi.


Agn birinchi sikldan so'ng qisqa tutashuv yo'qolmasa, himoya uzgichni qayta o'chiradi va KT vaqt relesi yana ta'minot ola boshlaydi va ishga tushadi. Lekin uning sirpanib o'tuvchi kontaktlari ulanganda KL orqli relesi ta'minot olmaydi, chunki kondensator C<sub>1</sub> zaryadini yo'qotgan bo'ladi. Uzgich qayta o'chganidan so'ng 15-20 soniya o'tgach, KT relesining tirgak kontaktlari qo'shiladi. Ular orqali C<sub>2</sub> kondensatori KL relesining chulg'umiga razryadlanishni boshlaydi va u Q uzgichini ularshga impuls yuboradi. Agn qisqa tutashuv AQUning ikkinchi sikldan so'ng ham yo'qolmagan bo'lsa, unda himoya liniyani uchinchi marta o'chiradi. Ikkala kondensator razryadlangan bo'lgani tufayli boshqa qayta ulanish bo'lmaydi.

Uzgich SA boshqarish kaliti yordamida masofali o'chirilganda, operativ tokning plyusi sxemadan ajratiladi va AQU qurilmasi ish holatidan chiqariladi.

### 3.3. Ikki tomonlama ta'minotli liniyalarning AQUsi

Dastlab ikki tomonlama ta'minotli yakka liniyaning AQUsini ko'rib chiqamiz (3.5-rasm).

Ushbu liniya orqali S<sub>1</sub> tizimdan S<sub>2</sub> tizimiga P quvvati beriladi deb faraz qilaylik.



3.5-rasm. Elektr tizimining sxemasi

Liniyada qisqa tutashuv bo'lib, u releli himoyadan o'chganda S<sub>1</sub> tizimining yuklamasi tushib ketib, S<sub>2</sub> tizim yuklarnasi ortib ketadi. S<sub>1</sub> tizimining agregatlari tezlashib, S<sub>2</sub> tizimi agregatlari tormozlashadi. Bu tizimlar agregatlarining sinxon ishi buziladi.

Shuning uchun liniya ikkala tomondan qayta ulansa, S<sub>1</sub> tizimi bilan S<sub>2</sub> tizimi kuchlanish vektorlari orasidagi burchak 180° ga yaqin bo'lib, tenglashtiruvchi tokning qiymati ushbu tizimlarning generator va transformatorlari uchun ruxsat etilgan qiymatdan ortiq bo'lishi mumkin.

Shunday ekan, umumiy holda liniyaning Q<sub>1</sub> va Q<sub>2</sub> uzgichlarini bir tomonlama liniyalar kabi qayta ulash mumkin emas.


Ko'rtilayotgan liniyalarda AQUning bir nechta bajarish usuli mavjud.

Ularning eng soddasи – **nosinxron avtomatik qayta ulashdir (NAQU)**. Tuzilishi bo'yicha u bir tomonlama ta'minotli liniyalarning bir karrali AQUsidan farq qilmaydi. Bu usulning ishlatish ko'lami nosinxron ulanishda elektr jihozlari orqali oquvchi maksimal toklar qiymati bilan belgilanadi va ular ruxsat etilgan qiymatlaridan oshmasligi kerak.

Aytish joizki, NAQUning ishlatish mumkinligini aniqlovchi hisobiy rejim sifatida ishlab turgan generator va transformatorlar soni eng kam bo'lgan rejim olinadi,

chunki bu holatda ularning har biri orqali liniyadagi tenglashtiruvchi tokning eng katta ulushi oqib o'tadi.

Masalan, quyidagi sxema (3.6-rasm) uchun bir vaqtida ishlovchi generatorlar soni ikkita, transformatorlar soni esa bitta bo'lsa, shu rejim hisobiy deb olinadi.



**3.6-rasm. Hisobliy rejim uchun elektr tizimining sxemasi**

Generatorlar (yoki transformatorlar)ning har biri uchun tenglashtiruvchi tokning maksimal qiymati quyidagi ifoda bo'yicha topiladi:

$$J_{teng} = \frac{2 \cdot 1U_{nom}}{X_{\Sigma}} \cdot K_{t.r}, \quad (3.1)$$

bunda,  $J_{teng}$  – liniya qayta ulanganda generator (yoki transformator) tokining qiymati (bu yerda generator va tizim kuchlanishlarining qiymati nominaldan 5 % ga katta va ularning vektorlari  $180^{\circ}$  gacha uzoqlashgan deb (ya'ni,  $1,05+1,05=2,1$ ) qabul qilingan;

$U_{nom}$  – generatoring nominal kuchlanishi.

Liniya bo'yicha oquvchi tenglashtiruvchi tok yo'lining umumiy qarshiligi quyidagicha:

$$X_{\Sigma} = \frac{X_d''}{2} + X_t + X_1 + X_s, \quad (3.2)$$

$K_{t.r}$  – tenglashtiruvchi tokning generator (transformator)aro taqsimlanish koefitsiyenti.

Agar liniya yuqori chastotali himoya va tez ishlovchi havo uzgichlar bilan jihozlangan bo'lsa, unda **tez ishlovchi avtomatik qayta ularash (TAQU)** ishlatalishi mumkin.


Bunday holatda AQU siklining ishlash vaqtini himoyaning ishlash vaqtini  $t_x$ , uzgichning o'chirish vaqtini  $t_{Qo}$  va uzgichning ularash vaqtini  $t_{Qu}$  dan tashkil topib, ya'ni  $t = t_x + t_{Qo} + t_{Qu}$ , odatda, 0,5 soniyadan kam bo'ladi.

Bunday qisqa vaqt davomida liniya orqali bog'langan tizimlarning kuchlanish vektorlari mexanik inersiya tufayli katta burchakga uzoqlashishga ulgurmaydi va qayta ulash soniyasida  $\delta = 60^\circ \div 70^\circ$  dan katta bo'lmaydi.

Bunday burchakda tenglashtiruvchi tok zarbasi energetika tizimining jihozlari uchun ruxsat etilgan qiymatlardan oshmaydi. Shuning uchun TAQU qurilmasida bu burchakni nazoratlovchi maxsus elementlar talab etilmaydi. Lekin hisob-kitob orqali burchak qiymati aytilgandan katta bo'lmasligiga ishonch hosil qilish kerak.

Agar ko'rib chiqilgan usullardan foydalanib bo'lmasa, unda ishlab chiqariluvchi va iste'mol qilinuvchi quvvatlar balansi mavjud energotizimlami bog'lovchi liniyalar uchun (bu degani, liniya bo'yicha kam miqdorda quvvat uzatiladi) liniyaning bir boshida kuchlanish yo'qligini nazorat qilib, ikkinchi boshida sinxronizm mavjudligini tekshiruvchi AQU qurilmasi ishlataladi (3.7-rasm).

Liniyada kuchlanish yo'qligi u ikkala tomondan o'chirilgani haqida dalolat beradi va uni bir tomondan qayta ulash mumkin.



**3.7-rasm. Liniyaning bir boshida kuchlanish yo'qligini nazorat qilib, ikkinchi boshida sinxronizm mavjudligini tekshiruvchi AQU ning sxemasi**


Qarshi tomonida qayta ulash faqat sinxronizm mavjudligida bo'ladi. Agar qisqa tutashuvgacha rejimda liniya bo'yicha kam miqdorda quvvat oqqan bo'lsa, unda u o'chirilgandan so'ng har bir ajrab ketgan tizimda generatsiya va iste'mol quvvat balanslari saqlanib qoladi. Bu degani, ularning chastotalari va kuchlanishlari, kuchlanish vektorlari orasidagi burchak qiymatlari deyarli o'zgarmaydi, ya'ni  $S_1$  va  $S_2$  tizimlarining sinxon ishlashi davom etadi. Shuning uchun qisqa tutashuv bartaraf etilsa, liniyaning ikkala tomonidan qayta ulash muvaffaqiyatli bo'ladi.

Agar  $S_1$  va  $S_2$  tizimlarining sinxon ishlashi buzilgan bo'lsa, unda uzgich liniyaning faqat bir tomonida qayta ulanadi.

Liniyaning bir boshida kuchlanish yo'qligini nazorat qilib, ikkinchi boshida sinxronizm mavjudligini tekshiruvchi AQU qurilmasining soddalashtirilgan sxemasini ko'rib chiqamiz.


$S_2$  tizimi tomonidagi AQU sxemasi  $S_1$  tizimi tomonidagi sxema bilan bir xil, faqatgina SX nakladkasi vertikal holatda ulangandir.

Sxemada **sinxronizmni nazoratlovchi PKC relesi** ishlataladi. U 3.8-rasmda ko'rsatilgan.



3.8-rasm. Sinxronizmni nazoratlovchi PKC relesi.

Bu rele PH-55 rusumidagi kuchlanish relesi. Rele ikkita bir xil chulg'amga ega. Ulardan biri 1TVdan, ikkinchisi esa 2TV dan ta'minlanadi. Tizimning  $U_1$  va liniyaning  $U_2$  kuchlanishlarining orasidagi burchak  $\delta = 0$  bo'lsa, unda bu chulg'amlardagi toklar teng va qarama-qarshi yo'nalgan MYKlar hosil qiladi. Shu sababli rele o'zagidagi magnit oqimi ham nolga tengdir. Relening qarshi ta'sir ko'rsatuvchi prujinasi qo'zg'aluvchan tizim o'qini qo'zg'almas kontaktlar tomon aylantirib, kontaktlar ko'prikchasi yordamida ulami qo'shilgan holatda ushlab turadi.



3.9-rasm. Vektor diagramma

Burchak  $\delta$  oshib borgach,  $U_1$  va  $U_2$  kuchlanishlar geometrik  $\Delta U$  ayirmasi ham oshib boradi (3.9-rasm). Proporsional ravishda magnit tizimidagi oqim bilan rele yakorining unga tortish kuchi ham oshadi. Burchak  $\delta$  ma'lum qiymatga yetganda, bu kuch prujina qarshiligini yengib, rele o'qini buradi va kontakt ko'rikchasi qo'zg'almas kontaktlarni ajratib yuboradi. Rele ishga tushadi. Relening ishga tushish burchagi  $\delta_{i.t}$  prujinaning dastlabki holatini rostlash bilan o'matiladi. Relening shkalasi graduslarda darajalangan.

Barcha zamonaliv generatorlar qo'zg'atishni avtomatik rostlash QAR qurilmalari, turbinalar esa – tezlik rostlagichlari bilan jihozlanadi. Liniya himoya tomonidan o'chirilib, tizimning bo'lingan qismlari sinxronizmdan chiqib ketganidan so'ng bir oz vaqt o'tgach, ularning sinxronizmi bu rostlagichlar ishi ta'sirida dambadam tiklanib turadi.

Bu hodisa liniyaning bir boshida kuchlanish yo'qligini nazorat qilib, ikkinchi boshida sinxronizmni kutib turuvchi (SKAQU) yoki tutib oluvchi (STAQU) AQU qurilmalari ishining asosiga qo'yilgan.

SKAQU va STAQU larning fizikaviy mohiyati bir xil bo'lib, ular bajarilish sxemasi bilan farqlanadi. Bu usul bo'yicha bajarilgan AQUning kamchiligi shundan iboratki, bir qator hollarda sinxronizm shartlari uzoq vaqt muddatida tiklanadi (ayrim hollarda bunga 20 daqiqagacha vaqt sarf qilingan).

Shu sababli SKAQU yakka zanjirli liniyalardagi avariya holatida dispetcherga dastlabki sxemani tiklash uchun yordamchi vosita sifatida ishlataladi.

Ko'rib chiqilgan AQU usullari uch fazali avtomatik qayta ulash (TAQU) usullari turkumiga kiradi.

#### **Turg'un bo'lmagan qisqa tutashuvlarda sxema quyidagicha ishlaydi.**

Q1 va Q2 uzgichlari o'chirilgandan so'ng, liniyada kuchlanish yo'qoladi va KV< minimal kuchlanish relesi ta'minotsiz qolib kontaktlarini qo'shadi. SQ uzgichining o'rtaча blok-kontaktlari qisqa tutashuvgacha zaryadlanib turgan C kondensatorining zaryadlanish zanjirini uzadi. Pastki blok-kontaktlar va KV< minimal kuchlanish relesi orqali KT vaqt relesining chulg'amiga ta'minot beriladi. Ishga tushgach, bu rele kontaktlari bilan C kondensatorining razryadlanish zanjirini KL oraliq relesining chulg'amiga ulaydi. Uning kontaktlari va ushlab turuvchi chulg'ami orqali UAS uzgichining ulash chulg'amida zanjir hosil bo'ladi.

#### **Uzgich ulangandan so'ng:**

- uning yuqorigi blok-kontaktlari KL oraliq relesini ish holatda ushlab turgan zanjirini uzadi va u dastlabki holatiga qaytadi;

- pastki blok-kontaktlar KT vaqt relesining ta'minotini uzadi va o'rtancha blok-kontaktlar C kondensatorining zaryadlash zanjirini qayta ulaydi (r qarshiligi yordamida zaryadlash vaqt 20-25 soniyaga teng o'matiladi).

Agar Q1 uzungichi liniyani bir tomonlama o'chirsa, liniyada kuchlanish saqlanib qoladi. Qarshi tarafdan kuchlanish berilishining oldini olish maqsadida minimal kuchlanish KV< relesining kontaktlari orqali vaqt relesining ta'minot zanjiri uzilgan bo'ladi va **qayta ulanish bo'lmaydi**.

Q1 uzgichining samarali qayta ulanishidan so'ng **sinxronizm shartlari saqlanib qolgan bo'lsa** (ya'ni  $\delta < \delta_{cp}$  va RKS relesining kontaktlari ulangan), S<sub>1</sub> tizimi tarafida bo'lganidek, KT vaqt relesi ta'minot oladi. Sxema davomiga xuddi liniyaning qarshi tarafidagidek ishlaydi. Q2 uzungichi qayta ulanadi.

Agar **sinxronizm shartlari saqlanib qolmagan bo'lsa** ( $\delta > \delta_{cp}$ ), unda RKS relesining kontaktlari ajragan holatda bo'lib, **Q2 uzgichining qayta ulanishi bajarilmaydi**.

**Qayta ulashda** Q1 uzungichi liniyani **turg'un qisqa tutashuvga** ulasa, himoya uni qayta o'chiradi. Kondensator C zaryadi bo'lmanligi sababli, u boshqa ulanmaydi. S<sub>2</sub> tizimi tomonida RKS relesiga kuchlanish faqat 2TV kuchlanish transformatoridan beriladi. Bu rele ishga tushib, kontaktlarini ajratadi va Q2 uzgichining AQU sxemasini ish holatdan chiqarib qo'yadi.

Shunday qilib, turg'un qisqa tutashuv jarayonida Q1 uzungichi ikki marta, Q2 uzungichi esa bir marta ishlaydi.

Uzgichlar masofali boshqaruv orqali o'chirliganda, sxemada ko'rsatilgan SA boshqarish kalitining kontaktlari yordamida AQU qurilmasi ish holatidan chiqariladi va qayta ulash bo'lmaydi.

STAQU qurilmasi SKAQU qurilmasi sifatida ham ishlatilishi mumkin. Haqiqatdan ham, agar sinxronizmni nazoratlovchi **RKS** relesi kontaktlarini ulab, KT vaqt relesini ishga tushirib yuborgan soniyadan to KT relesining kontaktlari qo'shilmagunga qadar vaqt oralig'iда uning (RKS) kontaktlari ajrab ketmasa (ya'ni δ burchagi  $\delta_{cp}$  ishga tushish burchagi qiymatigacha yetib bormasa), Q2 uzgichining **qayta ulanishi bajariladi**.

Bu jarayonda δ burchagi sekin o'sishi S<sub>1</sub> va S<sub>2</sub> tizimlaridagi chastotalar farqi kamliqi haqida dalolat beradi.

Bundan tashqari, RKS relesining kontaktlari ulangan bo'lishi uchun U<sub>1</sub> va U<sub>2</sub> kuchlanishlarining qiyinatlari teng bo'lib, orasidagi burchak kichik bo'lishi kerak.


Kuchlanishlar tengligi, chastotalar deyarli tengligi va kuchlanishlar vektorlari orasidagi burchak kichikligi – bular hammasi sinxronizm shartlaridir. Demak, Q2 uzgichining qayta ulanishi SKAQU qurilmasi kutib turuvchi sinxronizm shartlari **tiklangandan** so'ng bajariladi.

### 3.4. Liniyalarning bir fazalik AQUsi (BAQU)

110 kV va undan yuqori kuchlanishli havo liniyalarda fazalar orasidagi masofa yetarlichka kattadir va shu sababli bunday liniyalardagi shikastlanishlarning aksariyati izolyatorlar shodasi bo'ylab o'tuvchi bir fazali qisqa tutashuvlardir.

Bunday liniyalarda uch fazali qayta ulash bilan birgalikda **bir fazali avtomatik qayta ulash (BAQU)** qurilmalari ishlataliladi. BAQU ning mohiyati shundan iboratki, bir fazali qisqa tutashuvlarda faqatgina shikastlangan faza o'chirilib, qayta ulanadi.

BAQU ishlataliganda liniyaning ikkala tomonida transformatorlar neytrallari 3.10-rasmida ko'rsatilgandek zamin hosil qiladi:



3.10-rasm. Ikki tomonlama ta'minotga ega tizimning sxemasi

Shu sababli shikastlangan faza o'chirilganda energotizim qismlari orasidagi bog'lanish shikastlanmagan fazalar va yer orqali saqlanib qoladi. Shu tufayli tizimning bu qismalaridagi elektr mashinalar sinxron ishlashdan tez chiqib ketishga ulgurmaydilar va BAQU siklining vaqtiga uch fazali AQU siklining ruxsat etilgan vaqtiga nisbatan o'nlab marotaba katta olinishi mumkin.

Bu BAQU ning eng asosiy afzalligidir va u har qanaqa sekin ishlovchi himoya bilan birgalikda ishlatalishi mumkin.

Shu bilan birga unga bir necha kamchiliklar mansubdir:

- har bir faza uchun alohida uzgich yuritmalari kerak;
- releli himoya shikastlangan fazani tanlash organlari (tanlagichlar) bilan jihozlanishi kerak;
- faza o'chirilgandan so'ng teskari ketma-ketlik oqimi paydo bo'lib, u generator rotorlariga qarama-qarshi tomonga aylanadi va ularning chulg'amlarida ikkilangan chastotalik parazit toklar paydo ettiradi;
- liniya fazalarining tarqalish oqimlari kompensatsiya bo'limganligi sababli, unga parallel o'tgan kam tokli aloqa (telegraf, telefon) liniyalarda xalaqitlar paydo bo'ladi.

Shuning uchun energotizim qismalararo parallel ishlash turg'unligini saqlash zaruriyati mavjud bo'lgandagina ularni bog'lovchi liniyada BAQU o'matilishi lozim.

Bir qator hollarda liniyalarda bir necha turdag'i AQU lar qo'yildi, masalan, BAQU (ОАПВ) va TAQU (БАПВ), yoki TAQU (БАПВ) va SKAQU (АПВОС).

BAQU bir tomonlama va ikki tomonlama ta'minotli liniyalarda o'matiladi.


Ikki tomonlama ta'minotli liniyalarning BAQUi bir tomonlama ta'minotli liniyalarning BAQUidan farqi shundaki, birinchi holatda muvaffaqiyatsiz qayta

ulashdan so‘ng hamma fazalar o‘chiriladi, ikkinchi holatda esa ikki faza va yer orqali uzoq muddatli ish rejimiga o‘tiladi.

Agar bir tomonlama ta‘minotli liniya bo‘yicha bir guruh iste’molchilar, shu jumladan, birinchi toifali iste’molchilar ham ta‘minot olayotgan bo‘lsa, unda ko‘rilgan holatlarning oxirgisi, bu liniyada bir fazalik turg‘un qisqa tutashuv bo‘lganda, yuqori mas’uliyatlari iste’molchilar uchun ta‘minotni saqlab qolish imkonini beradi.

Avval aytiganidek, BAQU jarayonida faqatgina shikastlangan fazani o‘chirib ulash uchun himoya sxemasida shikastlangan fazani tanlash organi bo‘lishi kerak.


Dastlab bir tomonlama ta‘minotli liniya uchun shikastlangan fazani tanlash organlarini ko‘rib chiqamiz. Bularning eng oddisi har biri o‘zining faza tokiga ulangan uchta tok relesidan tashkil topgan (3.11-rasm).



**3.11-rasm. Bir tomonlama ta‘minotli liniya uchun shikastlangan fazani tanlash sxemasi**


Bir fazali qisqa tutashuvda shikastlangan fazaning toki oshadi. Bu fazaning tok relesi bilan birgalikda liniyaning relei himoyasi ishga tushadi. RH ning chiqish relesi kontakti va shikastlangan fazaning tok relesi kontaktlari orqali fazani o‘chirishga impuls yuboriladi.

Ikki tomonlama ta‘minotli liniyalarda ko‘pincha uchta qarshilik relesidan iborat tanlagich qo‘llanadi. Bunda relelar (3.12-rasm) o‘z fazasining tok va kuchlanishiga ulanib, podstansiyadan qisqa tutashuv nuqtasigacha bo‘lgan qarshilikni o‘lchaydi.



**3.12-rasm. Ikki tomonlama ta‘minotli liniya uchun shikastlangan fazani tanlash sxemasi**

BAQU sxemasining misoli sifatida quyidagi sxemani (3.13-rasm) ko'rib chiqqamiz. Unda operativ tok zanjirlari, bir tomonlama ta'minotli liniyaning ta'minot tarafidagi bir fazali AQU uzgichlarining uzib/ulash zanjirlari, shikastlangan fazani tokli tanlash organi ko'rsatilgan.



**3.13-rasm. BAQU ning sxemasi**

Sxemada SQ uzgichlarining blok-kontaktlari ularning ulangan holati uchun mos holatda ko'rsatilgan. Normal rejimda uchala faza uzgichlarining SQ(A)-1, SQ(B)-1 va SQ(C)-1 blok-kontaktlari orqali 2KL oraliq relesi chulg'amining zanjiri qo'shilgan. Shu sababli 2KL-1, 2KL-2 va 2KL-3 relelarning kontaktlari uzilgan holatda bo'ladi (ular normal holatda qo'shilgan kontaktli relelardir).

Bir fazalari qisqa tutashuvda sxema ishlashini ko'rib chiqamiz (A faza misolida). Bunda shikastlangan fazani tanlash organining A faza relesi ishga tushib, KA(A)-1 kontaktini qo'shadi. Bu kontakt va releli himoyaning chiqish relesi kontakti orqali KL(A) oraliq relesiga ta'minot beriladi. U ishga tushib, o'zining KL(A)-1, KL(A)-2, KL(A)-3 kontaktlarini ulaydi.

Fazalararo qisqa tutashuvda ishlovchi  $KL_{m.f}$  relesining ta'minot zanjiri uzilgan holatda qoladi, KL(A)-3 kontakt orqali esa A faza uzgichining UAT(A) o'chirish chulg'amiga tok beriladi. Uzgich EUL ning shikastlangan fazasini o'chiradi.

Bular bo'lgunga qadar  $r_1$  qarshiligi orqali kondensator C zaryad olib turgan (zaryadlanish vaqt 15-20 soniya).

O'chirilgan uzgichning SQ(A)-3 blok-kontakti orqali KT vaqt relesiga ta'minot beriladi. Relening tez ishlovchi KT-1 kontakti uzilgach, tok  $r_1$  qarshiligi orqali oqadi (bu KT relesining termik turg'unligini ta'minlab beradi), KT-2 kontakti orqali esa taqu vaqt o'tgach, C kondensatori KL oraliq relesiga razryadlanib boshlaydi. U ishga tushib, KL-1 kontakti orqali o'zini-o'zi ushlab turish KLY chulg'ami bilan 3KL oraliq relesining ta'minot zanjirini ulaydi (SQ(A)-5 blok-kontaktlari shikastlangan faza uzgichi o'chirilganda ulangan).

3KL-1 kontakti va SQ(A)-6 blok-kontaktlari orqali o'chirilgan A faza uzgichining UAS(A) ulash chulg'amiga ta'minot beriladi. U qayta ulanadi. Sxema dastlabki holatiga qaytadi, kondensator C yana zaryadlanib boshlaydi.


Agar qisqa tutashuv turg'un bo'lsa, himoya bilan shikastlangan fazani tanlash organi yana qayta ishlaydi. Shikastlangan faza ikkinchi marotaba o'chiriladi, lekin kondensator C zaryad olishga ulgurmaganligi tufayli qayta ulanish bo'lmaydi. Shikastlangan faza o'chganligicha qoladi, liniya ikki faza va yer bo'yicha uzoq muddati ishlash rejimiga o'tadi.

**Fazalararo qisqa tutashuvda** (masalan, A va B fazalari orasida) shikastlangan fazani tanlash organining KA(A)-1 va KA(B)-1 tok relelari ishga tushadi. KL(A) va KL(B) oraliq relelari ta'minot oladi. Ular o'zining KL(A)-1 va KL(B)-1 kontaktlari orqali  $KL_{m.\phi}$  relesining chulg'amiga ta'minot beradi. U ishga tushgach,  $KL_{m.\phi.-1}$ ,  $KL_{m.\phi.-2}$ ,  $KL_{m.\phi.-3}$  kontaktlari orqali uchala faza uzgichlarining UAT(A), UAT(B), UAT(C) o'chirish chulg'amaliga ta'minot beradi. **Uchala faza o'chiriladi. Qayta ulash bajarilmaydi.** Buning sababi shundaki, KT-2 relesi kontaktlarini ulagunga qadar, o'chirilgan uzgichlarning SQ(A)-4 va SQ(B)-4 blok-kontaktlari orqali C kondensatorini kichik qiymatli  $r_2$  qarshiligidagi razryadlanish yo'li hosil qilinadi va u razryadlangan bo'ladi.

### 3.5. AQU ni hisoblash

#### 3.5.1. AQU ni hisoblash algoritmlari

Ikki tomonlama ta'minlanuvchi yakka liniyalarning AQU sining usulini aniqlash jarayoni soddarroq usul hisoblangan nosinxron AQU ni (NAQU) qo'llash mumkinligi bilan tushuntiriladi (3.14-rasm).



3.14-rasm. NAQU ni hisoblash algoritmi

Agar hisoblash natijasida topilgan nosinxron yoqish toki sxemaning qaysidir bir elementi uchun ruxsat etilgan chegaradan oshib ketsa, demak, NAQU hisob-kitob bo'yicha o'tmaganini anglatadi va undan murakkabroq AQU sxemasini qo'llash kerak bo'ladi.

Agar liniya yuqori chastotali himoya va tez ta'sir etuvchi uzgich bilan jihozlangan bo'lsa, u holda tez ta'sir etuvchi avtomatik qayta ulash (TAQU) ni o'matish imkoniyatini tekshirish lozim (3.15-rasm).

EUL si GES va tizimni bir-biriga bog'lasa hamda undagi barcha quvvat tizimga uzatilayotgan bo'lsa, agar ushbu joyda NAQU va TAQU ni qo'llash mumkin bo'lmasa, u holda EUL ning oxiri, ya'ni tizim tomoniga kuchlanish yo'qligini boshqaruvchi, GES tomoniga esa generator o'z-o'zini sinxronlashini boshqaruvchi AQU ni (AQUS) o'matish mumkin (3.16-rasm).

Agar liniya tizimlararo joylashgan va odatda u orqali juda kam quvvat uzatiladigan bo'lsa, uning bir tomoniga elektr uzatish liniyasida kuchlanish yo'qligini nazorat qilib, ikkinchi tomonida esa sinxronizmni tekshiruvchi AQU qurilmasini o'matish mumkin (3.17-rasm).



## B. TAQU ni hisoblash

**AQU ning sikl vaqtini aniqlash:**  $t = t_b + t_{u.u} + t_{t,p}$ ,  
 bu yerda,  $t_b$ -EUL himoyasining ta'sir vaqt;  $t_{u.u}$  - uzgichning o'zini uzish vaqt;  
 $t_{t,p}$ -toksiz pauza vaqt (QT joyida yoyli oraliqni ionsizlanish b'shartiga ko'ra 0,2 s dan kam bo'lmasligi kerak)

**Generator rotori divergensiyasining boshlang'ich burchagini topish:**

$$\text{EUL larining turlicha uchlarida joylashganda: } \delta_0^0 = \arcsin \frac{P_{q.t.o.}(x_{tl} + x_t + x_{tII})}{E_{qI}U_{tlI}}$$

bu yerda,

$P_{q.t.o.}$  - qisqa tutashuv bo'lishidan oldin EUL bo'ylab uzatilayotgan quvvat;  
 $x_{tl}$  - barqarorlashgan rejimda II tizimga quvvat u zatayotgan I tizimning qarshiliqi;  
 $x_t$  va  $x_{tII}$  - mos holda liniya va II tizimning qarshiliklari;  
 $E_{qI}$  - I tizimning EYK;  $U_{tlI}$  - II tizimning kuchlanishi.

**Tizimning vaqt doimiysini aniqlash:**  $T_{jl} = \frac{(\sum_{i=1}^n T_{ji} * P_{nom,i})}{\sum_{i=1}^n P_{di}}$

Bu yerda n - tizimdagagi agregatlar soni;

$T_{ji}$  va  $P_{nom,i}$  - mos holda i-agregatning nominal quvvati va vaqt doimiysi;

Kataloglarda doimiy inersiyaning  $T_j$  o'rnda moment inersiyasi beriladi. Uholda  $T_j$  ni quyidagi tenglik orqali topish mumkin:  $T_j = 2,74 * 10^{-6} * \frac{JD^2 n^2}{P_N}$

Bu yerda  $T_j$  - aggregatning inersiya doimiysi, sekundlarda;

$JD^2$  - volen momenti,  $\text{tm}^2$  larda; n - aggregatning aylanish tezligi, ayl/min da;  $P_N$  - aggregatning nominal quvvati, MWt da.

**AQU ning sikl vaqtini uchun generator rotorining tugash burchagining o'zgarishini hisoblash**

$$\Delta\delta^0 = 9000 * \left( \frac{1}{P_{nom,tl} * T_{tl}} + \frac{1}{P_{nom,tII} * T_{tII}} \right) * P_{q.t.o.} * t^2$$

Bu yerda  $P_{nom,tl}$  va  $P_{nom,tII}$  - I va II tizimning nominal quvvatlari;

$T_{tl}$  va  $T_{tII}$  - tizimlarning vaqt doimiysi; t - AQU ning sikl vaqtini.


**Qayta ularash momenti bo'yicha generator rotorining chegaraviy tugash burchagini aniqlash:**  $\delta_{cheq.}^0 = \delta_0^0 + \Delta\delta^0$

Hisoblash tamom

$$\delta_{cheq.}^0 < 60 - 70^\circ$$



3.15-rasm. TAQU ni hisoblash algoritmi



**EUL da kuchlanish yo'qligini boshqarish AQU sining vaqt relesi sozlamasini tanlash:**

$$t_{AQU} = t_{HI} + t_{u.o.II} + t_d - t_{u.ul.} + t_{zah} - t_{sl} - t_{u.o.I}$$

bu yerda,  $t_{AQU}$ - vaqt relesining sozlamasi;

$t_{HI}$  va  $t_{u.o.II}$ - AQU o'matilgan podstansiya shinasiga yaqin joyda QT bo'lganda, podstansiyadagi EUL uzgichining o'chish vaqt va himoyaning ta'sir vaqt;

$t_{HI}$  va  $t_{u.o.II}$ -EUL ning qarama-qarshi tomonida QT bo'lganda uzgichining o'chish vaqt va himoyaning ta'sir vaqt;

$t_d$ -yoqli oraliqni ionsizlanish vaqt (0,2-0,3 s);

$t_{u.ul.}$ - kuchlanish yo'qligini boshqaruvchi AQU o'matilgan podsatsniyadagi EUL uzgichining ularash vatqi;

**Liniyaning ikkala tomonidagi AQU qurilmasining minimal va maksimal kuchlanish reteilarining ishga tushish kuchlanishini aniqlash:**

$$U_{i.t.min} \leq 0,5 * U_{nom}/K_{tK} \quad U_{i.t.max} \approx 0,7 * U_{nom}/K_{tK}$$

bu yerda,  $U_{nom}$  - EUL ning nominal kuchlanishi;  $K_{tK}$  - kuchlanish transformatorining transformatsiyalash koefitsiyenti.

Chastotalar farqi relesining ishga tushish vaqtini sozlamasi:

$$f_{i.t.} = (0,03 \div 0,05)f_{nom}$$

Hiseblash tamom

**3.16-rasm. AQU ni hiseblash algoritmi**

E

Liniyaning bir tomonida kuchlanish yo'qligini va boshqa tomonida sinxronizmni tekshiruvchi AQU (AQUKS)

**EUL da kuchlanish yo'qligini boshqarish AQU sining vaqt relesi sozlamasini tanlash:**

$$t_{AQU} = t_{HII} + t_{u.o'.II} + t_{il} - t_{u.ul.} + t_{zah} - t_{HI} - t_{u.o'.I}$$

bu yerda,  $t_{AQU}$ - vaqt relesining sozlamasi;

$t_{HI}$  va  $t_{u.o'.I}$ - AQU o'matilgan podstansiya shinasiga yaqin joyda QT bo'lganda, podstansiyadagi EUL uzgichining o'chish vaqt va himoyaning ta'sir vaqt;

$t_{HII}$  va  $t_{u.o'.II}$ -EUL ning qarama-qarshi tomonida QT bo'lganda uzgichining o'chish vaqt va himoyaning ta'sir vaqt;

$t_{il}$ -yoyli oraliqni ionsizlanish vaqt (0,2-0,3 s);

$t_{u.ul.}$ - kuchlanish yo'qligini boshqaruvchi AQU o'matilgan podsatsiyadagi EUL uzgichining ulash vatqi;

**Liniyaning ikkala tomonidagi AQU qurilmasining minimal va maksimal kuchlanish relelarining ishga tushish kuchlanishini aniqlash:**

$$U_{i.t.min} \leq 0,5 * U_{nom}/K_{tK} \quad U_{i.t.max} \approx 0,7 * U_{nom}/K_{tK}$$

bu yerda,  $U_{nom}$  - EUL ning nominal kuchlanishi;  $K_{tK}$  - kuchlanish transformatorining transformatsiyalash koefitsiyenti.

Sinxronizmni boshqarish relesining sozlamasi (SBR):

$$\delta_{i.t.} = \frac{t_{AQU}\delta_{rux}}{K_i[(1+K_q)t_{u.u.} + t_{AQU}]}$$

bu yerda,  $\delta_{i.t.}$  - SBR ning ishga tushish burchagi;

$t_{AQU}$ - AQU vaqt relesining sozlamasi;

$\delta_{rux}$ - EUL simi qayta ulash momentida generator rotorining muvozanat o'qidan chetlashishining ruxsat etilgan burchagi ( $\delta_{rux} = 60 - 70^\circ$ );

$t_{u.u.}$ - EUL uzgichining ulash vaqt;  $K_q=0,8$  - SBR ning qaytish koefitsiyenti;

$K_i=1,1-1,2$  ishonchlilik bkoeffitsiyenti.

Hisoblash tamom

### 3.17-rasm. AQUKS ni hisoblash algoritmi

### 3.5.2. Stansiya va tizimni bog'lovchi liniyaning AQU turini tanlash va o'rnatmalarini hisoblash (Ikki tomonlama ta'minlangan liniya misolida)


**1-misol.** Uzunligi 40 km nominal kuchlanishi 220 kV bo'lgan KES va cheksiz quvvatli tizimni bog'lab turuvchi liniyaning uch fazali AQUsini hisoblash usulini tanlash.

KES da 4 ta TVF-60-2 tipidagi generator va 4 ta quvvati 80 MVA yuqori kuchlanishi 220 kV bo'lgan TDS-80000/220 tipidagi transformator hamda 2 ta TVF-100-2 turidagi generator va TDS-125000/220 tipidagi kuchaytiruvchi transformator o'matilgan.

Quvvati  $P_{yuk}=200$  MWt va quvvat koeffitsiyenti  $\cos\varphi_{yuk} = 0,8$  bo'lgan yuklamaga liniya orqali quvvat uzatiladi.

Stansianing qolgan quvvati iste'molchilarga bir tomonlama ta'minlangan liniyalar orqali uzatiladi. Tizim bilan bog'langan liniya xususiy o'chirish vaqt  $t_{ov} = 0,08$  s va ulash vaqt  $t_{uv}=0,2$  s bo'lgan VVB-220 tioqidagi uzgich bilan jihozlangan. U yerda harakatlanish vaqt  $t_h=0,06$  s bo'lgan yuqori chastotali himoya o'matilgan.

Quyidagi rasmda ko'rilayotgan elektr tarmog'inining prinsipial sxemasi ko'rsatilgan.



3.18-rasm. Ko'rib chiqilayotgan elektr tarmog'inining prinsipial sxemasi

Ushbu sxemani hisoblashda quyidagi parametrlar talab qilinadi /L-11/:  
**TVF-60-2 tipidagi G-1,2,3,4 generatorlarning parametrlari:**

- nominal aktiv quvvati  $P_{nom}=60$  MWt;
- to'la quvvat  $S_{nom} = 75$  MVA ( $\cos\varphi=0,8$ );
- aylantiruvchi moment  $JD^2=4 \cdot 9,7 \text{ tm}^2$ ;
- sinxron qarshilik  $x_d = 1,606$ ;
- o'ta o'tkinchi qarshilik  $x''_d = 0,195$ .

**TVF-100-2 tipidagi G-5,6 generatorlarning parametrlari:**

- nominal aktiv quvvati  $P_{nom}=100$  MWt;
- to'la quvvat  $S_{nom}=117,5$  MVA ( $\cos\varphi=0,85$ );
- aylantiruvchi moment  $JD^2=4 \cdot 13 \text{ tm}^2$ ;
- sinxron qarshilik  $x_d=1,79$ ;
- o'ta o'tkinchi qarshilik  $x''_d=0,183$ .

#### **TDS-80000/220 transformatorning parametrlari:**

- to'la quvvati  $S_{nom}=80$  MVA;
- qisqa tutashuv kuchlanishi  $u_k=11\%$ .

#### **TDS-125000/220 tarsnformatoarning parametrlari:**

- to'la quvvati  $S_{nom}=125$  MVA;
- qisqa tutashuv kuchl anishi  $u_k=11\%$ .

#### **Tizimni bog'lovchi liniya:**

- liniyaning uzunligi  $l=40$  km;
- liniyaning solishtirma qarshiligi  $x_{soi}=0,4$  Om/km;
- EUL si bo'ylab uzatilayotgan aktiv quvvat  $P_{yuk}=200$  MWt;
- EUL si bo'ylab uzatilayotgan to'la quvvat  $S_{yuk}=250$  MVA.

#### **Tizimning parametrlari:**


- quvvati  $S_t=\infty$ ;
- kuchlanishi  $U_t=220$  kV.

#### **Yechish:**

Dastlab NAQU ni o'rnatish imkoniyatini tekshiramiz.

Hisoblashlarni o'rta kuchlanish bo'yicha nomlangan birliklarda olib boramiz. Bazis kuchlanish sifatida  $U_b=230$  kV ni qabul qilamiz. Elektr tarmog'i elementlarining barcha qarshiliklarini shu kuchlanish pog'onasiga keltiramiz va ekvivalent almashtirish sxemasini quramiz (3.19-rasm).

Bir tomonlama ta'minlangan liniyalar orqali KES quvvatining katta qismi oqib o'tadi, hisoblashlarda bu yuklamalarni solishtirma qarshiligi  $x^*=0,35$  va EYuK  $E=0,9$  bo'lgan ekvivalent shunt bilan almashtiramiz.



**3.19-rasm. Elektr tarmog‘ining ekvivalent almashtirish sxemasi**

Bazis kuchlanish pog‘onasiga keltirilgan qarshiliklar:

- generatorlar:

$$x_1 = x_2 = x_3 = x_4 = x_d \frac{U_b^2}{S_{nom}} = 0,195 \frac{230^2}{75} = 138 \text{ Om}$$

$$x_5 = x_6 = 0,183 \frac{230^2}{1175} = 82,4 \text{ Om}$$

- transformatorlar:

$$x_7 = x_8 = x_9 = x_{10} = \frac{e_k \%}{100} \cdot \frac{U_b^2}{S_{loss}} = \frac{11}{100} \cdot \frac{230^2}{80} = 72,7$$

$$x_{11} = x_{12} = \frac{11}{100} \cdot \frac{230^2}{125} = 46,6 \text{ Om}$$

- elektr uzatish liniyalari:

$$x_{13} = x_{eo} f \frac{U_b^2}{U_{or}^2} = 0,4 \cdot 40 \frac{230^2}{230^2} = 16 \text{ Om}$$

- shunt ko‘rinishidagi yuklama:

$$x_{14} = x_{sh} \frac{U_b^2}{S_{sh}} = 0,35 \frac{230^2}{4 \cdot 75 + 2 \cdot 117,5 - 250} = 65 \text{ Om}$$

( $S_{sh}$  – shunt ko‘rinishidagi yuklamaning to‘la quvvati).

Basis kuchlanish pog‘onasiga keltirilgan o‘ta o‘tkinchi EYuK:

- generatorlar:

$$E_1'' = E_2'' = E_3'' = E_4'' = (1 + x_d'' \sin \varphi_N) U_b = (1 + 0.195 \cdot 0.6) \cdot 230 = 257 \text{ kV};$$

$$E_5'' = E_6'' = (1 + 0.183 \cdot \sqrt{1 - 0.85^2}) \cdot 230 = 274 \text{ kV};$$


$$\sin \varphi_N = \sqrt{1 - \cos^2 \varphi_N};$$

- yuklamalarning EYuK

$$E_{14}'' = E_{th}'' \cdot U_b = 0.9 \cdot 230 = 207 \text{ kV}.$$

- tizimning kuchlanishi  $U_t = 230 \text{ kV}$ .

almashtirish sxemasini soddalashtirib, quyidagi ko'rinishga keltiramiz (3.20-rasm):



**3.20-rasm. Soddalashtirilgan almashtirish sxemasi**


Bu yerda:

$$x_{15} = \frac{x_1 + x_7}{4} = \frac{138 + 72.7}{4} = 52.7 \text{ Om};$$

$$x_{16} = \frac{x_5 + x_{11}}{2} = \frac{82.4 + 46.6}{2} = 64.5 \text{ Om};$$

Soddalashtirishni davom ettirib quyidagini hosil qilamiz (3.21-rasm):


$$x_{17} = \frac{x_{15} x_{16}}{x_{15} + x_{16}} = \frac{52.7 \cdot 64.5}{52.7 + 64.5} = 29 \text{ Om};$$



**3.21-rasm. Soddalashtirilgan almashtirish sxemasi**

$$E_{17}'' = \frac{E_6'' x_{16} + E_5'' x_{15}}{x_{16} + x_{15}} = \frac{257 \cdot 64.5 + 274 \cdot 52.7}{64.5 + 52.7} = 265 \text{ kV}$$

Vunn soddalashtirsaq,



**3.22-rasm. Soddalashtirilgan almashtirish sxemasi**

$$x_{18} = \frac{x_{17}x_{14}}{x_{14} + x_{17}} = \frac{29 \cdot 65}{29 + 65} = 20.1 \text{ Om}$$

$$E''_{ST} = \frac{E''_{CT}x_{14} + E''_{14}x_{17}}{x_{14} + x_{17}} \approx \frac{265 \cdot 65 + 207 \cdot 29}{65 + 29} = 247 \text{ kV}$$

Tenglashtiruvchi tokning maksimal qiymati:

$$J_{teng,max} = \frac{E''_{ST} + U_T}{\sqrt{3}(x_{18} + x_{13})} = \frac{247 + 230}{\sqrt{3}(20.1 + 16)} = 7.64 \text{ kA}$$

Stansiya shinasining faza kuchlanishi (stansiyaning EYuK va tizim kuchlanishi orasidagi burchak  $180^\circ$  dan katta bo'lsa, manfiy qiymat qabul qilinadi).

$$\frac{U_{sh}}{\sqrt{3}} = -\frac{U_t}{\sqrt{3}} + J_{teng,max} x_{13} = -\frac{230}{\sqrt{3}} + 7.64 \cdot 16 = -11 \text{ kA}$$

TVF-60-2 generatormi asinxron ularash toki:

$$J_{As,1} = \left( \frac{E''_{ST}}{\sqrt{3}} - \frac{U_{sh}}{\sqrt{3}} \right) / (4 \cdot x_{15}) = \left( \frac{257}{\sqrt{3}} + 11 \right) / (4 \cdot 52.7) = 0.757 \text{ kA}$$

TVF-60-2 generatorining basis kuchlanish pog'onasiga keltirilgan toki:

$$J_{nom} = \frac{S_b}{\sqrt{3}U_b} = \frac{75}{\sqrt{3} \cdot 230} = 0.188 \text{ kA}$$

Bu generator uchun ruxsat etilgan zarbaviy tenglashtiruvchi tok:

$$J_{ruh} = \frac{0.625}{x_d''} J_{nom} = \frac{0.625}{0.195} 0.188 = 0.6 \text{ kA}$$


Bundan ko'rindiki,  $J_{As,1}=0.757 \text{ kA} > J_{ruh}=0.6 \text{ kA}$ , dernak, hisoblashni davom ettirmaymiz, ya'ni NAQU ni qo'llab bo'lmaydi degan xulosaga kelamiz.

EUL da tez ta'sir etuvchi himoya va uzgichlar ishlatilganligi sababli, unga TAQU qurilmasini o'matilishini tekshirish mumkinligi imkonini beradi.

Uzgichning ularash vaqtisi  $t_{uu} = 0,2$  s toksiz pauza vaqtisi  $t_{t,p.} = 0,2$  s dan oshib ketmaganligi sababli, TAQU davri:

$$t = t_H + t_{uu} + t_{t,p.} = 0,06 + 0,08 + 0,2 = 0,34 \text{ s.}$$

Qisqa tutashuvdan keyingi rejim (barqarorlashgan rejim) uchun ko'rileyotgan elektr tarmog'ining almashtirish sxemasini tuzamiz va generator EYuK hamda tizim kuchlanishi vektorlari orasidagi bog'lang'ich ( $\delta_0$ ) burchakni aniqlaymiz. Almashtirish sxemasi 3.23-rasmida keltirilgan. Basis kuchlanish sifatida yuqoridaqilar kabi  $U_b = 230$  kV ni qabul qilamiz.



**3.23-rasm. Ekvivalent almashtirish sxemasi**

Bu sxemaning oldingi hisoblashlardagi sxemadan faqri, unda shunt qarshiligi yo'q va generatorlarning o'ta o'tkinchi qarshiligi ( $x_d'$ ) va EYuK (E") o'miga sinxron qarshilik ( $x_d$ ) va o'matilgan rejimning EYuki (E) kiritilgan.

Bu yerda:


$$x_1 = x_2 = x_3 = x_4 = x_d = x_d' \frac{U_b^2}{S_{nom}} = 1,606 \cdot \frac{230^2}{75} = 1133 \text{ Om}$$

$$x_5 = x_6 = 1,79 \frac{230^2}{117,5} = 806 \text{ Om}$$

$$E_1 = E_2 = E_3 = E_4 = (1 + x_d \sin \varphi_N) U_b = (1 + 1,606 \cdot 0,6) \cdot 230 = 457 \text{ kV;}$$

$$E_1 = E_6 \cdot (1 + 1,79 \cdot \sqrt{1 - 0,85^2}) \cdot 230 = 447 \text{ kV};$$

Sxemani soddalashtirib, quyidagi holatga keltiramiz:




**3.24-rasm. Soddalashtirilgan almashtirish sxemasi**

$$x_{15} = \frac{x_1 + x_7}{4} = \frac{1133 + 72.7}{4} = 301 \text{ Om};$$

$$x_{16} = \frac{x_5 + x_{11}}{2} = \frac{806 + 46.6}{2} = 426 \text{ Om};$$

Undan keyin quyidagini hosil qilamiz:



**3.25-rasm. Soddalashtirilgan almashtirish sxemasi**

$$x_{CT} = x_{18} = \frac{x_{15} x_{16}}{x_{15} + x_{16}} = \frac{301 \cdot 426}{301 + 426} = 176 \text{ Om}$$

$$E_{qI} = \frac{E_1 x_{16} + E_5 x_{15}}{x_{15} + x_{16}} = \frac{457 \cdot 426 + 447 \cdot 301}{301 + 426} = 453 \text{ kV}$$

Stansiya generatorlarining EYuK va tizim kuchlanishi orasidagi boshlang'ich ( $\delta_0$ ) burchakni hisoblaymiz:

$$\delta_0 = \arcsin \frac{P_{yuk}(x_{st} + x_l + x_t)}{E_{qI} U_c} = \arcsin \frac{200(176 + 16 + 0)}{453 \cdot 230} = 22^\circ$$

TVF-60-2 tipidagi generatorlarning doimiy inersiyasi (turbogenerator-turbina aggregatining doimiy inersiyasi generatordan doimiy inersiyasidan deyarli farq qilmasligi tufayli uni hisobga olmaslik mumkin; bu esa o'z navbatida stansiya

generatorlari rotorining hisobiy ruxsat etilgan o‘zish burchagi haqiqiy o‘zish burchagidan ozgina katta bo‘lishiga olib keladi):

$$T_{j1} = 2,74 \cdot 10^{-6} \cdot \frac{JD^2 n^2}{P_N} = \frac{2,74 \cdot 10^{-6} (4 \cdot 97) 3000^2}{60} = 15s.$$

TVF-60-2 generatorining doimiy inersiyasi:

$$T_{j5} = \frac{2,74 \cdot 10^{-6} (4 \cdot 13) 3000^2}{100} = 13s.$$

Elektr stansiyasining doimiy inersiyasi:

$$\begin{aligned} T_{jss} &= \left( \sum_{i=1}^n T_{ji} \cdot P_{nomi} \right) \cdot \sum_{i=1}^n P_{nomi} = \frac{4T_{j1}P_{nom1} + 2T_{j5}P_{nom5}}{4P_{nom1} + 2P_{nom5}} = \\ &= \frac{4 \cdot 15 \cdot 60 + 2 \cdot 13 \cdot 100}{4 \cdot 60 + 2 \cdot 100} = 14s \end{aligned}$$

( $P_{nom1}$  va  $P_{nom5}$  – mos ravishda TVF-60 va NVF-100 generatorlarning aktiv quvvatlari).

Tizimning quvvati cheksiz  $S=\infty$ , u holda TAQU davri vaqtida rotoring o‘zish burchagi:

$$\Delta\delta^\circ = 9000 \cdot \frac{P_{suk} t^2}{T_{jss} P_{nomST}} = 9000 \frac{200 \cdot 0.34^2}{14(4 \cdot 60 + 2 \cdot 100)} \approx 34^\circ.$$

KES uchun rotor o‘zish burchagini chegaraviy qiymati:

$$\delta_{cheg} = \delta_0 + \Delta\delta = 22 + 34 = 56^\circ.$$

Demak,  $\delta_{cheg}=56^\circ < \delta_{ruh}=60^\circ$  bo‘lganligi uchun TAQU hisoblariga ko‘ra to‘g‘ri keladi.

## 2-misol.

1-misoldagi elektr tarmoq uchun tizim bilan bog‘lovchi liniya uchun BAQU o‘rnatmalarini hisoblang va shikastlangan faza tanlash organini sezuvchanlikka tekshiring.

*Yechish:*

Liniyaning minimal ishchi kuchlanishi:

$$U_{ish,min} = 0,9 U_{nom} = 0,9 \cdot 230 = 207 \text{ kV}$$

Maksimal ishchi tok:

$$J_{ish,max} = \frac{S_{suk}}{\sqrt{3} U_{ish,min}} = \frac{250}{\sqrt{3} \cdot 207} = 0,698 \text{ kA}$$

Minimal ishchi qarshilik:

$$Z_{ish,min} = \frac{U_{ish,min}}{\sqrt{3} J_{ish,max}} = \frac{207}{\sqrt{3} \cdot 0,698} = 171 \text{ Om.}$$

Tanlash organining ishga tushish qarshiligi:

$$z_{TQ} = \frac{z_{\text{ish}}}{\kappa_n \cdot \kappa_s} = \frac{171}{1,15 \cdot 1,2} = 124 \text{ Om.}$$

Organni sezgirlikka tekshirishda  $z_t = x_t$ , deb olishimiz mumkin. U holda

$$\kappa_s = \frac{z_{TQ}}{z_t} = \frac{124}{16} = 7,75 > 1,5.$$

O'chov transformatorlarini ishchi tok va kuchlanish orqali topamiz [L-1].

NKF-220-58 turdag'i kuchlanish transformatori yuqori va pastki nominal kuchlanishlari  $220000/\sqrt{3}$  va 100 V. Transformatsiyalash koefitsiyenti esa:

$$\kappa_{TK} = \frac{220000/\sqrt{3}}{100} = 2200/\sqrt{3}$$

TFND-220-1 tipidagi tok transformatorining birlamchi va ikkilamchi toklari mos ravishda 750A va 5A. Uning transformatsiyalash koefitsiyenti:


$$\kappa_{TT} = \frac{750}{5} = 150$$

Shikastlangan fazani aniqlash organining qarshilik rele o'matmasi:

$$z_{TORI} = z_{TOR} \frac{\kappa_{IT}}{\kappa_{TK}} = 124 \frac{150}{2200 \cdot \sqrt{3}} = 14,6 \text{ Om}$$

### 3-misol.

3.26-rasmda keltirilgan elektr tarmog'inining liniyani TAQU o'matmasi usuli va hisoblashni tanlash.



3.26-rasm. Elektr tarmog'inining sxemasi

GESda quvvati 80 MVA bo'lgan transformatorli 2 ta blok o'matilgan. GES generatorining o'ta-o'tkinchi qarshiligi  $X_d'' = 0,22$ ; QT kuchlanishi  $e_k = 11\%$ .

Bulardan tashqari KESda quvvati 30 MVA bo'lgan generator va 32 MVA transformatorli 2 ta blok o'matilgan. Generatorning o'ta-o'tkinchi qarshiligi

$X_d'' = 0,125$ ; transformatorning QT kuchlanishi  $e_k = 10,5\%$ . Tizim quvvati  $S_T = 500MVA$ ; tizimning solishtirma qarshiligi  $X_{tot}'' = 0,3$ .

EUL kuchlanishi  $U_L = 110kV$ ; liniyalarning uzunligi  
 $l_1 = l_3 = 20km; l_2 = 40km; l_4 = l_5 = 35km; l_6 = 25km; l_7 = 30km$ .

Liniyada o'zi ishga tushish vaqtiga ( $t_{UU} = 0,09s$ ) ega bo'lgan va ulash vaqtiga ( $t_{UU} = 0,18$  s) bo'lgan va AQUga toksiz tanaffus vaqtiga  $t_{TT} = 0,4$  s bo'lgan VMK-110 uzbekchi bilan jihozlangan. Liniyaning himoyasi 1-bosqichida sabr vaqtli  $t_x^I = 0s$  va 2-bosqichda  $t_x^II = 0,5s$  bo'lgan masofali himoya o'matilgan.

### Yechish:


3 ta bog'lanishga ega bo'lgan L1-L5 liniyalar GES va tizimni bir-biri bilan bog'laydi. Shuning uchun ularda bir tomonlama liniyalarda bo'lganiday oddiy AQU o'matiladi.

Bu liniyalarning ikkala tomonida o'chish va toksiz tanaffus vaqtleri bir xil bo'lgan uzgichlar qo'yilganidan, ko'rsatilgan EULLar AQU tele vaqtি o'matmasi:

$$t_{AQU} = t_x^I + t_{TT} + t_{Zah} - t_{UU} = 0,5 + 0,4 + 0,1 - 0,18 = 0,82s.$$

KES tarmoqning boshqa qismi bilan faqatgina ikkita liniya orqali (L6 va L7 liniyalar) bog'langanligi uchun, ularda NAQU qurilmasi imkoniyatlarini sinab ko'rish kerak.

L7 liniyaga bunday imkoniyatni aniqlashtirish uchun L6 liniya o'chiq holda elektr tarmoqning ekvivalent almashtirish sxemasini quramiz (3.27-rasm). Bu sxemani tuzishda, bir vaqtida ishlovchi KES agregatlarining nominal sonini kiritish kerak. Bunda ularning har biridan katta bo'Imagan nosinxron ulash toki oqib o'tadi.



3.27-rasm. Ekvivalent alamshtirish sxemasi

J.27-rasmda barcha elementlar qarshiligi kuchlanishning  $U_s = 115\text{ kV}$  dagi qiymatiga keltirilgan. Bu qiymatlar quyidagicha olingan:

**GES generatorlari uchun:**

$$X_8 \approx X_9 = X_d^* \cdot \frac{U_s^2}{S_{Nom}} = 0,22 \cdot \frac{115^2}{80} = 36,4 \text{ Om}$$

**KES generatorlari va tizim uchun:**

$$X_{10} = X_{11} = 0,125 \frac{115^2}{30} = 55,1 \text{ Om}; \quad X_{16} = 0,3 \frac{115^2}{500} = 7,94 \text{ Om}$$

**Transformatorlar uchun:**

$$X_{12} = X_{13} = \frac{e_k \%}{100} \cdot \frac{U_k^2}{S_{Nom}} = \frac{11}{100} \cdot \frac{115^2}{80} = 18,2 \text{ Om},$$


$$X_{14} = X_{15} = \frac{10,5}{100} \cdot \frac{115^2}{32} = 43,4 \text{ Om},$$

**EUL qarshiligi:**

$$X_1 = X_3 = X_{sol} \cdot l = 0,4 \cdot 20 = 8 \text{ Om}; \quad X_2 = 0,4 \cdot 40 = 16 \text{ Om};$$

$$X_4 = X_5 = 0,4 \cdot 35 = 14 \text{ Om}; \quad X_7 = 0,4 \cdot 30 = 12 \text{ Om};$$

Sxemani soddalashtirib, quyidagi ega bo'lamiz (3.28-rasm):




**3.28-rasm. Soddalashtirilgan almashtirish sxemasi**

$$X_{17} = \frac{X_8 + X_{12}}{2} + \frac{(X_1 + X_2 + X_3) \cdot (X_4 + X_5)}{X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5} = \frac{36,4 + 18,2}{2} + \frac{(8 + 16 + 8) \cdot (14 + 14)}{8 + 16 + 8 + 14 + 14} = 42,2 \text{ Om};$$

$$X_{18} = \frac{X_{10} + X_{14}}{2} + X_7 = \frac{55,1 + 43,4}{2} + 12 = 61,3 \text{ Om};$$

Sxemani sodda ko‘rinishga keltirib (3.29-rasm), quyidagini topamiz:



### 3.29-rasm. Soddalashtirilgan almashtirish sxemasi

$$X_{19} = \frac{X_{17} \cdot X_{16}}{X_{17} + X_{16}} = \frac{42,2 \cdot 7,94}{42,2 + 7,94} = 6,68 \text{ Om};$$

Tenglashtiruvchi tok hisobini osonlashtirilgan usulda ishlaymiz, generatorlar EYUK va tizim kuchlanishi  $1,05 \cdot U_B$  ga teng deb qabul qilamiz.

$$J_{teng.\max} = \frac{2,1 \cdot U_B}{\sqrt{3} \cdot X_{\Sigma}} = \frac{21 \cdot 115}{\sqrt{3}(6,68 + 61,3)} = 2,05 \text{ kA};$$

1 ta KES aggregatining nosinxron ulash toki:

$$J_{nosinxr} = \frac{J_{teng.\max}}{2} = \frac{2,05}{2} = 1,025 \text{ kA}.$$

Kuchlanishning bazis qiymatiga keltirilgandagi KES generatorining nominal toki:

$$J_{Nom} = \frac{S_{Nom}}{\sqrt{3} \cdot U_B} = \frac{30}{\sqrt{3} \cdot 115} = 0,15 \text{ kA};$$

Nosinxron ulash tokining ruxsat etilgan turtkisi:

$$J_{Rux} = \frac{0,625}{X_d} \cdot J_{Nom} = \frac{0,625}{0,125} \cdot 0,15 = 0,75 \text{ kA}.$$

L-1 liniya L-7 liniyaga nisbatan qisqa. Shuning uchun unda NAQU ham o‘tmaydi. Bularidan kelib chiqib, L-6 va L-7 liniyalarda qarama-qarshi kuchlanish yo‘qolishini boshqaruvchi va sinxronizmni tekshiruvchi (kutuvchi) o‘rnatish zarur.

Bu AQLar o‘rnatmalarini tanlaymiz. Vaqt rele o‘rnatmasi xuddi L-1-L-5 liniyalar AQU bilan minimal kuchlanish relesi o‘rnatmasi:

$$U_{o'r.\min} \leq 0,5 \cdot U_{Nom}/K_{KT}$$

$U_{o'r.\min} = 0,3 \cdot U_{Nom}/K_{KT}$  deb qabul qilamiz. Unda, transformatsiya koefitsiyenti  $K_{KT} = \frac{110000/\sqrt{3}}{100} = 1100/\sqrt{3}$  bo'lgan NKF-110-1 tipidagi kuchlanish transformatorini tanlaymiz.

EUL o'matmasida

$$U_{o'r.\min} = 0,3 \cdot \frac{115000}{\sqrt{3} \cdot 1100/\sqrt{3}} = 32V \text{ ni topamiz.}$$

Sinxronizmni boshqaruvchi rele o'matmasi:

$$\delta_{o'r.} = \frac{t_{AQU} \cdot \delta_{ru}}{K_I [(1+K_R) \cdot t_{UV} + t_{AQU}]} = \frac{0,82 \cdot 60}{1,1[(1+0,8) \cdot 0,18 + 0,82]} = 39^\circ.$$

### Nazorat savollari:

1. AQU sxemalariga qanday talablar qo'yiladi. Ularni izohlang.
2. Bir tomonlama ta'minotli liniyalarda AQUning qaysi turlari ishlatalidi?
3. AQU sxemasida bir marotabalik ishslash qanday bajariladi?
4. AQU ning sabr (kechiktirish) vaqt ni maga bog'liq?
5. RPV-58 relesida termik chidamli vaqt relesi nega ishlataligan?
6. RPV-58 relesining sxemasida kondensatoming zaryadlanish vaqt ni maga bog'liq?
7. RPV - 58 sxemasida KL oraliq relesi nega ikkita chulg'amga ega?
8. AQU sxemasidagi boshqarish kalitining ishini tushuntirib bering. Boshqarish kaliti yordamida uzgich o'chirilganda nega AQU bo'lmaydi?
9. Ikki qaytalik AQU qanday holatlarda ishlatalidi?
10. Ikki qaytalik AQU sxemasidagi vaqt relesida nega ikkita kontakt mavjud? Ularning sabr vaqt qanday tanlanadi?
11. Ikki qaytalik AQU sxemasidagi KL oraliq relesida "o'z-o'zini ushslash" prinsipi nima maqsadda ishlataladi?
12. Ikki tomonlama ta'minotli liniyalar AQUsining bir tomonlama ta'minotli liniya AQUidan prinsip nuqtayi nazaridan farqi nimada?
13. Ikki tomonlama ta'minotli liniyalarda nosinxron AQU va tez ishlovchi AQU qaysi holatlarda ishlataladi?
14. Ikki tomonlama ta'minotli liniyalarning AQU sxemasida RKS relesi nima uchun kerak va qanday ishlaydi?
15. Ikki tomonlama ta'minotli liniya bir tomondan o'chganda AQU nega bo'lmasligi shart? Bu qanday bajariladi? Bunday holatda liniyani qanday ulash kerak?

16. Ikki tomonlama ta'minotli liniyalarda muvaffaqiyatsiz AQU bo'lganda (turg'un qisqa tutashuvga qayta ulash) liniyaning har bir tomonida bir marotabalik AQU bajarilishi qanday ta'minlab beriladi?
17. Bir fazalik AQuning uch fazalik AQUga nisbatan afzalliklari nimadan iborat?
18. Bir fazalik AQU sxemasi faqatgina shikastlangan fazaning uzgichini qanday o'chiradi?
19. Bir fazalik AQU sxemasida o'chirilgan uzgichning avtomatik qayta ulanishi qanday bajariladi?
20. Bir fazalik AQU sxemasi fazalararo qisqa tutashuvlarda qanday ishlaydi? Bunday holatda bir fazalik AQU sxemasi o'chirilgan uzgichlarni avtomatik qayta ulanishini nega bajarmaydi? Bunday holatda AQU qaysi sxema yordamida bajariladi?


## IV BOB. ZAXIRANI AVTOMATIK ULAŞH (ZAU)

Podstansiylar ikki va undan ko'proq manbalardan ta'minlansa, iste'molchilar ta'minotining ishonchliligi jiddiy ravishda ko'tariladi.

Lekin bir qator hollarda ikki va undan ko'proq manbalardan bo'lishiga qaramasdan elektr ta'minotini bir manbadan bajarish ma'qulroq bo'ladi. Buning hisobiga qisqa tutashuv toklarini kamaytirishga, releli himoyani soddalashtirishga, toklar nojo'ya taqsimlashining oldini olishga erishish mumkin.

Manbalardan biri avaryiyiv o'chganda iste'molchilar ta'minoti uzilmasligi uchun shinalarda kuchlanish yo'qolishi bilan avtomatik holda uzgichlar qo'shilib, iste'molchilarga boshqa manbadan ta'minot berish zanjirlarini ulaydi.

Buni bajaruvchi qurilmalar zaxirani avtomatik ulash (ZAU) qurilmalari deb ataladi. Quyida ZAU sxemalarining bir nechta turlari ko'rsatilgan.



**4.1-rasm. Zaxirani avtomatik ulash sxemalari**

**a:** Seksion uzgich Q5 normal holatda o'chirilgan. 1TCH va 2TCH o'z ehtiyojlar transformatorlari o'zining seksiyalariga ta'minot beryapti. Birorta seksiyada kuchlanish yo'qolsa, ZAU qurilmasi Q5 uzgichini ulaydi va shu seksiyaga ta'minot berilishini tiklaydi. Q5 ulangunga qadar ZAU qurilmasi Q2 (yoki Q4)ni o'chiradi.

**b:** Elektr stansiyasining o'z ehtiyojlar shinalarining birinchi seksiyasida kuchlanish yo'qolsa, ZAU qurilmasi Q1ni uzib, Q3 va Q4 larni ulaydi. Kuchlanish ikkinchi seksiyada yo'qolsa, Q2ni o'chirib, Q3 va Q5 larni ulaydi.

**d:** 2-podstansiylarda kuchlanish yo'qolsa, ZAU qurilmasi Q4 uzgichini o'chirib, Q6 uzgichini ulaydi va shu tufayli podstansiya ta'minotini L-3 liniyasi tomonidan tiklaydi.

### 4.1. ZAU qurilmalariga qo'yilgan talablar


- Shinalarda kuchlanish yo'qolishining sababiga bog'liq bo'limgan holda, har qanday kuchlanish yo'qolishida zaxirani avtomatik ulash bajarilishi shart.
- ZAU bir karra ishlashi shart.

- Tez ishlash. ZAU qurilmasidagi vaqt relesining o'matmasi odatda  $0,3 \div 0,8$  soniyadan oshmaydi.
- Zaxira tarafida kuchlanish bo'lmasa, ZAU ishlamasligi shart.

Ikki transformatorli podstansiya misolida ZAUning ishlash prinsipi bilan tanishib chiqamiz (4.2-rasm).

Normal holatda iste'molchilarining ta'minoti T1 ishchi tranformator orqali bajariladi.

T2 zaxira transformatori o'chirilgan va avtomatik zaxira holatidadir.



4.2-rasm. Ikki transformatorli podstansiya uchun ZAU sxemasi

Kuchlanish yo'qolishining quyidagi (4.3-rasm) turli hollarini ko'rib chiqamiz.


1. **T1 transformatorining Q1 uzbekchi turli sabablar bo'yicha o'chganda**, uning SQ1.2 blok-kontakti KL1 oraliq relesi chulg'amining zanjirini uzadi. Buning oqibatida uzbek ulagan paytida o'zakga tortilib turgan KL1 relesining yakori qo'yib yuboriladi, lekin uning kontaktlari bir qancha sabr vaqtidan so'ng ajraydi.

Q1 uzbekchi o'chganda uning SQ1.3 ikkinchi blok-kontakti KL2 oraliq relesining hali uzelishga ulgurmagan KL1.1 kontakti orqali KL2 oraliq relesining chulg'amiga operativ tokning "plyusini" beradi. U o'z navbatida qo'shilib, o'zining kontaktlari orqali YAC3 va YAC4 uzgichlarining ularash kontaktorlariga ta'sir qiladi va zaxiradagi trasformatorning Q3 va Q4 uzgichlarini ulaydi.

Belgilangan sabr vaqt o'tgach, KL1 oraliq relesi kontaktlarini ajratadi va KL2 relesining chulg'am zanjirini uzadi.

Shu tufayli, mabodo, ZAU qurilmasi yordamida zaxira transformatori turg'un qisqa tutashuvga ulansa, u himoyadan o'chadi, lekin qayta ulanmaydi. Demak, KL1 relesi ZAU ning bir karra ishlashini ta'minlab berar ekan va shuning uchun uni **bir karra ulab berish relesi** deb atashadi.

Faqatgina normal sxema tiklanib, ya'ni Q1 uzgichi ularib, uning SQ1.2 blokkontakti qo'shilgandan so'ng, KL1 relesi o'zining kontaktini qayta qo'shadi va ZAU sxemasini qayta ishlashga tayyorlab qo'yadi. Q3 va Q4 uzgichlari ishonarli ularishga ulgurishi uchun KL1 relesi kontaktlarining ajralishga sabr vaqt uzgichlarning ularish vaqtiga nisbatan kattaroq bo'lishi kerak. Yuqorida ishchi transformatorning Q1 uzgichi o'chganda ZAU sxemasining ishlashi ko'rib chiqildi.



4.3-rasm. Kuchlanish yo'qolishining turli hollarida ZAU sxemasi

2. Shu bilan birga ishchi transformatorning yuqori tarafidagi Q2 uzgichi o'chib qolish ehtimoli borligini ham e'tiborda tutish kerak. Bunday holatda ham C podstansiyasi iste'molchilari ta'minotini yo'qotishadi.

ZAU sxemasining bu holatda ham ishlashi uchun Q2 o'chganda uning SQ2.2 blok-kontakti orqali Q1 uzgichining YAT1 o'chirish chulg'amiga impuls beriladi.

Ishchi T1 transformatorining Q1 uzgichi o'chgandan so'ng ZAU sxemasi ishga tushib ketib, yuqorida ko'rib chiqilgan ketma-ketlikda ishlaydi.

**3. Birorta sababga ko'ra B podstansiyasining yuqori kuchlanish shinalari kuchlanishsiz qolsa, iste'molchilar bu holatda ham ta'minotsiz qoladi.**

Bunda ZAU sxemasi ishlamaydi, chunki ishchi transformatorning ikkala uzgichi ulanganligicha qoladi. Bu holatda ham ZAU ni ishlatish uchun KV1, KV2, KV3 va KL3 relelarini tarkibiga olgan minimal kuchlanish bo'yicha ishga tushish maxsus organi ko'zda tutilgan.

B podstansiyasining shinalarida kuchlanish yo'qolganda (demak, C podstansiyasida ham kuchlanish yo'q), TV1 kuchlanish transformatoriga ulangan KV1 va KV2 kuchlanish releleri o'z kontaktlarini ulab, KV3 relesining kontakti orqali KT1 vaqt relesining chulg'amiga operativ tokning plusini yetkazib beradi.

KT1 relesi ishga tushib, belgilangan sabr vaqt o'tgach, KL3 chiqish oraliq relesi chulg'amiga ta'minot beradi va u ishchi transformatorining Q1 va Q2 uzgichlarini o'chiradi. Q1 o'chgach, ZAU sxemasi yuqorida ko'rib chiqilgan ketma-ketlikda ishlaydi.

Agar A podstansiyasida T2 zaxira transformatorining yuqori kuchlanish shinalarida kuchlanish bo'lmasa, unda oldindan ma'lumki, ZAU ishlashi behuda bo'ladi. Minimal kuchlanish bo'yicha ishga tushish organidan T1 transformatori bekorga o'chirilishining oldini olish maqsadida, sxemada KV3 kuchlanish relesi ko'zda tutilgan. KV3 relesi T2 kuchlanish transformatoriga ulangan va kuchlanish bo'limganda u o'zining kontaktini ajratib yuboradi. Shu tufayli KV1 va KV2 relelaridan KT1 vaqt relesi chulg'amiga zanjir uziladi. ZAU sxemasi ishga tushmaydi.

#### **4.2. Zaxirani avtomatik ulash (ZAU) qurilmasining o'rnatmalarini hisoblash**

##### **Bir martalik ulovchi rele.**

Bir martalik ulovchi oraliq relesining vaqtini  $t_{bu}$  uning chulg'amidan kuchlanishni olish vaqtidan boshlab kontaktlarni ochishgacha oraliqda ushlab turish kerak, ya'ni zaxiradagi manbani ulovchi uzgichning vaqtidan ozgina qo'shimcha zaxira bilan bo'lishi kerak:

$$T_{bu} = t_{uz} + t_{zax}, \quad (4.1)$$

bu yerda:

$t_{uz}$  – uzgichning zaxiradagi quvvat manbayini ulash vaqt (agar uzgichlar ikkita bo'lsa, ulash vaqt kattarog'i olinadi);

$t_{zax}$  – zaxira vaqt, 0,3-0,5 s ga teng deb olinadi.

**Past kuchlanishni ishga tushiruvchi qismi.**

Ishga tushiruvchi elementni bajarishdagi past kuchlanish relesining ishlab ketish kuchlanishi shunday tanlanadiki, bunda ishga tushiruvchi element kuchlanish to'liq yo'qolgandagina ishga tushishi va elektr dvigatellarining o'zini ulashi hamda qisqa tutashuv natijasida hosil bo'ladigan kuchlanish pasayishlarida harakatga kelmasligi lozim. Minimal kuchlanish relesining ishga tushish kuchlanishini (relening yakori qaytishidagi kuchlanish) shartlarini bajarish uchun quyidagilar bo'lishi lozim:

$$U_{C.P.} = \frac{U_{QOL.QT}}{k_H n_H};$$

$$U_{C.P.} = \frac{U_{3AHL}}{k_H n_H}, \quad (4.2)$$

Bu yerda:  $U_{QOL.QT}$  – QT dagi qoldiq kuchlanishning eng kichik hisobiy qiymati;  $U_{3AHL}$  – elektr motorlarining o'z-o'zidan ishga tushgandagi eng kichik kuchlanish;  $k_i$  – ishonchlilik koeffitsiyenti, 1.1-1.2 ga teng olinadi;  $n_k$  – kuchlanish transformatorining transformatsiyalash koeffitsiyenti.

Eng kichik qoldiq kuchlanishni topish uchun elektr motorlarini o'z-o'zidan ishga tushishidagi va uch fazali QT dagi hisoblari olinadi. Formulalarga asoslanib topilgan ishlab ketish kuchlanishining eng kichik qiymati tanlab olinadi.

Ko'pgina hollarda, ikkala shart ham teng ishlaydigan quyidagi kuchlanish bilan qondiriladi:

$$U_{ish.t.} = (0,25 \div 0,40) U_{nom}, \quad (4.3)$$

Bu yerda:  $U_{nom}$  – elektr qurilmasining nominal kuchlanishi.

Shuning uchun, odatda, ishlab ketish kuchlanishini formulaga asosan qabul qilish mumkin. Minimal kuchlanishli ishga tushiruvchi elementlarning sxemalarida o'rnatma chegarasi 15-60 V va 110 hamda 220 V kuchlanish ostida uzoq muddatli ishlashga ruxsat beruvchi RN-53/60 D tipidagi issiqlikka chidamli rele tanlanadi.

### **Zaxira quvvat manbayida kuchlanish mavjudligini nazorat qiluvchi rele.**

Ushbu relening ishga tushish kuchlanishi minimal ishchi kuchlanishdan o'chish shartiga muvofiq quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$U_{C.P.} = \frac{U_{pab, oot}}{k_H k_B n_H}, \quad (4.4)$$

Bu yerda:  $U_{ish,min}$  – minimal ishchi kuchlanish;

$k_i$  – ishonchlilik koeffitsiyenti, 1.2 ga teng;  
 $k_q$  – relening qaytish koeffitsiyenti.

#### Nazorat savollari:

1. Bir necha tomonlama ta'minotli podstansiyalarda bir tomonlama ta'minotli sxemalari nimaga ishlataladi?
2. ZAU ning vazifasi nimadan iborat?
3. ZAU uskunalariga qanday talablar qo'yiladi? Ularni izohlang.
4. Ta'minot transformatori past kuchlanish tarafidan o'chganda ZAU sxemasi qanday ishlaydi?
5. ZAU sxemasining bir marotabalik ishlashi qanday bajariladi?
6. ZAU sxemasida bir marotabalik ulash relesi kontaktlarining ajratilish sabr vaqt qanday talablarga javob berishi kerak?
7. Podstansiyaning asosiy (ishchi) transformatori yuqori kuchlanish tarafidan o'chganda ZAU sxemasi qanday ishlaydi?
8. ZAU sxemasida minimal kuchlanishdan ishga tushish organining vazifasi nimadan iborat?
9. Ta'minlovchi liniya tarafidan kuchlanish yo'qolganda ZAU sxemasi qanday ishlaydi?
10. Ta'minlovchi liniya tarafidan kuchlanish yo'qolganda ZAU sxemasining ishga tushishi KT1 relesidagi belgilangan sabr vaqtidan so'ng nega bajariladi?
11. Zaxira tomonida kuchlanish bo'limganda ZAU sxemasining ishlashi qanday bartaraf etiladi?

# SINXRON GENERATORLARNING QO‘ZG‘ATISHINI AVTOMATIK ROSTLASH (QAR)

Elektr qurilmalarning tuzilish qoidalariga (ETQ) muvofiq energetika tizimidagi barcha sinxron generatorlar va kompensatorlar qo‘zg‘atishni avtomatik rostlash (QAR) qurilmalari bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

QAR qurilmalari energotizimning asosiy tugunlarida kuchlanishni belgilangan chegaralarda ushlab turish, energotizimning statik va dinamik turg‘unligini oshirish uchun mo‘ljallangan.

QAR qurilmalari yordamida elektr stansiya generatorlariaro reaktiv quvvatning talab etilgan taqsimlanishi va releli himoyaning sezgirligini oshirilishi bajariladi.

## 5.1. Proporsional tipdagি qo‘zg‘atishni avtomatik rostlagich (QAR-P)


QARning strukturaviy sxemasi bilan tanishamiz (5.1-rasm).

Faraz qilaylik, biror sababga ko‘ra generatorming kuchlanishi  $U_G$  kamaydi. Ushbu o‘zgarish aylantirish elementiga (AE) uzatiladi. Uzatilgan kuchlanish o‘zgarmas kattalikka aylantiriladi va o‘lchov elementiga (O‘E) uzatilib, real kuchlanish  $U_0$ , etalon yoki nominal kuchlanish bilan solishtiriladi va  $\Delta U = U_G - U_0$ , ya’ni kuchlanishlar farqi topiladi.  $\Delta U$  ning kattaligi va ishorasiga bog‘liq ravishda kuchaytirish elementi (KE) bilan qayta ishlanuvchi signal ishlab chiqariladi, keyin esa ta’sir bajaruvchi elementga (BE) uzatiladi. Generatorming qo‘zg‘atish toki kuchlanishini rostlash  $\Delta U = 0$  shart bajarilguncha davom etadi, yani generator kuchlanishi nominal (etalon) yoki boshlang‘ich holatga qaytguncha davom etadi. E’tiborga olish kerakki, rostlash tizimining turidan qat’i nazar kuchaytirish elementi – ostki qo‘zg‘atkich, bajaruvchi element esa qo‘zg‘atkichdir.

Agar o‘lchov elementi  $U_G$  kuchlanishning har qanday kichik o‘zgarishini sezsa, yani yuqori sezgirlikka ega bo‘lsa, bu QAR sezmaslik zonasasi mavjud bo‘lmagan tizim deb yuritiladi.

Agar o‘lchov elementi mexanik qurilmalarni o‘z ichiga olsa va inersionligi hisobiga  $U_G$  ning kichik o‘zgarishlarini sezmasa, u holda ushbu QAR sezmaslik zonasiga ega tizim deb yuritiladi.

Ushbu toifaga mansub qo‘zg‘atishning avtomatik rostlagichlari holat parametrlarining o‘zgarishiga muvofiq ishlaydi va shu sababli “proporsional tipdagи qo‘zg‘atishni rostlash” deb yuritiladi (5.1-rasm).



**5.1- rasm. Sinxron generator qo'zg'atishini avtomatik rostlagichning strukturaviy sxemasi**

Holatning rostlanayotgan parametrining ishorasi va kattaligini sezuvchi avtomatik qo'zg'atishli rostlagichilar (QAR-P) proporsional tipdagi rostlagichilar deyiladi.

Energetika tizimlari bilan uzun EUL orqali bog'langan zamonaliviy katta elektr stansiyalari generatorlarida ancha murakkab QAR, ya'ni (QAR-K) kuchli ta'sir etuvchi rostlagichilar qo'llaniladi. Ushbu QAR generatorming qo'zg'atish toki va kuchlanishini murakkab qonun bo'yicha rostlaydi. Ular  $U_g$  va  $I$  ning nafaqat ishorasi va kattaligi, balki ularning o'zgarish tezligini va tezlanishini ham sezadi. Fizik jihatdan bu generatorming, ortidagi EYuKni o'zgarmas deb hisoblash mumkin bo'lgan, refaol qarshiligidagi kompensatsiyalashni bildiradi.

Ushbu holatda bu o'tkinchi qarshilik ortidagi o'tkinchi EYuKdir. Hisoblarda bu hol quyidagicha yoziladi:  $E' = \text{const}$ ,  $X_d$

QAR sxemasidagi har bir element rostlagichning dinamik xossasini xarakterlovchi xususiy vaqt doimisi va kuchaytirish koefitsiyentiga ega.

O'tish holatlarida EYuKni ikkita tashkil etuvchidan iborat qilib tasvirlash mumkin:

$$\Delta E_q = \Delta E_{qsv} + \Delta E_{qe}, \quad (5.1)$$

bu yerda  $\Delta E_{qsv} = T_{dc} \cdot p \Delta E'_q$  – erkin toklar hosil qiluvchi EYuK;  $\Delta E_{qe}$  – qo'zg'atkichning qo'zg'atish chulg'amiga qo'yilgan EYuK.

Quyidagini yozish mumkin:

$$\Delta E_{qe} = E_{qo} - E_{qe} = -\Delta U_v = K_v \Delta i_{qq}, \quad (5.2)$$

bu qo'zg'atkichning qo'zg'atish chulg'amiga qo'yilgan EYuK va bu chulg'amdag'i tok  $i_{qq}$  ning o'zgarishi natijasida generatorming qo'zg'atish tokini o'zgarishini hisobga oladi.

$i_{qq}$  va EYuKning o'zgarishi quyidagi munosabatga muvofiq amalga oshadi:

$$\Delta e = R_e \Delta i_{qq} + L \cdot \frac{d(\Delta i_{qq})}{dt} = \Delta i_{qq} (R_e + L_e p), \quad (5.3)$$

bu yerda  $R_e$ ,  $L_e$  – qo‘zg‘atish chulg‘amining parametrlari (bajaruvchi element). Yuqoridaidan:

$$\Delta i_{qq} = \frac{\Delta e}{(R_e + L_e \cdot p)} := \frac{\Delta e}{R_e (1 + T_e \cdot p)}, \quad (5.4)$$

bu yerda  $T_e = \frac{L_e}{R_e}$  – qo‘zg‘atkich qo‘zg‘atish chulg‘amining ekvivalent vaqt

doimisi.

(5.3) ni (5.4) ga qo‘yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\Delta E_{qe} = \frac{k_e \cdot \Delta e}{R_e (1 + T_e \cdot p)} = \frac{k_e \cdot \Delta e}{(1 + T_e \cdot p)}, \quad (5.5)$$

bu yerda  $k_e = \frac{k_e}{R_e}$  – bajaruvchi elementning kuchaytirish koeffitsiyenti.

Kuchaytirgich, shuningdek, vaqt doimisi  $T_u$  va kuchaytirish koeffitsiyenti  $K_u$  parametrlariga ega bo‘lgan inersion elementdir. Bunga mos ravishda

$$\Delta e = \frac{K_u \cdot \Delta U_f}{1 + T_u \cdot p}. \quad (5.5)$$

Bundan keyin o‘lchash, almashtirish va o‘zgartirish elementlarini mos kuchaytirish koeffitsiyenti  $K_n$  va vaqt doimisi  $T_n$  bilan bir butun va

$$\Delta U = \frac{K_n \cdot (-\Delta U_f)}{1 + T_n \cdot p}, \quad (5.6)$$

deb qarash mumkin.

(5.6) va (5.3) ni (5.4a) ga qo‘yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\Delta E_{qe} = \frac{K_n \cdot (-\Delta U_f) \cdot K_n \cdot K_e}{(1 + T_u \cdot p) \cdot (1 + T_n \cdot p) \cdot (1 + T_e \cdot p)} = \frac{K_{qe} (-\Delta U_f)}{(1 + T_u \cdot p) \cdot (1 + T_n \cdot p) \cdot (1 + T_e \cdot p)} ;$$

$$\Delta E_{qe} = \gamma(P) \cdot \Delta U_f, \quad (5.7)$$

bu yerda  $\gamma(p) = \frac{-K_{ou}}{(1+T_u \cdot p) \cdot (1+T_n \cdot p) \cdot (1+T_e \cdot p)}$  – rostlash tizimi parametrlariga bog'liq bo'lgan funksiya.

$K_{ou} = K_u \cdot K_n \cdot K_e$  – tizimning kuchaytirish koefitsiyenti.

Barqaror holatda holat parametrlarining, rostlash tizimini ishga tushiruvchi, og'ishlari mavjud emas ( $r=0$ ). Shu sababli,

$$\Delta E_{qe} = -K_{ou} \cdot \Delta U_r; \quad \Delta U_r = U_r - U_{ro}.$$

$\Delta E_{qe} = E_{qe} - E_{qo}$  bo'lganligi sababli kuchaytirish koefitsiyentini quyidagicha topish mumkin:

$$K_{ou} = \frac{-\Delta E_{qe}}{\Delta U_r} = \frac{E_{qe} - E_{qo}}{\Delta U_r}. \quad (5.8)$$

$$E_{qe} = E_{qo} - \frac{\partial E_q}{\partial U_r} \cdot \Delta U_r \text{ bo'lganligi sababli,}$$

tizimning kuchaytirish koefitsiyenti esa

$$K_{ou} = -\frac{\partial E_q}{\partial U_r}.$$

Bunday  $K_{ou}$  ga ega bo'lgan rostlagichli tizim turg'un ishlay olishi mumkinligini tekshirish uchun rostlanuvchi tizim ishini ifodalovchi tenglamalarni turg'unlik bo'yicha tahlil qilish lozim.

$$\begin{aligned} \Delta E_q &= \Delta E_{q_{ou}} + \Delta E_{qe} = T_{qe} p \cdot \Delta E'_q + \gamma(p) \cdot \Delta U_r \\ T_j p^2 \Delta \delta &= -\Delta P; \\ \Delta P &= \frac{\partial P_{Eq}}{\partial \delta} \cdot \Delta \delta + \frac{\partial P_{Eq}}{\partial E'_q} \cdot \Delta E'_q = c_1 \cdot \Delta \delta + s_1 \cdot \Delta E'_q. \end{aligned} \quad (5.9)$$

$$\Delta P = \frac{\partial P_{Eq}}{\partial \delta} \cdot \Delta \delta + \frac{\partial P_{Eq}}{\partial E'_q} \cdot \Delta E'_q = c_2 \cdot \Delta \delta + s_2 \cdot \Delta E'_q$$

$$\Delta P = \frac{\partial P_{U_r}}{\partial \delta} \cdot \Delta \delta + \frac{\partial P_{U_r}}{\partial U'_r} \cdot \Delta U'_r = c_3 \cdot \Delta \delta + s_3 \cdot \Delta U_r,$$

$$\text{bu yerda } c_1 = \frac{\partial P_{\dot{E}_q}}{\partial \delta}; \quad b_1 = \frac{\partial P_{\dot{E}_q}}{\partial E_q}; \quad c_2 = \frac{\partial P_{\dot{E}_q}}{\partial \delta}; \quad b_2 = \frac{\partial P_{\dot{E}_q}}{\partial E_q}; \quad c_3 = \frac{\partial P_{\dot{U}_q}}{\partial \delta}; \quad b_3 = \frac{\partial P_{\dot{U}_q}}{\partial U_q} -$$

generatorning salt ishlash EYuK, o'tkinchi EYuK va kuchlanish orqali ifodalangan quvvatining hosilalari.

Bu yerda tenglamalar beshta bo'lib, noma'lumlar ham beshta:  $\Delta\delta$ ,  $\Delta E_q$ ,  $\Delta E_g$ ,  $\Delta P$ . Bunga mos holda tenglamalar tizimi yechiladi.  $T_u=0$  va  $T_n=0$  deb hisoblaymiz, ya'ni o'lchagich va rostlagichlarning inersionligini hisobga olmaymiz. Bunday holda soddalashtirilgan xarakteristik tenglama quyidagi to'rtinchi tartibli ko'rinishda bo'ladi:

$$T_e T_d T_j \cdot p^4 + T_f \cdot (T_d + T_e) \cdot p^3 + (T_j + T_d \cdot T_e \cdot c_1 + K_{ou} \cdot T_j \cdot \frac{b_1}{b_2}) p^2 + \\ + (T_d c_2 + T_e \cdot c_1) p + (c_1 + K_{ou} \cdot c_3 \cdot \frac{b_1}{b_3}) = 0 \quad (5.10)$$

yoki

$$a_0 p^4 + a_1 p^3 + a_2 p^2 + a_3 p + a_4 = 0, \quad (5.11)$$

$$\text{bu yerda } a_0 = T_e T_d T_j, \quad a_1 = T_j (T_d + T_e), \quad a_2 = T_j + T_d T_e S_2 + K_{ou} \frac{b_1}{b_3} T_j,$$

$$a_3 = T_d c_2 + T_e c_1, \quad a_4 = c_1 + K_{ou} c_3 \frac{b_1}{b_3},$$

Ushbu tenglamani Gurvis mezoni bo'yicha tadqiq qilamiz. Agar  $T_d > 0$  bo'lsa,  $a_0$  va  $a_1$  doimo musbat bo'ladi.  $S_2 > 0$  va  $K_{ou} > 0$  bo'lganda  $a_2 > 0$  shart doimo bajariladi.  $a_3 = T_d c_2 + T_e c_1 > 0$  bo'lishi uchun  $c_2 > -c_1 \cdot \frac{T_e}{T_d}$  bo'lishi zarur.  $S_1$  manfiy bo'lganda (chegaraviy holatlarda)  $S_2 > 0$  bo'ladi.

$$a_4 = c_1 + K_{ou} c_3 \frac{b_1}{b_3} > 0 \text{ shart } K_{ou \min} = \frac{(-c_1) S_2}{c_3 b_3} \text{ bo'lishini talab etadi, ya'ni qiymati}$$

qandaydir minimal ruxsat etilgan qiymatdan katta bo'lgan kuchaytirish koeffitsiyenti o'matilgan bo'lishi talab etiladi.

$U_g$  ni tutib turish uchun katta qiymatga ega bo'lgan kuchaytirish koeffitsiyenti  $K_{ou \max}$  kerak bo'ladi, biroq  $K_{ou}$  ning haddan tashqari ortib ketishi  $\Delta g$ urning kamayishiga olib keladi. Shu sababli qo'zg'atishni kuchaytirish koeffitsiyentini

$$K_{ou \min} \leq K_{ou} \leq K_{ou \max} \quad (5.12)$$

oraliqda olish lozim.

$$\text{Bu yerda } K_{ou \min} = \frac{|-c_1|}{c_3} \cdot \frac{b_3}{b_1},$$

$$K_{ou \max} = \left[ \frac{(c_2 - c_1) \cdot b_3}{(c_3 - c_2) \cdot b_1} \left( 1 + \frac{T_e^2}{T_j} \cdot \frac{(T_d' c_2 + T_s' c_1)}{(T_d' + T_s')} \right) \right] \left( 1 + \frac{T_e}{T_d'} \cdot \frac{(c_3 - c_1)}{(c_3 - c_2)} \right) \quad (5.13)$$

Agar kuchlanishning og'ishiga bog'liq holda ishlovchi QAR mavjud bo'lganda  $K_{ou} < K_{ou \min}$  bo'lsa, u holda burchakning monoton oshib borishi bilan xarakterlanuvchi turg'unlikning elektromexanik buzilishi, ya'ni turg'unlikning aperiodik buzilishi sodir bo'ladi.

$K_{ou} > K_{ou \max}$  bo'lganda ham statik turg'unlikning elektromexanik buzilishi sodir bo'lib, u tebranuvchan xarakterda bo'ladi, ya'ni tizim o'z-o'zidan chayqaladi.

Belgilash lozimki, proporsional tipdag'i QARni ishlatish tajribalari asosida bu koeffitsiyentning, generatorni har xil holatlarida kuchlanishni tutib turishning katta aniqligi va uzatiluvchi quvvat chegarasining ortishi ta'minlanadigan qiymatlari  $K_{ou} \geq 25-50$  (qo'zg'atish birligi/kuchlanish birligi) oraliqda aniqlangan.


Kuchlanishning birligi sifatida generatorming nominal kuchlanishi, qo'zg'atish birligi sifatida, salt ishlash holatida kuchlanishning nominal qiymati  $U_G$  ni ta'minlovchi, generator qo'zg'atishining stator chulg'amiga keltirilgan qiymati qabul qilinadi.

Elektr tizimlarining holatlarini, xususan, og'ir holatlarini, tadqiq qilishda proporsional tipdag'i QARning mavjudligi, soddalashtirish maqsadida, o'tkinchi qarshilik ortidagi o'zgarmas o'tkinchi EyUK orqali tasvirlanadi. Bunday QARning mavjudligi generatorming ichki qarshiligini qisrnan kompensatsiyalashga ekvivalent bo'lib, u sinxron generatorming burchak xarakteristikasi maksimumini ortishida ifodalanadi.

Shunday qilib, proporsional tipdag'i QARga ega bo'lgan generatorming turg'un ishlashi uchun holat parametrlarining og'ishi bo'yicha rostlash kanallaridagi kuchaytirish koeffitsiyentlari  $K_{op \ min} < K_{op} < K_{op \ max}$  shart bo'yicha tanlanishi lozim.

Bu shartning buzilishi turg'unlikning aperiodik ( $K_{op} < K_{op \ min}$ ) yoki tebranma ( $K_{op} > K_{op \ max}$ ) buzilishiga olib keladi.

## 5.2. Kuchli ta'sir etuvchi qo'zg'atishli avtomatik rostlagich QAR-K ( $U_G = o'zgarmas$ )



**5.2- rasm. Kuchli ta'sir etuvchi qo'zg'atishni avtomatik rostlagichning strukturaviy sxemasi QAR-K**

Holat parametrlarining nafaqat og'ishi, balki ularning o'zgarish tezligi, ya'ni ularning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalari bo'yicha ishlovchi qo'zg'atishning avtomatik rostlagichlari kuchli ta'sir etuvchi qo'zg'atishni avtomatik rostlagichlar deb yuritiladi (QAR-K) (5.2-rasm). Bunday QARni "kuchli" deb yuritilishiga sabab shundan iboratki, ular berilgan holat parametrini, masalan, generator kuchlanishini, generatorning ichki qarshiligini to'liq kompensatsiyalab, o'zgarmas tutib tura oladi. Shu sababli hisoblashlarda QAR-K generator kuchlanishining o'zgarmasligi bilan tasvirlanadi.

QAR-K elektr tizimining statik turg'unligini katta miqdorga yaxshilash imkonini beradi. QAR-P va QAR-K larning strukturaviy sxemalarini solishtirib, kuchli ta'sir etuvchi rostlagichlarda holat parametrlarining ( $\Delta U$ ,  $\Delta I$ ,  $\Delta f$ ,  $\Delta U''$ ,  $\Delta I''$ ,  $\Delta f''$ ) birinchi (DE) va ikkinchi (I DE) hosilalariga mos signallar ishlab chiqaruvchi qo'shimcha kanallar mavjudligini ko'ramiz.

Albatta, yangi kanallarning paydo bo'lishi va QAR tizimining qo'shimcha elementlarini hisobga olish tenglamalar tuzishdagi mehnat hajmini, ularning tartibini oshiradi va, eng asosiysi, ularni analitik tadqiq qilish, hattoki bitta sinxron generator mavjud bo'lganda ham imkonini yo'qotadi.

Masalan, generator kuchlanishi va tokining og'ishi ( $\Delta U$ ,  $\Delta I$ ), ularning birinchi va ikkinchi tartibli hosilalari bo'yicha ishlovchi QAR-K, rostlagichning differensiallovchi va ikki marta differensiallovchi vaqt doimiylari teng bo'lgan taqdirda  $T_1=T_2=T_p$ , yettinchi darajali xarakteristik tenglamaga ega bo'ladi. Agar o'lchash va kuchaytirish elementlarining inersionligini hisobga olmasak,  $T_n=T_u=0$ , u holda xarakteristik tenglama beshinchli darajali bo'ladi:

$$\alpha_0 p^5 + \alpha_1 p^4 + \alpha_2 p^3 + \alpha_3 p^2 + \alpha_4 p + \alpha_5 = 0, \quad (5.14)$$

bu yerda

$$a_0 = T_j T_d T_e T_p ;$$

$$a_1 = T_j (T_d T_e + T_d T_p + T_e T_p) + k_{2i} h_1 ;$$

$$a_2 = T_j (T_d + T_e + T_p) + T_d T_e T_p c_2 k_{1i} h_1 ;$$

$$a_3 = T_j + T_e T_p c_1 + T_d (T_e + T_p) c_2 + k_{ou} T_j \frac{b_1}{b_3} + k_{oi} h_1 + k_{2i} h_2 ;$$

$$a_4 = (T_e + T_p) c_1 + T_d c_2 + k_{1i} h_2 ;$$

$$a_5 = c_1 + k_{ou} c_3 + k_{oi} h_2 ;$$

$$h_1 = -T_j \frac{(E_q - U \cdot \cos \delta)}{I \cdot X_{\alpha}}$$

$$h_2 = b_1 \frac{U}{X_{\alpha}} (I_q \cdot \cos \delta + I_q \cdot \sin \delta)$$


$$I_d = \frac{E_q - U \cos \delta}{X_{\alpha}} ; \quad I_q = \frac{U}{X_{\alpha}} \cdot \sin \delta$$

( $I$ ,  $I_d$ ,  $I_q$ ) koefitsiyentlarga kiruvchi holat parametrlari sinxron generatorning vektor diagrammasidan aniqlanadi. Bu yerda  $k_{oi}$  – generator statori tokining og'ish kanali bo'yicha kuchaytirish koefitsiyenti [ $qo'zg'$ . birl./nom.tok birl.],  $k_{1i}$  – stator tokining birinchi hosilasi kanali bo'yicha kuchaytirish koefitsiyenti [ $qo'zg'$ . birl./nom.tok birl./sek.],  $k_{2i}$  – stator tokining ikkinchi hosilasi kanali bo'yicha kuchaytirish koefitsiyenti [ $qo'zg'$ . birl./nom.tok birl./sek<sup>2</sup>]. Belgilab qo'yish lozimki, QAR-K da kuchlanish og'ishi bo'yicha kuchaytiruvchi koefitsiyentlar qiymati  $k_{ou} = (100-200)$  [ $qo'zg'$ . birl./kuchlanish birl.] oralig'ida joylashgan.

Ko'rinib turibdiki, xarakteristik tenglamaning koefitsiyentlari holat, tizim parametrlari va QAR kanallari bo'yicha kuchaytirish koefitsiyentlariga bog'liq.

Keltirilgan munosabatlardan ko'rindiki, qabul qilingan soddalashtirishlarda xarakteristik tenglama koefitsiyentlari, hatto bitta generator mavjud bo'lganda, murakkablashadi va natijada ulami analitik tadqiq qilish mumkin bo'lmay qoladi.

Shu sababli, xususan, qo'zg'atish tokini bir nechta holat parametrlari bo'yicha rostlash vaziyatlarida QARning optimal kuchaytirish koefitsiyentlarini aniqlashda sonli usullar qo'llaniladi.



**5.3-rasm. QAR turilcha bo'lganda burchak xarakteristikalari va sinxronlovchi quvvatlarni solishtirish**

Mexanik elementlarda teskari ta'sirning mavjudligi va inersionlik ta'sirida paydo bo'luvchi sezmaslik sohasini hisobga olish, tenglamalarni tuzish va tahlil qilishni yanada murakkablashtiradi. Biroq bu faktorlar generatorming turg'un ishlash shartlariga kuchli ta'sir etishi mumkin. Ularni noto'g'ri hisobga olish QAR ning noto'g'ri ishlashi natijasida sinxron generator turg'unligining buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.


QAR-K ning mayjud bo'lishi burchak xarakteristikasining maksimumini oshiradi, chunki u  $U_g = \text{const}$  va  $X_g = 0$  sharti bilan ifodalanadi (5.3- rasm)

### 5.3. Qo'zg'atishni avtomatik rostlash tavsiflari

Quvvat koefitsiyenti o'zgarmas ( $\cos\varphi = \text{const}$ ) bo'lganda rostlagich yordamida hosil qilingan  $U_g$  generator kuchlanishini uning reaktiv quvvati  $U_g = f(Q_g)$  yoki tokiga  $U_g = f(I_g)$  bog'lanishi **qo'zg'atishni avtomatik rostlash tavsifi** deb ataladi.

Agar generator kuchlanishi uning reaktiv quvvatiga bog'liq bo'lmasdan o'zgarmas ( $U_g = \text{const}$ ) qolaversa, unda bunday QAR tavsifi **astatik** deb ataladi (5.1-rasm).

Agar generator kuchlanishi  $U_g$  uning reaktiv  $Q$  quvvatiga mos ravishda o'zgarsa, unda bunday QAR tavsifi **statik** deb ataladi. Bu tavsifning gorizontal o'qqa nisbatan




**5.4-rasm. QAR tavsiflari**

og'ish burchagini tangensi tgu **statizm koeffitsiyenti**  $K_s$  deb ataladi.


Quyidagi 5.5-rasmda ko'rsatilgan umumi shinada ishlayotgan generatorlar uchun ularning QAR larini astatik tavsif bo'yicha o'matib bo'lmaydi.

Buning sababi shundaki, generatorlararo reaktiv quvvatlarning ixtiyoriy taqsimlanishida kuchlanish o'zgarmas qolaveradi, ya'ni taqsimlanish barqaror bo'lamaydi.



**5.5-rasm. Generatorlarning umumiy generator kuchlanish shinasida ishlash sxemasi**

Rostlagichlarni statik tavsiflar bo'yicha sozlaganda,  $U_{g1}=U_{g2}=U_g$  kuchlanishlar tengligidan  $\Delta U=Q_1\tg\alpha_1=Q_2\tg\alpha_2$  yoki  $Q_1/Q_2=K_{s2}/K_{s1}$  tengligi kelib chiqadi, ya'ni generatorlararo reaktiv quvvat taqsimlanishi rostlagichlarning statizm koeffitsiyentlariga teskari proporsional bo'ladi (5.6-rasm).



**5.6-rasm. Qo'zg'atishni rostlash tavsiflari**

Agar birorta turki sababli bu quvvatlar taqsimlanishi o'zgarib ketsa, masalan, birinchi generatorda  $\Delta Q$  ga kamayib, ikkinchi generatorda  $\Delta Q$  ga ko'paysa, unda  $U_{g1}$  kuchlanishi  $U_{g2}$  kuchlanishidan kattaroq bo'lib qoladi.

Kuchlanishlar farqi oqibatida tenglashtiruvchi tok paydo bo'ladi. Kattaroq kuchlanishli generator kichikroq kuchlanishli generatordan reaktiv quvvatni tortib olishi hisobiga reaktiv quvvatini oshirib boradi.


Bu holat ikkala generatorlar kuchlanishlari teng bo'lmasunga qadar, ya'ni reaktiv quvvatlar taqsimlanishi dastlabki holatga qaytmaguncha davom etadi.

#### **5.4. Qo'zg'atishni avtomatik rostlash qurilmalari**

Sinxron mashinalar QAR qurilmalarining orasidagi eng soddasi **releli qo'zg'atishni jadallashtirish** (5.7-rasm) qurilmasidir.

Kuchlanish (0,7-0,85)  $U_{nom}$ -gacha pasayganda, generator chiqishidagi TV kuchlanish transformatoridan ta'minot oluvchi KV $<$  minimal kuchlanish relesi ishga tushadi (kontaktlarini qo'shadi). KL oraliq relesi ta'minot olib, qo'zg'atgichning qo'zg'atish zanjirida joylashgan  $R_{sh}$  shunt reostatini o'z kontaktlari bilan shuntlab qo'yadi.

Bu esa qo'zg'atgichning qo'zg'atish tokini, uning yakoridagi kuchlanishni, generatorming rotor tokini va stator EYuK ini maksimal, chegaraviy qiymatgacha ko'tarilishiga olib keladi. Buning oqibatida parallel ishslashning dinamik turg'unligi, qisqa tutashuv toklarining darajasi va releli himoyaning sezgirligi oshadi.



**5.7-rasm. Releli qo'zg'atishni jadallashtiruvchi QAR qurilmasining sxemasi**

Kuchlanish qaysi darajada pasayishiga qaramasdan, qo'zg'atishni jadallashtirish qurilmasi generator qo'zg'atishini chegaraviy qiymatgacha ko'taradi va shu sababdan kuchlanishni o'zgarmas qiymatda ushlab bera olmaydi.

Qo'zg'atishni avtomatik rostlash qurilmalari ta'minotni alohida kuchlanish transformatoridan olishadi. Saqlagichlar kuyib qolishi oqibatida qo'zg'atishni avtomatik rostlash qurilmalari noto'g'ri ishlab ketmasligi uchun kuchlanish transformatorining ikkilamchi zanjirida saqlagichlar (yoki avtomatlar) ishlatilmaydi.


Kichik quvvatli mashinalar qo'zg'atishining o'zgarishi zamonaviy katta quvvatga ega energetika tizimining asosiy tugunlaridagi kuchlanishlarga deyarli ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu sababdan elektr qurilmalari tuzilishi qoidalari (ETQ)ga muvofiq 2,5 MVt gacha bo'lган sinxron mashinalarda qo'zg'atishni jadallashtirish qurilmasini o'matish bilan kifoya qilinadi.

Bilvosita sovutish tizimli va elektr mashinaviy qo'zg'atish tizimiga ega turbogeneratorlarda **kompaundlash qurilmasi** ishlataladi. Uning vazifasi stator toki o'zgarishiga proporsional ravishda generatorming qo'zg'atish tokini rostlash hisobiga stator kuchlanishini o'zgarmas ushlab turishdan iboratdir.

Yuklama toki oshgan sari yakor reaksiyasi ham oshib boradi va bu generator chiqishidagi kuchlanishning pasayishiga olib keladi:

$$U_g = E_q - j J_d x_d \quad (5.15)$$

Bu qurilmaning ishslash prinsipi shundan iboratki, stator toki oshganda kompaundlash qurilmasini ta'minlovchi TA tok transformatorlarining ikkilamchi toki ham oshib boradi (5.8-rasm).



5.8-rasm. Kompaundlash qurilmasining sxemasi

Generatorning salt ishlash rejimida uning nominal kuchlanishiga mos qo'zg'atish toki  $R_{sh}$  reostati yordamida o'matiladi. Generator yuklanganda TA tok transformatorining ikkilamchi toki TL ajratish transformatori orqali transformatsiya bo'lib, VS to'g'rilagichida to'g'rilanib, qo'zg'atgichning qo'zg'atish chulg'amiga tushadi va unda qo'zg'atgich yakorining toki bilan qo'shiladi (to'g'rilangan tok **kompaundlash toki** deb ataladi).

Buning oqibatida generatorning qo'zg'atish toki va EYuK oshadi. EYuK oshishi stator reaksiyasini kompensatsiya qiladi. TL ajratish transformatorining transformatsiya koefitsiyentini tanlash hisobiga shunday kompaundlash toki o'matilinadiki, u nominal yuklangan generatorda nominal kuchlanishni ta'minlab berishi kerak.

O'matish reostati  $R_o'$  yordamida kompaundlash qurilmasi ta'minlab beradigan kuchlanish darajasi rostlanadi.

Bu reostat qarshiligi qanchalik katta bo'lsa, TA tok transformatoridan unga shoxobchalanadigan tok mos ravishda kichik bo'lib, kompaundlash toki bilan kuchlanish katta bo'ladi.


#### Kompaundlash qurilmasining afzalliklari:

- ulovchi va ajratuvchi kontaktlar hamda harakatlanuvchi qismlar mayjud emas;
- sxemaning soddaligi.

#### Kamchiliklari:

- katta qiymatli qisqa tutashuvlarda tok trasformatorlarining to'yinishi hisobiga qo'zg'atishni jadallashtirib bo'lmasisligi;
- generator tashqi tavsifming ( $U_g=f(J_g)$ ) boshlang'ich qismida kuchlanish pasayib ketishi;
- yuklamaning quvvat koefitsiyenti  $\cos\varphi$  o'zgarishiga ta'sirlanmasligi.

Birinchi kamchilik releli qo'zg'atishni jadallashtirish qurilmasi yordamida hal qilinadi.



### 5.9. Kompaundlash tokining tavsifi

Tashqi tavsifning boshlang'ich qismida kuchlanish pasayishining sababi shundan iboratki, kichik yuklama toklarida TA tok transformatorlarining ikkilamchi EYuKi kichik bo'ladi. Buning oqibatida VS to'g'rilaqichning chiqishidagi to'g'rilaqan kuchlanish qo'zg'atigichning qo'zg'atish chulg'amidagi  $U_{v.v.x.x}$  kuchlanishidan kichik bo'lib, kompaundlash toki paydo bo'lmaydi. Generatorning kuchlanishi tabiiy tashqi tavsif bo'yicha o'zgaradi (5.9-rasm).

Yuklama tokining qandaydir bir qiymatida to'g'rilaqan kuchlanish  $U_{v.v.x.x}$  dan kattaroq bo'la boshlaydi va qo'shimcha tok (kompaundlash toki) paydo bo'ladi, generator kuchlanishi tiklanadi. Kompaundlash toki paydo bo'lishiga mos generatorning  $I_1$  yuklama toki **kompaundlash chegarasi** deb ataladi.


Kompaundlash toki yuklama tokining absolyut qiymatiga bog'liq bo'lib,  $\cos\varphi$  quvvat koefitsiyentiga bog'liq emasdir. Bundan farqli ravishda generator kuchlanishi yuklama toki bilan uning orasidagi  $\varphi$  burchagiga bog'liqdir. Bu holat generator kuchlanishini kompaundlash qurilmasi yordamida rostlaganda, yuklananining turli quvvat koefitsiyentlari  $\cos\varphi$  uchun olingan tavsiflardan ko'riniq turibdi.

Generatorlar salt ishlashga yaqin kichik quvvat bilan ishlamasligi sababli, tavsifning boshlang'ich qismidagi kuchlanish pasayishlari amaliy ahamiyatga ega emasdir. Lekin yuklananining  $\cos\varphi$  si o'zgarishidan ta'sir olmasligi, kompaundlash qurilmasini katta nuqsoni hisoblanadi. Shuning uchun, avval aytilganidek, kompaundlash qurilmasi **elektromagnit korrektor** bilan qo'shimcha jihozlanadi (korrektor kompaundlashsiz ishlatilmaydi).

Korrektoring asosiy qismi AL magnit kuchaytirgichdir. Uning ishlash prinsipi magnit o'zak to'yigan sari o'zakning induktiv qarshiligi kamayishiga asoslangan (5.7-rasm).

Korrektorning ishlash prinsipi quyidagidan iborat: AL magnit kuchaytirgichining  $B_1$  boshqarish chulg'amiga to'yinmagan D drosselidan to'g'rilangan tok tushadi,  $B_2$  boshqarish chulg'amiga esa – to'yinuvchan  $TL_N$  transformatorining to'g'rilangan toki tushadi.  $B_1$  va  $B_2$  chulg'amlarning o'ramlar soni va qarshiliklari bir xildir, ulanishi esa qarama-qarshi.

TV kuchlanish transformatorining ikkilamchi chulg'amiga  $T_U$  o'mratuvchi avtotransformatori ulagan. U orqali generatorning kuchlanishiga proporsional bo'lgan kuchlanish D drosseliga va  $TL_N$  transformatoriga beriladi.



**5.10-rasm. Elektromagnit korrektor bilan jihozlangan kompaundlash qurilmasining sxemasi**

Drossel D to'yinmas bo'lganligi uchun uning qarshiligi o'zgarmasdir. Shuning uchun  $B_1$  boshqarish chulg'amidiagi  $J_{B1}$  toki generator kuchlanishiga proporsionaldir.

$TL_N$  transformatori to'yinuvchan bo'lganligi sababli,  $B_2$  boshqarish chulg'amidiagi  $J_{B2}$  toki generator  $U_g$  kuchlanishiga nochiziqli bog'liqdir.

Drossel D to'yinmas bo'lganligi uchun uning qarshiligi o'zgarmasdir. Shuning uchun  $B_1$  boshqarish chulg'amidiagi  $J_{B1}$  toki generator kuchlanishiga proporsionaldir.

$TL_N$  transformatori to'yinuvchan bo'lganligi sababli,  $B_2$  boshqarish chulg'amidiagi  $J_{B2}$  toki generator  $U_g$  kuchlanishiga nochiziqli bog'liqdir.

Drossel va to'yinuvchan transformator parametrlari shunday tanlanganki, generatorning  $U_{gnom}$  nominal kuchlanishida  $B_1$  va  $B_2$  boshqarish chulg'amlaridagi toklar biri-biriga tengdir:  $J_{B1}=J_{B2}$ .

Ular qarama-qarshi yo'nalganligi uchun ularning umumiy MYuKi nolga tengdir va AL magnit kuchaytirgichning o'zagi qo'shimcha magnitlanmaydi. Shunda ishchi R chulg'aming induktiv qarshiligi maksimal qiymatga ega.

Qo'shimcha qo'zg'atish chulg'ami QQChga tushuvchi ishchi chulg'amining to'g'rilangan toki minimal qiymatga ega.

Qo'shimcha va asosiy qo'zg'atish chulg'amlarining umumiy MYuKi ham minimal qiymatga egadir.

Agar generator kuchlanishi nominaldan kichik bo'lsa, masalan, yuklamaning  $\cos\varphi$  koefitsiyenti kamayganda,  $J_{B1}$  toki  $J_{B2}$  tokidan katta bo'lib qoladi.

AL kuchaytirgichning o'zagi qo'shimcha magnitlanadi. Uning ishchi chulg'amining qarshiligi kamayadi.

MYuK va unga mos ravishda generatorning qo'zg'atish toki oshadi va uning kuchlanishi dastlabki  $U_{g,nom}$  qiymatigacha ko'tariladi.

Shunda  $J_{B1}$  va  $J_{B2}$  toklari yana tenglashadi.

Ishchi chulg'amining qarshiligi qayta ko'paymasligi uchun, unga bog'liq ravishda qo'zg'atishning MYuK si va generatorning  $U_g$  kuchlanishi kamaymasligi uchun kuchaytirgich o'zagini qo'shimcha magnitlab turishni saqlab qolish kerak.

Buni ta'minlab berish uchun qo'shimcha qo'zg'atish chulg'ami QQCh bilan ketma-ket kuchaytirgichning musbat teskari bog'lanish  $TB^+$  chulg'ami ulangan.

Shu tufayli, QQChdagi tok oshgan sari  $TB^+$  chulg'amining MYuK si ko'payadi va AL kuchaytirgichning qo'shimcha magnitlanishi saqlanib qoladi.

Qo'zg'atgichning yakori, generatorning rotori va statori induktivliklari hisobiga generator kuchlanishi QQChdagi tok o'zgarishidan kechikib o'zgaradi. Buning hisobiga rostlashning o'tkinchi jarayonida QQChdagi tok generatorning dastlabki kuchlanishiga mos qiymatgacha ko'tarilsa ham, kuchlanish tiklanishga ulgurmasligi mumkin.

Shu tufayli QQChdagi tok ko'tarilishi davom etardi va bir qancha vaqt o'tgandan so'ng generator kuchlanishi talab etilgandan yuqori bo'lib ketar edi, ya'ni o'ta rostlash deb ataluvchi hodisa paydo bo'lar edi. Buning oldini olish uchun AL kuchaytirgichda manfiy teskari bog'lanish  $TB^-$  chulg'ami ishlatalidi. U qo'zg'atgichning yakoriga ulangan teskari bog'lanish  $T_{sv}$  transformatoridan ta'minot oladi.

Barqarorlashgan rejimda o'zgarmas tok transformatsiya bo'lmasligi tufayli OOs chulg'amida tok bo'lmaydi. QQCh chulg'amida tok oshayotgan rejimda esa qo'zg'atgich kuchlanishi ham vaqt davomiyligida oshib boradi va bog'lanish  $T_{sv}$  transformatori orqali transformatsiya bo'ladi –  $TB^-$  chulg'amiga tok tushadi.

Bu tok  $TB^-$  chulg'amida MYuK hosil qiladi va u AL kuchaytirgichining to'yimishini sekinlashtiradi. Buning oqibatida QQChdagi tok oshishi sekinlashadi va o'ta rostlash hodisasiga yo'l qo'yilmaydi.


Ko'rib chiqilgan elektr magnit korrektorli kompaundlash sxemasida generatorning qo'zg'atish tokini rostlash stator toki o'zgarishinining moduliga proporsional ravishda bajariladi va shu tufayli bu sxema **tokli kompaundlash** sxemasi deb ataladi.

Nisbatan katta quvvatga ega generatorlarda **fazaviy kompaundlash** sxemasi qo'llanadi. U tok qiymati o'zgarishidan tashqari quvvat koefitsiyentining o'zgarishidan ham ta'sirlanadi.

Bir qator issiqlik elektr stansiyalarida yuqori chastotali qo'zg'atish tizimiga ega generatorlar ishlataladi. Tiristorli qo'zg'atish tizimi qo'zg'atgichlar ulardan zamonaviy roq va samaraliroq deb hisoblanadi. Bu QAR qurilmalari yuqorida ko'rilgandan ancha murakkabdir.

Tiristorli qo'zg'atish tizimlari yangidan ishga qo'yilayotgan quvvati 2,5 – 800 MVtga ega turbogeneratorlarga o'mnatish uchun hamda eskirgan elektr mashinaviy qo'zg'atish tizimlarini almashtirish uchun ishlataladi.

Konstruktiv nuqtayi nazardan bu qo'zg'atgichlar ikki tomonlama xizmat qilishga ruxsat beradigan shkaflar ko'rinishida yasaladi. Shkaflar soni qo'zg'atgichning quvvatiga bog'liqdir. Boshqarish tizimi hamda qo'zg'atishni avtomatik rostlash qurilmasida dasturlashtirilgan mikroprotessorlar ishlataladi.




**5.11-rasm. Tiristorli qo'zg'atish tizimli qo'zg'atgichlarning sxemasi**

Elektr qurilmalarning tuzilish qoidalariga asosan 100 MVt va undan ortiq quvvatli generatorlarda zamonaviy va yuqoriroq samaraga ega **tiristorli qo'zg'atish tizimlari** va **kuchli ta'sirli QARlar** ishlatalishi tavsiya etiladi.

Bunday QARlar yuqorida ko'rib chiqilganlardan ancha murakkabdir.

**Kuchli ta'sirli QAR (KTQAR)** ishslash prinsipi bilan tanishib chiqamiz.

Quyidagi 5.12-rasmda elektr energiyasini elektr stansiyadan energetika tizimiga uzatish sxemasi ko'rsatilgan.



**5.12-rasm. Elektr tizimining sxemasi**

Yuqori kuchlanishli liniya bo'yicha uzatilinayotgan quvvat quyidagicha topiladi:

$$P = \frac{E_q U_c}{X_\Sigma} \cdot \sin\delta, \quad (5.16)$$

bu yerda

$E_q$  – generatorning EYuKi;

$U_s$  – tizim kuchlanishi;

$\delta$  – ularning vektorlari orasidagi burchak;

$X_\Sigma$  – quvvat beriluvchi bog‘lanishning umumiy qarshiligi.

Ko‘rilayotgan sxema uchun

$$X_\Sigma = X_d + X_t + X_l + X_s, \quad (5.17)$$

bu yerda

$X_d$  – generator qarshiligi;

$X_t$  – transformator qarshiligi;

$X_l$  – liniya qarshiligi;

$X_s$  – tizim qarshiligi.

Cheksiz quvvatli tizimning kuchlanishi o‘zgarmasdir ( $U_s=const$ ), qarshiligi esa  $X_s=0$ . Agar QAR yordamida elektr stansiya shinalarida vaqt davomiyligida o‘zgarmas kuchlanish ushlab turilganda ( $U_{st}=f(P,t) = const$ ), unda  $X_d + X_t = 0$  bo‘lar edi. Bu holatda  $X_\Sigma = X_l$  bo‘lar edi va buning hisobiga uzatilayotgan quvvatning chegaraviy qiymati keskin oshar edi:

$$P = \frac{E_q \cdot U_c}{X_s}. \quad (5.18)$$

Bu o‘ta yuqori kuchlanishli uzoq masofali liniyalar uchun juda ham muhimdir. Ularni qurish uchun katta mablag‘ surʼ qilinadi va shu sababli ularni samarasiz ishlatish iqtisodiy nuqtayi nazardan nomaqbuldir.

Avval ko‘rib chiqilgan **proporsional ta’sir etuvchi QAR** qurilmalari kuchlanishni dastlabki qiymatigacha tiklashni kuchlanish qo‘ishi paydo bo‘lganidan so‘ng boshlaydi, ya’ni ular kuchlanishni o‘zgarmas holda ushlab turishni bajara berolmaydi.

Elektr stansiya shinalarida deyarli o‘zgarmas kuchlanishni saqlab turish KTQAR yordamida bajariladi.


Qo‘zg‘atishni rostlashning kuchli ta’sirli turi proporsional turidan shu bilan farq qiladi, unda kuchlanish va tokka proporsional bo‘lgan rostlash ta’sirlaridan tashqari ularning hosilasiga proporsional ta’sirlari ham mavjuddir:

$$U_f = K_0 + K_1 \Delta U_g + K_2 \frac{dU_g}{dt} + K_3 \Delta J_g + K_4 \frac{dJ_g}{dt}. \quad (5.19)$$

Shu tufayli kuchli ta’sirli qo‘zg‘atish rostlagichlari yuklama o‘zgarishi zahoti ishga tushib boshlaydi va o‘zgarish qanchalik tez kechsa, ularning ish samarasini shunchalik yuqoriq bo‘ladi. Bu esa kuchlanishni o‘zgarmas ushab turishga yordam beradi.

KTQAR vazifasi – katta quvvat uzatilayotganda kuchlanishni o‘zgarmas holatda ushlab turish va parallel ishlash turg‘unligini ta’mirlab berishdir.

Quyidagi rasmida **mustaqil tiristor qo‘zg‘atish tizimli sinxron generatorening KTQAR qurilmasining bir fazali ko‘rinishdagi sxemasi** keltirilgan.



**5.13-rasm. Mustaqil tiristor qo‘zg‘atish tizimli sinxron generatorening KTQAR sxemasi**

AL magnit kuchaytirgichi 5-ta boshqarish  $B_1-B_5$  va bitta jadallashtirish F chulg‘amlariga ega.

O‘matuvchi  $T_u$  avtotransformatorning to‘g‘rilangan ikkilamchi kuchlanishi generator kuchlanishi  $U_g$  ga proporsionaldir. Bu kuchlanish stabillashtirilgan etalon

U<sub>ET</sub> kuchlanishi bilan solishtiriladi va ularning ayirmasi U<sub>1</sub> boshqarish chulg‘amiga beriladi. U<sub>1</sub> chulg‘ami bo‘yicha K<sub>1</sub>ΔU<sub>g</sub> ga teng tok oqadi.

U<sub>1</sub> chulg‘amiga parallel d/dt differensial (hosila olish) bog‘lamasi ulangan bo‘lib, uning chiqishiga U<sub>2</sub> boshqarish chulg‘ami ulangan. U orqali K<sub>2</sub>dU<sub>g</sub>/dt toki oqadi.

TA tok transformatorining to‘g‘rilangan ikkilamchi toki U<sub>3</sub> boshqarish chulg‘amiga beriladi. Uning qiymati K<sub>3</sub>J<sub>g</sub> ga tengdir.

U<sub>3</sub> chulg‘ami bilan ketma-ket yana bir differensial d/dt bog‘lamasi ulangan. Uning chiqishidagi K<sub>4</sub> dJ<sub>g</sub>/dt ga teng tok U<sub>4</sub> boshqarish chulg‘ami bo‘yicha oqib o‘tib, uchinchi differensial bog‘lamasining kirishiga beriladi. Bu bog‘lamaning K<sub>5</sub>d<sup>2</sup>J<sub>g</sub>/dt<sup>2</sup> ga teng chiqish toki U<sub>5</sub> boshqarish chulg‘ami bo‘yicha oqadi.

Barcha boshqarish chulg‘amlarining MYUKlari qo‘shilib, ularning yig‘indisi kuchlanish U<sub>g</sub> va tok J<sub>g</sub> larning o‘zgarish qiymatiga va o‘zgarish tezligiga proporsional ravishda o‘sadi. Bunga mos ravishda AL kuchaytirgichining o‘zagi to‘yinadi, ishchi R chulg‘amining qarshiligi kamayadi va u orqali oquvchi tok qiymati oshadi.

AL kuchaytirgichning gabaritlarini kamaytirish maqsadida ishchi R chulg‘amining ta’minoti 450 Gs yuqori chastotali kuchlanish orqali bajariladi.

Kuchlanish qattiq (0,85 U<sub>nom</sub>dan past) darajada kamayib ketganda, KV<sub>f</sub> jadallashtirish relesi ishga tushib ketadi va uning KV<sub>f1</sub> kontakti orqali kuchaytirgichning F jadallashtirish boshqarish chulg‘amiga tok beriladi. Uning MYUKsi AL kuchatirgichning o‘zagini qattiq darajada to‘yinishiga olib keladi va shu tufayli generatorning jadallashtirilishi bajariladi.

Kuchlanish TV va tok TA transformatorlari, o‘rnatuvchi T<sub>u</sub> transformatori va R<sub>u</sub> qarshiligi, musbat TB<sup>+</sup> va manfiy TB<sup>-</sup> teskari bog‘lanishlar vazifasi avval ko‘rib chiqilgan proporsional tipdag‘i qo‘zg‘atish rostlagichi kabidir.

Har bir rostlash kanalining kuchaytirish koeffitsiyentlarini tanlash murakkab masaladir. Uning yechimi sinxron generator ishlayotgan energotizimning parametrлари va tavsiflariga bog‘liq bo‘lib, energotizimning o‘rnashgan va o‘tkinchi rejimlarini o‘rib chiqishni talab qiladi.

Bunda quyidagilar aniqlanadi:

- generatordan turli ish rejimlarida kuchlanishning belgilangan aniqligini ta’minlab beruvchi, ΔU<sub>g</sub> kuchlanish og‘ishiga mos rostlash kanalining parametrлари;
- dastlabki o‘rnashgan rejimdan kichik qiymatdagi og‘ishlardagi o‘tkinchi jarayonlarning sifatini va statik turg‘unligini ta’minlab beruvchi stabillashtirish kanallarining parametrлари (dU<sub>g</sub>/dt, Δf, J<sub>g</sub>, d<sup>2</sup>J<sub>g</sub>/dt<sup>2</sup> va sh.k.)
- energotizimning dinamik turg‘unligini yaxshilovchi jadallashtirish qurilmasining parametrлари.

## Nazorat savollari:

1. QARning vazifani?
2. QAR mayjud bo'lganda sinxron generatorlari parallel ishlashining turg'unligi nega oshadi?
3. QAR qisqa tutashuv toklari va himoyalari sezgirligiga qanday ta'sir qiladi?
4. QARning astatik xarakteristikasi (tavsifi) amalda nega kam qo'llanadi?
5. QAR uskunasida statizm koeffitsiyenti nimani ko'rsatadi va uning fizikaviy ma'nosi nimada?
6. Parallel ishlayotgan har xil statizmga ega generatorlar orasida reaktiv quvvat qanday taqsimlanadi?
7. Statik turg'unlik buzilishini bartaraf etish uchun qanday avariyaning oldini olish tadbirlari ishlatilinadi?
8. Qo'zg'atishni jadallashtirish (forsirovka) sxemasining ishlash prinsipi.
9. Qo'zg'atishni jadallashtirish (forsirovka) – ishlatish jarayoni, afzallikkleri va kamchiliklari.
10. Generatorlarning kompaundlash uskunasi nima uchun kerak?
11. Generatorning kompaundlash uskunasi – ishlatish jarayoni, afzallikkleri va kamchiliklari.
12. Generatorlardagi kompaundlash qurilmasining ishlash prinsipi.
13. Kompaundlash pog'onasi deb nimaga aytildi va u nega paydo bo'ladi?
14. Generator kuchlanishining yuklamaning cosø siga qanday bog'liqligi bor?
15. Kuchlanishning elektromagnit korrektorining vazifasi nimadan iborat?
16. Kuchlanish elektromagnitli korrektorining ishlash prinsipi.
17. Yuklama toki o'zgarganda kuchlanish o'zgarmasligini elektromagnit korrektor qanday bajarib beradi?
18. Elektromagnitli korrektsiz ishlatilayotgan tokli kompaundlash uskunasi generator chiqarmalarida kuchlanish o'zgarmasligini ta'minlab berolmasligining sababi nimada?
19. Elektromagnitli korrektor sxemasida musbat teskari bog'lanish nima uchun kerak?
20. Elektromagnitli korrektor sxemasida manfiy teskari bog'lanish nima uchun kerak?
21. QAR sxemasida kuchlanishni ortiqcha rostlab yuborish qanday bartaraf etiladi?
22. Tokli kompaundlash sxemasi fazaviy kompaundlash sxemasidan nima bilan farqlanadi?
23. QARning qanday turlari mayjud? Ularning ishlatish borasi.
24. Kuchli ta'sirli QARning boshqa rostlash sistemalaridan farqi nimada?
25. Kuchli ta'sirli QARning ishlash prinsipi (energosistemaning normal rejimlarida).
26. Kuchli ta'sirli QAR energosistemada qisqa tutashuv bo'lganda qanday ishlaydi?

**VI BOB.**  
**CHASTOTA VA AKTIV QUVVATNI AVTOMATIK ROSTLASH**  
**(ChQAR)**

Turli xildagi elektr mexanizmlarining ish samarasi chastotaga turlicha bog'liqdir. Umumiy holda bu mexanizmlar iste'mol qilayotgan quvvatning chastotaga bog'liqligi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$P = kf^n, \quad (6.1)$$

bu yerda  $k$  – proporsionallik koeffitsiyenti;  $f$  – chastota;  $n$  – darajaning ko'rsatkichi.

Turli iste'molchilar uchun " $n$ " har xil qiymatlarga, shu jumladan, kasr sonlarga ham teng bo'lib,  $n = 0 \div 8$  oralig'ida o'zgarishi mumkin.

Masalan:

- qizish elektr lampalari uchun  $n = 0$ ;
- yuritma valida o'zgarmas qarshilik momentiga ega mexanizmlar uchun  $n=1$ , chunki  $P = \omega M$ ;
- ventilyatorli momentga ega mexanizmlarda  $n$  kattaroq qiymatga ega.

Shu sabablarga ko'ra, energetika tizimidagi chastotani o'zgarmas qiymatda ushab turish uchun qatiq talablar qo'yiladi.

Elektr qurilmalarning tuzilish qoidalariga asosan chastotani nominal qiymatdan  $\Delta f_{nuds.} = \pm 0,1 \text{ Gs}$  og'ishi uzoq muddat davomida ruxsat etiladi,  $0,5 \text{ Gs}$  va undan ziyod og'ishi 30 daqiqa davom etsa, bunday holat avariya deb hisoblanadi.

Chastotaning o'zgarmasligi ishlab chiqarish va iste'mol qilish (yo'qolishlar bilan birgalikda) quvvatlar balansiga bog'liq:

$$P_{g\Sigma} = P_{i\Sigma} + P_{y\Sigma}, \quad (6.2)$$

bu yerda,  $P_{g\Sigma}$  – umumiy ishlab chiqarilayotgan quvvat;

$P_{i\Sigma}$  – umumiy iste'mol qilinayotgan quvvat (yuklama);

$P_{y\Sigma}$  – elektr energiyani iste'molchilarga yetkazishdagi umumiy yo'qolishlar.

Ushbu balansning har qanday buzilishi chastota o'zgarishiga olib keladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$P_{g\Sigma} = P_{i\Sigma} + P_{y\Sigma} + J \frac{d\omega}{dt}, \quad (6.3)$$

bu yerda,  $J$  – energetika tizimi agregatlarining umumiy inersiya momenti;  
 $\omega$  – tizimning burchak chastotasi.


Shunday qilib, energetika tizimidagi yuklanish (yo'qolishlar bilan birgalikda) o'zgarganda chastotani o'zgarmas holda ushlab qolish (rostlash) uchun ishlab chiqarilayotgan quvvatni mos ravishda o'zgartirish lozim.

Elektr stansiyalaming barcha turbinalari chastota rostlagichlari bilan ta'minlangan. Chastotaning birlamchi rostlagichi sifatida turbinaning tezlik rostlagichi ishlatalidi.

Avtomatik chastota rostlagichi (AChR) tomonidan o'rnatiluvchi chastotaning generator quvvatiga  $f=F(P_g)$  bog'lanishi **AChR tavsifi** deb ataladi.

### 6.1. Avtomatik chastota rostlagich tavsiflari

Quyidagi rasmda generator avtomatik chastota rostlagichining astatik va statik tavsiflari keltirilgan.



6.1-rasm. Generator avtomatik chastota rostlagichining astatik va statik tavsiflari

**Astatik** tavsifda chastota  $f$  generator quvvati  $P_g$  ga bog'liq emasdir. **Statik** tavsifda esa generator quvvati  $P_g$  o'sib borgani sari chastota  $f$  kamayib boradi. Gorizonttal o'qqa nisbatan tavsif og'ish burchagini tangensi  $tga$ , statizm koefitsiyenti  $K_s$  deb ataladi.

$P_g$  o'sishiga  $f$  kamayishi mos kelishi hisobiga ularning bog'lanishi quyidagicha bo'ladi:

$$-f = K_s P_g, \quad (6.4)$$


Bu yerdan ACHR statik tavsifining tenglamasi:

$$\Delta f + K_s P_g = 0$$

Energetika tizimining barcha agregatlarini **astatik** tavsif bo'yicha sozlash maqsadga muvofiq emas, chunki bu generatorlararo noaniq quvvat taqsimlanishiga olib keladi. Astatik rostlash kichik, alohida ishlayotgan, rostlash uchun bitta agregat ajratilishi yetarli energetika tizimi uchun qo'llanadi.

Zamonaviy energetika tizimlarda chastotani rostlash uchun maxsus, yuklanishini tez o'zgartirishga qodir agregatlarga ega birmuncha elektr stansiyalar jalb qilinadi. Bunday stansiyalar sifatida asosan suv omboriga ega gidroelektr stansiyalari va qisman baraban qozonli issiqlik elektr stansiyalari ishlatiladi.

To'g'ri oqimli qozon agregatlariga ega katta quvvatlari issiqlik stansiyalari yuklanishni keskin o'zgartirishga qodir emas. Shuning uchun ularning agregatlari chastotani rostlashda ishtiroy etmaydi va rostlagichlari statik tavsif bo'yicha sozlanadi.



## 6.2. Chastota rostlagichchning tavsiflari

Yuqorida rasmdan ko'rinish turibdiki, rostlagichi **statik** tavsif bo'yicha sozlangan agregat o'zgarmas chastotada **o'zgarmas** yuklama olib boradi. Bunda kattaroq  $K_s$  statizm koefitsiyentiga ega agregat kichikroq yuklama olib boradi (2-tavsif).

## 6.2. Zamonaviy energetika tizimlarida chastota va quvvatni avtomatik rostlashni tashkil etish prinsiplari

Yuqorida aytilib o'tilganidek, chastotani rostlashda boshqariladigan agregatlardan foydalанилди. Chastotani rostlash usullaridan biri **ulushli statizm usuli** (statik tavsiflarning minimumligi usuli) hisobланади. Statik tavsiflarning minimumligi usuliga ega har bir boshqariladigan agregatlar tenglamalari quyidagi ko'rinishga ega:

$$\Delta f + K_a (P_{\text{nom}} - \beta_i \cdot \sum_{i=1}^n P_{zi}) = 0,$$

bu yerda

$\Delta f$  – chastotaning nominaldan og'ishi;

$K_a$  – rostlovchi agregatning statizm koefitsiyenti;

$P_{st,i}$  – ushbu agregatning haqiqiy quvvati;

$\sum_{i=1}^n P_{st,i}$  – barcha rostlovchi agregatlarning umumiy yig'indisi;

$\beta_i$  – tizimdag'i barcha rostlochi agregatlarning umumiy quvvatining ushbu generatorga yuklanadigan ulushi.

Ushbu tenglama quyidagi holatda qanoatlanadi (rostlovchi o'tkinchi jarayon tugaydi).

$$P_{st,\phi_i} = \beta_i \cdot \sum_{i=1}^n P_{st,i} \quad \Delta f = 0 \quad (6.5)$$

Bu boshqariluvchi bloklar tizimdag'i barcha yuklama o'zgarishlarini o'z zimmasiga olganda (ishlab chiqarilayotgan va iste'mol qilinayotgan quvvatlar balansi tiklanadi) va bu bloklarning har biri tizim umumiy yuklamasining o'zi uchun berilgan  $\beta_i$  ulushini qabul qilganda sodir bo'ladi.

Ulushli statizm usuli yordamida chastotani rostlash EHM va telemexanika qurilmalarida foydalaniлади.

Rostlashning maqsad funksiyasi tizimdag'i **yoqilg'i sarfini** (xarajatlarni minimumga keltirish hisoblanadi):

$$B_1 \cdot P_{st,1} + B_2 \cdot P_{st,2} + \dots + B_n \cdot P_{st,n} \rightarrow \min, \quad (6.6)$$

bu yerda  $P_{st,i}$  – i-stansiyaning yuklamasi ( $i=1 \div n$ );

$B_i = \frac{\Delta B_i}{\Delta P_i}$  – yoqilg'i sarfining nisbiy o'sishi.

bo'lganda maqsad funksiyasi qanoatlanadi.

Buni 2 ta elektr stansiyasi misolida oson ko'rish mumkin.

Agar  $B_1 < B_2$  bo'lsa  $P_{st,1}$  ni  $\Delta P$  ga oshirish (stansiyani yuklash) va shunga mos ravishda  $P_{st,2}$  ni kamaytirish tavsiya etiladi. Bu holatda yoqilg'i sarfi

$$B_1 = B_2 = \dots = B_n$$

$$\Delta B = B_1 \Delta P - B_2 \Delta P = \Delta P(B_1 - B_2) < 0, \text{ ya'ni kamayadi.}$$

$B_1 > B_2$  bo'lganda, stansiyalar o'rtaida yuklamani taqsimlash foydasiz bo'lgan bo'lardi, chunki  $\Delta B = \Delta P(B_1 - B_2) > 0$ , ya'ni yoqilg'i sarfi oshadi. Shuning uchun yoqilg'i sarfining optimal qiymati  $B_1=B_2$  tenglik bajarilgan sharoitga to'g'ri keladi ("B" ning "P" ga bog'liqlik grafигi chiziqli emasligini ta'kidlash lozim).

Markaziy dispetcherlik punktidagi o'matilgan elektron hisoblash mashinalari telekanallarda quvvatlarning qiymatlarini elektr stansiyalarining quvvat sensorlaridan oladi. Bu qiymat umumlashtiriladi va ular telekanallar bo'ylab elektr stansiyalararo optimal ko'rinishda qayta taqsimlanadi.

Umumlashgan energetika tizimlarida (UET) bu jarayon iyerarxik sxema bo'yicha sodir bo'ladi.

Dastlab, har bir tizimning elektr stansiyalarining quvvati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning boshqaruv xonalariga, u yerdan esa ushbu quvvatlarning miqdori to'g'risida ma'lumotlar markaziy boshqaruv punktiga (MBP) yuboriladi.

Umumiyy quvvatning taqsimlanishi esa teskari tartibda amalga oshiriladi.

Dastlab, uni umumlashgan energetika tizimlari o'rtasida taqsimlash va har bir energetika tizimidagi – ushbu energetika tizimlarining har birining stansiyalari o'rtasida quvvatni taqsimlash bo'yicha vazifalar olinadi.

So'ng stansiyalarda o'matilgan EHM lari agregatlar bo'yicha quvvatlarni taqsimlaydi.

Chastotani to'g'rilash elektr stansiyalarida birlamchi tezlikni nazorat qilish moslamalari tomonidan amalga oshiriladi.


Agar tizimdagagi ishlab chiqarilayotgan va iste'mol qilinayotgan quvvatlar (isrofni hisobga olganda) bir-biriga teng bo'lsa, u holda chastota og'ishi  $\Delta f$  nolga teng bo'ladi.

Energetika tizimida EHM dan foydalanib chastota va quvvatni avtomatik rostlash (ChQAR) dasturini ishlab chiqish juda ham murakkab vazifa hisoblanadi.

Ushbu dasturda isroflar va solishtirma xarajatlarning yuklama agregatlariga bog'liqligi bilan bir qatorda quyidagi cheklolvar hisobga olinadi:

- EUL si bo'ylab quvvat oqimi (ularning ruxsat etilgan o'tkazuvchanligi bo'yicha);
- GES dagi suv oqimi bo'yicha;
- Tizimdagagi kommutatsion o'zgarishlar bo'yicha.

### 6.3. Elektr stansiya agregatlarining chastota va quvvatni avtomatik rostlash (ChQAR) qurilmasi



6.3-rasm. Chastota va quvvatni avtomatik rostlash (ChQAR) qurilmasi

6.3-rasmda **birlamchi rostagich** sifatida ishlataluvchi elektr-gidravlik tezlik rostagichi va unga ta'sir o'tkazuvchi **ikkilamchi rostagich** – magnit filtrli chastota rostagichi ko'rsatilgan.

Turbina T yordamida aylanuvchi generator bilan bir valda kichkina, pendel-generator deb ataluvchi sinxron generator joylashgan. Uning rotori sifatida o'zgarmas magnit ishlataligan. Bu generatordan chiquvchi kuchlanish **1T** transformatorining birlamchi chulg'amiga, **2T** transformatoriga (uning birlamchi chulg'amiga rezonans LC konturi ulangan) va potensiometrlar  $r$  va  $r_p$  larga beriladi.

**1T** transformatorining ikkilamchi chulg'amidagi "2" belgili nuqtasi chulg'amning o'rtaida joylashgan va shu tufayli 1 va 2 hamda 2 va 3 nuqtalararo kuchlanishlar bir-biriga tengdir:  $U_{12}=U_{23}$ .

**Astatik tavsifli** rostagichda **chastota rostlanishi** qanday bajarilishini ko'rib chiqamiz. Bunday rostagichni hosil qilish uchun yuqoridagi sxemada 1AL va 2AL magnit kuchaytirgichlarning s1 va s2 statizm chulg'amlari ishlatilmaydi.

Faraz qilaylik, **3T** transformatoriga beriladigan kuchlanish nolga teng bo'lisin. Bu  $r_p$  potensiometring o'matgichini mos holatga o'matish yordamida qilinadi.

Nominal chastotada LC tebranish konturi rezonans holatga sozlangandir ( $j\omega_{nom}L=1/j\omega_{nom}C$ ).

Shu tufayli nominal  $f_{nom}$  chastotada bu kontur qarshiligi cheksiz qiymatga tengdir va 2T transformatorining birlamchi kuchlanishi nolga teng bo'ladi.

$$X = \frac{j\omega_{nom}L \cdot 1 / j\omega_{nom}C}{j\omega_{nom}L + 1 / j\omega_{nom}C} \quad (6.7)$$

Shunday ekan, 2T transformatorining ikkilamchi kuchlanishi va 1C kondensatoridagi kuchlanish tushuvi ham nolga teng bo'ladi. Buning oqibatida  $U_{14}$  va  $U_{34}$  kuchlanishlari (mos ravishda 1- va 4- nuqtalar hamda 3-chi va 4-chi nuqtalar orasidagi kuchlanishlar) biri-biriga teng bo'lib ( $U_{14}=U_{34}$ ), 1Vs va 2Vs to'g'rilovchi ko'prichalar orasidagi muvozanat saqlanib qoladi.

1AL va 2AL magnit kuchaytirgichlarning **boshqarish U1 va U2 chulg'amlari** bo'yicha qiymati bir xil, yo'nalishi esa biri-biriga teskari toklar oqadi. Bu chulg'amlar mutlaqo bir xil yasalgan bo'lgani sababli, ularning umumiy MYUK-si nolga tengdir. Kuchaytirgichlarning **siljитиш SM chulg'amlari** bo'yicha bir xil tok o'rnataladi. Shuning uchun ikkala kuchaytirgichlarning o'zaklari bir xil to'yingan bo'lib, ularning **ishchi R chulg'amlarining qarshiliklari** o'zaro teng bo'ladi.

1AL va 2AL kuchaytirgichlarning ishchi chulg'amlariga **4T** transformatoridan bir xil kuchlanishlar beriladi. Shunday ekan, ishchi chulg'amlar bo'yicha oquvchi toklar ham bir xil bo'lib, ularning to'g'rilangan qiymatlari ham teng bo'ladi. Bu to'g'rilangan toklardan biri turbinadagi yo'naltiruvchi apparatning ochish solenoidi (**OS**), ikkinchisi esa yopish solenoidiga (**YS**) beriladi.

Bu solenoidlarning o'zakni tortish kuchlari o'zaro baravarlashtirilgan bo'lgani sababli, o'zak o'rta holatda bo'ladi. U bilan sterjen orqali bog'liq bo'lgan **taqsimlash zolotnigi** ham o'rta holatda bo'ladi va moy bosish qurilmasidan moy SM servomotorga tushmaydi. Uning porsheni o'zgarmas holatda qolib, turbinaning yo'naltirish apparatining ochilishi ham o'zgarmasligicha qoladi.

Generator yuklanishi kamayganda uning **turbina momenti** generatorming **qarshilik momentidan katta** bo'ladi. Agregatning aylanish tezligi oshadi va bu pendel-generator chastotasining oshishiga olib keladi. Tebranish konturining induktiv  $X_L=\omega L$  qarshiligi oshadi, sig'im  $X_C=1/\omega C$  qarshiligi esa kamayadi. Oqibatda **2T** transformatori orqali kuchlanishning  $90^\circ$  ga oshuvchi **sig'im toki** oqib boshlaydi.

Bu tok 1s kondensatorida **kuchlanish tushuviga** olib keladi. U kondensator orqali oqayotgan tokdan  $90^\circ$  ga orqada bo'lib, **1T** transformatorining **ikkilamchi kuchlanishi** bilan faza bo'yicha bir xildir (kuchlanishlar yo'nalishi strelkalar bilan ko'rsatilgan).

Rasmdan ko'riniib turibdiki, **1C** kondensatoridagi kuchlanish tushuvi  $U_{23}$  kuchlanishiga qo'shilib,  **$U_{12}$**  kuchlanishidan ayrıladı. Buning oqibatida **1VS**

ko'priksasiga keltirilayotgan **U<sub>34</sub>** kuchlanishi 2VS ko'priksasiga berilayotgan **U<sub>14</sub>** kuchlanishidan katta bo'lib, **U<sub>1</sub>** boshqarish chulg'amidagi tok **U<sub>2</sub>** boshqarish chulg'amidagi tokdan katta bo'ladi. Bu chulg'amlar MYuKlarining ayirmasi **1AL** kuchaytirgichidagi siljitim qo'shiladi, **2AL** kuchaytirgichidagidan esa ayirladi. **1AL** kuchaytirgichining o'zagi to'ynib, ishchi chulg'amining qarshiligi kamayadi, **2AL** kuchaytirgichida esa ishchi chulg'am qarshiligi oshadi. Buning oqibatida yopish **YOS** solenoidida tok ochish **OS** solenoididagi tokdan katta bo'ladi.

Taqsimlash zolotnigining sterjeni va u bilan bog'liq taretkalari rasmga mos yuqori tomon siljib, servomotor SMning pastki qismiga moy bosish qurilmasidan moy kelishiga yo'l oshib beradi. Porshen tepe tomon siljib, moyni quyib olish bakiga siqib chiqaradi va turbina yo'naltirish **apparatining** ochilish darajasini kamaytiradi.

Agregatning aylanish tezligi va  $f$  chastotasi kamaya boshlaydi va bu jarayon **YOS** solenoididagi tok ochish **OS** solenoididagi tok bilan tenglashmaguncha davom etadi. Bu esa **U<sub>1</sub>** boshqarish chulg'amidagi tok bilan **U<sub>2</sub>** boshqarish chulg'amidagi toklar tengligi, ya'ni **chastotaning** boshlang'ich qiymati **tiklanganda** bo'ladi.

Shunday qilib, generator yuklanishi o'zgarganda dastlabki chastota tiklanishi bajariladi. Tiklanish quvvatga bog'liq bo'limganligi sababli rostlash tavsifi  $f=F(P_g)$  astatik ko'rinishga egadir. Musbat teskari bog'lanish (POS) hisobiga rostlash turg'unligi ta'minlanadi.

**Statik** tavsifni hosil qilish uchun s1 statizm chulg'amiga quvvatni o'lchash **QO'** organidan generatorning aktiv quvvati  $P_g$  ga proporsional  $U_{s1}$  kuchlanishi beriladi (bunda ishlatiladigan quvvat o'zgartirgichining sxemasi quyiroq izohlanadi).

Bu holatda generator quvvatining qandaydir qiymatiga  $f$  chastotasi mos keladi. Bu chastotadaga mos o'mashgan rejimda **U<sub>2</sub>** boshqarish chulg'amidagi tok **U<sub>1</sub>** boshqarish chulg'amidagi tokdan katta bo'lib, ularning MYuKlari ayirmasi s1 statizm chulg'amining MYuKsi tomonidan kompensatsiya bo'ladi (bu MYuK generatorining aktiv quvvatiga proporsional tok orqali hosil qilingandir). Buning oqibatida **1AL** va **2AL** kuchaytirgichlarining o'zak to'ynishlari bir xil bo'lib, yopish **YS** va ochish **OS** solenoidlardagi toklar ham bir xil bo'ladi.

Generator yuklanishi kamayganda statizm chulg'amidagi tok va MYuKlar ham kamayadi. Buning oqibatida **1AL** va **2AL** kuchaytirgichlarining muvozanati tiklash uchun **U<sub>2</sub>** va **U<sub>1</sub>** boshqarish chulg'amlarining MYuKlar ayirmasi kamroq qiymatga ega bo'lsa ham bo'ladi, ya'ni **U<sub>2</sub>** boshqarish chulg'amidagi tok ham kamroq bo'lishi mumkin.

Bu esa chastota  $f$  dastlabki qiymatdan bir oz kattaroq bo'lganda. Ya'ni generatorning kamroq quvvatiga yuqoriroq chastota mos kelyapti. Bu degani, rostlagich tavsifi haqiqatdan ham **statik** ko'rinishga egadir.

Potensiometr  $r_p$  da o'matgich joyini o'zgartirish hisobiga 3T transformatoriga beriladigan kuchlanishning qiymatini va ishorasini o'zgartirish mumkin. Bunda transformatorning ikkilamchi kuchlanishi o'zgarishi hisobiga 1VS va 2VS to'g'rilovchi ko'prikschalarga beriladigan kuchlanishlarning o'zaro nisbatini


o'zgartirish mumkin. Bu o'zgarishni rostlagich generator yuklanishining o'zgarishi kabi qabul qiladi va uning chastotasini o'zgartiradi. Bunda rostlagich tavsifi o'zi-o'ziga parallel joyini o'zgartiradi. Potensiometr o'rnatgichining joylashuvini tezlikni o'zgartirish dvigatelei yordamida masofadan boshqarish mumkin.

Energotizimda chastotani rostlashda bir nechta generatorlar ishtirok etadi. Ular orasida quvvatni taqsimlash maxsus algoritmlar yordanida bajariladi, masalan, **ulushiy statizm usuli** bo'yicha. Bu usulni yuqoridaagi sxemada bajarish uchun, S2 statizm chulg'amlariga (ular S1 statizm chulg'amlaridan farq qilmaydi) EHM yordamida generator uchun belgilangan, quvvatga proporsional qarshi kuchlanish beriladi.

Bunda rostlashning o'tkinchi jarayoni chastota EHM belgilagan qiymatdan farq qilmaganda, ya'ni chastota og'ishi  $\Delta f=0$  bo'lib, har bir generator unga belgilangan tizim quvvatining ulushini olganda tugaydi.

Energotizimda ishlab chiqarilayotgan va iste'mol qilinayotgan quvvatlar balansi tiklanganda  $\Delta f$  nolga teng bo'ladi. Shunda U1 va U2 boshqarish chulg'amlaridagi **tokdar** va **MYuKlar** tenglashadilar. Generator quvvati unga belgilangan tizim quvvatining ulushiga teng bo'lganda, S1 va S2 statizm chulg'amlaridagi **toklar** va **MYuKlar** ham tenglashadilar. Natijada 1AL va 2AL magnit kuchaytirgichlarning o'zaklar to'yinishi bir xil darajada bo'lib, **YOS** va **OS** solenoidlаридаги **toklar** ham tenglashadi.

Quyidagi 6.4.a-rasmida statik quvvat o'zgartirgichining soddalashtirilgan sxemasi ko'rsatilgan.



#### **6.4-rasm. Statik quvvat o'zgartirgichining sxemasi:**

a) statik quvvat o'zgartirgichning sxemasi; b) kuchlanish diagrammasi

U generator quvvatini yuqorida ko'rilgan chastota rostlagichining sl statizm chulg'amiga beriladigan kuchlanishga proporsional ravishda o'zgartirib beradi.

2-nuqta transformator T ikkilamchi chulg'amining o'tasida joylashganligi sababli  $U_{12}$  va  $U_{23}$  birlig'ini tengdir. Bu transformator ta'minot generator

chiqishdagagi TV kuchlanishlariidan olingan, shuning uchun (b) rasmida ko'rsatilgan diagrammalashtirilgan kuchlanishlar generator kuchlanishiga proporsionaldir:

$$U_{12} = U_{23} = K_1 U_g. \quad (6.8)$$

**Generatorning amaliyidagi TA tok transformatoridan J toki R qarshiligidagi beriladi.** J tokinining vektori generator kuchlanishidan  $\phi$  burchagiga orqadadir. J toki R qarshiligidagi u bilan fazaga bo'yicha bir xil kuchlanish tushuvi  $K_2 J$  hosil qiladi. **Rasmidan ko'rinish turibdiki, bu kuchlanish 2 va 4 nuqtalari orasidagi kuchlanishdir. 1 va 4 nuqtalari orasidagi kuchlanish  $U_{14}$  to'yinuvchan drossel 1Dga, 3 va 4 nuqtalari orasidagi kuchlanish  $U_{34}$  drossel 2Dga beriladi.** Trigonometriya formulalariga asosan:

$$U_{14}^2 = (K_1 U_g)^2 + (K_2 J_g)^2 + 2K_1 \cdot K_2 U_g J_g \cdot \cos\phi; \quad (6.9)$$

$$U_{34}^2 = (K_1 U_g)^2 + (K_2 J_g)^2 - 2K_1 \cdot K_2 U_g J_g \cdot \cos\phi;$$

1D va 2D drossellar to'yinuvchandir, ya'ni ular orqali oquvchi tok bilan kuchlanish orasidagi bog'lanish (c) rasmida ko'rsatilgandek **nochiziqlidir**.

Ishchi oraliqda (1 va 2 nuqtalari orasi) bu bog'lanishni kvadratik ifodalash mumkin:

$$J = K' U_{14}^2 \quad (6.10)$$

Shuning uchun 1VS ko'priklasida to'g'rilangan tok

$$J_I = K' U_{14}^2 \quad (6.11)$$

2VS ko'priklasida to'g'rilangan tok esa

$$J_H = K' U_{34}^2 \quad (6.12)$$

R<sub>r</sub> qarshiligi orqali J<sub>I</sub> - J<sub>H</sub> toklar ayirmasi oqadi va u quyidagi kuchlanish tushuvini paydo ettiradi:

$$U_{cleg} = (J_I - J_H) R_r = K' (U_{14}^2 - U_{34}^2) R_r \quad (6.13)$$

U<sub>14</sub> va U<sub>34</sub> kuchlanishlarni bu ifodaga qo'yib, chiqishdagagi kuchlanish ifodasini hosil qilamiz:

$$U_{chiq} = 4K' R_r K_1 \cdot K_2 \cdot U_2 J_g \cdot \cos\phi = K_s P_g \quad (6.14)$$

Ko'rinib turibdiki, o'zgartirgichning chiqishidagi  $U_{\text{chiq}}$  kuchlanishi generator quvvatiga proporsionaldir.

Qo'shimcha aytish joizki,  $r_b$  ballast qarshiliklari yordamida  $J_I - J_{II}$  toklar ayirmasi  $R$ , qarshiligi orqali oqishi ta'minlanadi. Agar bu qarshiliklar bo'limganda, unda 1VS va 2VSda to'g'rilangan toklar eng kichik qarshilikli yo'ldan o'tib,  $R_r$  qarshiligiga tushmas edi.

Hosil qilingan  $U_{\text{chiq}}$  kuchlanishi yuqorida ko'rib chiqilgan rostlagich sxemasidagi S1 statizm chulg'amiga beriladi.  $K_s$  statizm koeffisiyentini  $R_r$  potensiometri o'matgichining joyini o'zgartirish hisobiga o'zgartirish mumkin ( $K_s = P_g / U_{\text{chiq}}$ ).

### Nazorat savollari:

1. O'zgaruvchan tok chastotasing nominal qiymatlari va uning ruxsat etilgan og'ish (chetlanish) qiymatlari nechaga teng? Turbina, o'z-ehtiyoj mexanizmlari va iste'molchining mexanizmlariga energotizimda chastotaning o'zgarishi qanday ta'sir etadi?
2. Energotizimda aktiv quvvat ishlab chiqarish va iste'mol qilish balansi buzilganda chastota nega o'zgaradi?
3. Chastotani avtomatik rostlash zaruriyatining sabablari nimadan iborat?
4. Turbinalarning aylanish chastotasini avtomatik rostlash uskunalarining vazifasi va tafsiflari.
5. Elektr stansiya agregatlari hamda elektr stansiyalararo aktiv quvvatni tejamli taqsimlash prinsipi nimadan iborat?
6. Chastotani astatik rostlash qayerda ishlataladi?
7. Chastotani rostlashda ulushiy statizm usuli nimadan iborat?
8. Chastotaning avtomatik regulyatorida statik xarakteristika astatikdan farqi nimada? Statizm koeffisiyenti nimani ko'rsatadi?
9. Energotizimda chastota va aktiv quvvatni avtomatik rostlashda EHMning vazifasi nimadan iborat?
10. ChQAR uskunasini belgilangan chastotaga sozlash qanday bajariladi?
11. Tizimlararo liniyalarda aktiv quvvat oqimlarini avtomatik rostlashning vazifasi nimadan iborat?
12. Chastotani avtomatik rostlash uskunasi oqimlarni avtomatik rostlash uskunasidan farqi borni?
13. Quvvatni statik o'zgartirgichi nima uchun kerak, uning tuzilmasida ishlatalgan asosiy prinsiplar?
14. Quvvatni statik o'zgartirgichi sxemasida ishlatalgan drossellar nega to'yinuvchan magnit tizimiga ega, chiziqli xarakteristikali emas?
15. Energoblokning statizm koeffisiyentini qanday o'zgartirish mumkin va bu nima uchun qilinadi?
16. Har xil statizm koeffisiyentlariga ega energobloklar orasida aktiv quvvat qanday taqsimlanadi?

17. Energoblok yoki elektr stansiyaning ChQAR uchkunasini quvvat topshirgichi (zadatchigi) rejimida (belgilangan yuklanish grafigini olib borish uchun) ishlatalish mumkinmi?
18. Energotizimda aktiv quvvat rezervlari mavjud bo'limasa, chastotani avtomatik rostlash mumkinmi?
19. Generator yuklanishi oshganda turbinaning birlamchi tezlik rostlagichi nima qiladi: turbinaga bug' (yoki suv) berishni oshiradimi yoki kamaytiradimi?
20. ChQAR sxemasi energotizimda chastota o'zgarganligini qanday "sezadi"?
21. ChQAR tuzilmasida elektrogidravlik tezlik rostlagichining ishlash prinsipi.
22. ChQAR tuzilmasida magnit filtrli chastota rostlagichining ishlash prinsipi.
23. ChQAR sxemasidagi statik quvvat o'zgartirgichining vazifasi nimadan iborat?
24. Ilgari energotizimda yoqilg'ini tejash maqsadida pastroq chastotada ishlash qo'llanardi. Bunday nostandard chastotali rejimda ChQAR tizimi ishlay oladimi yoki uni ishdan chiqarib qo'yish kerakmi?

## VII BOB.

### AVTOMATIK CHASTOTAVIY YUKSIZLANTIRISH (AChYu) VA CHASTOTAVIY AVTOMATIK QAYTA ULASH (ChAQU)

Energetika tizimida tezkor zaxira qiymatidan katta quvvat yetishmovchiligi paydo bo'lganda, chastota ko'chkisi va kuchlanish ko'chkisi deb ataluvchi xavfli hodisalar kechishi mumkin.

**Chastota ko'chkisi va kuchlanish ko'chkisi** deb, ularning qiymati beto'xtov, tizimni buzilishiga olib keluvchi darajagacha kamayishiga aytildi.

**Chastota ko'chkisi** quyidagicha sodir bo'ladi:

Quvvat yetishmasligi paydo bo'lganda energetizim agregatlarining tezligi, ya'ni **chastota pasayadi**. Bu elektr stansiyalarining **o'z ehtiyoj mexanizmlarining unumdonorligiga salbiy ta'sir qilib**, stansiyalarining quvvatini kamaytiradi va natijada **quvvat defitsiti yanada oshadi**. Bu esa chastota pasayishini davom etishiga va quvvat yetishmovchiligi oshishiga olib keladi. Bu hodisa ko'chkisimon davom etadi.

**Kuchlanish ko'chkisi** quyidagicha kechadi:

Energotizimda quvvat defitsiti natijasida **chastota kamayganda**, generatorlarning **EYuKlari ham kamayadi** (ular chastotaga proporsionaldir), asinxron dvigatellar esa **tormozlanib** boshlaydi. Tormozlanayotgan asinxron dvigatel energetizimdan **qo'shimcha reaktiv tok iste'mol qiladi**. Bu esa generatorlarning statorida **yakor reaksiyasining oshishiga** va generator chiqishidagi **kuchlanish kamayishiga** olib keladi:

$$U_g = E_q - j I_d x_d \quad (7.1)$$

Kuchlanish kamayishi natijasida asinxron dvigatellarining aylantirish momenti kamayadi (moment kuchlanishning kvadrat darajasiga proporsionaldir). Dvigatellar tormozlanishi davom etib, ular tizimdan clayotgan **reakтив tok iste'molining yanada oshishiga** va tizimdagи kuchlanishlarning pasayishiga olib keladi. Bu holat beto'xtov davom etib, tizimning batamom buzilishiga olib keladi.

Chastota  $45Gs$  dan pasayganda, kuchlanish ko'chkisini generatorlar qo'zg'atishining forsirovkasi yordamida ham to'xtatib bo'lmaydi.


Bu holatda ham stansiyalarda o'z ehtiyoji mexanizmlarining unumdonorligi keskin kamayib ketadi. Masalan, sirkulyatsion nasoslarning unumdonorligi 60 % gacha, suv ta'minlash nasoslari esa nolgacha pasayadi.

#### 7.1. Energetika tizimining chastotaviy tavsifi

Energotizimning chastotaviy tavsifi tizim yuklamasining chastotaga bog'liqligini ko'rsatadi. Bu bog'lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{P_0}{0} \% + \frac{P_1}{1} \% + \frac{P_2}{2} \% + \dots + \frac{P_n}{n} \% = \left( \frac{f}{f_n} \right)^2 + \dots + \left( \frac{f}{f_n} \right)^n, \quad (7.2)$$

bu yerda,  $P_0\%$ ,  $P_1\%$ ,  $P_2\%$ , ...,  $P_n\%$  – nominal chastotada iste'molchilar quvvatlarining tizimning umumiy 100 % deb qabul qilingan qiymatiga nisbatan ulushi.



7.1.-rasm. Tizimning chastotaviy tavsifi

Rasmdan ko'rinib turibdiki, bu tavsif nochiziqlidir, lekin amalda  $f = 45Gs$  dan  $f_{nom}=50Gs$  gacha oraliqda uni chiziqli deb hisoblasa ham bo'ladi. Shuning uchun ushbu oraliqda deb hisoblasa ham bo'ladi.

Koeffitsiyent  $K_{r.e}$  yuklamaning rostlash effekti koeffitsiyenti deb ataladi. Iste'molchilarning chastota pasayganda ular iste'mol qilayotgan quvvatini kamaytirish xususiyatini **yuklamaning rostlash effekti** deb atashadi.

$$\frac{\Delta P\%}{\Delta f\%} = K_{b.e.} = const \quad (7.3)$$

Chastotatni foizda emas, balki Gersda ifoda etsak, quyidagini hosil qilamiz:

$$K_{r.e.} = \frac{\Delta P\%}{2 \Delta f_{Gs}} \quad (7.4)$$

Yuklamaning tartibga soluvchi ta'sir koeffitsiyenti chastotani kamaytirishning har bir foiziga yuklamaning aktiv quvvat sarfi necha foizga kamayganligini ko'rsatadi.

U sutka davomida o'zgarib turadi va tunda, yoritish moslamalari yoqilganda va chastota o'zgarishini sezmaydigan istemolchilar ulanganda eng kichik qiymatga ega bo'ladi.

Yuklamani rostlash effekti koeffitsiyentining qiymati maxsus sinovlar bilan aniqlanishi kerak va zamonaviy tizimlarda quyidagini tashkil etadi:  $K_{b.e.} = 2 \div 2,5$ .

Chastota 45 Hz dan pastga tushganda, stansiyaning o‘z ehtiyoj mexanizmlarini ishlab chiqaruvchanligini juda pasaytiradi va ularning ishini falaj qiladi. Masalan, aylanuvchan nasoslarning ishlovchanligini 60 % ga pasaytiradi, iste’mol nasoslarini bo’lsa 0 gacha pasaytiradi. Bu energoblokarning ishlashini to’xtashiga va energetizimni qulashiga sabab bo’ladi.

## 7.2. Avtomatik chastotaviy yuksizlantirishning bajarilish prinsiplari va hisobi

Energotizimda chastota va kuchlanish ko‘chkilarini bartaraf etish maqsadida **avtomatik chastotaviy yuksizlantirish** tashkil etiladi.

Paydo bo’lishi mumkin bo’lgan quvvat defitsitining qiymati oldindan ma’lum bo’lmaganligi sababli tizimda ortiqcha iste’molchilar o’chirilmasligi uchun o’chirishlar **navbatma-navbat** bajariladi.

Chastota ma’lum qiymatgacha tushguncha eng past toifali iste’molchilarning bir qismi o’chiriladi. Agar chastota tushishni davom ettirsa, unda chastotaning bir qancha tushishiga mos holda yana iste’molchilarning bir qismi o’chiriladi va shu kabi davom etadi. O’chirilayotgan iste’molchilarning mas’uliyati navbatli oshgan sari oshib boradi.

Barcha navbatlar yordamida tizimda mavjud bo’lishi mumkin eng katta quvvat defitsiti  $P_{d,max}$  % o’chirilishi kerak. Har qanday energetizim uchun quvvat yetishmovchiligining maksimal qiymatini doim aniqlash mumkin.

Masalan, tizimda u bilan yagona liniya bo‘yicha bog’langan katta quvvatli stansiya bo’lsa, unda bu liniya o’chganda tizimdagi yetishmovchilik bu stansiyaning quvvatiga teng bo’ladi (stansiyadagi qaynoq rezerv e’tiborga olinmasdan zaxiraga qoladi).

Stansiyalar aro ishonchli bog’lanishlar mavjud bo’lsa, tizimdagi maksimal yetishmovchilik eng katta quvvatli blok o’chishida aniqlanadi.

Yuqorida ta’riflanganlar birinchi toifali avtomatik chastotaviy yuksizlantirish (**AChYu-I**) qurilmasi yordamida bajariladi.

Chastotaviy yuksizlantirish tizimdagi chastota qisqa muddatga tushish ehtimoli bor qiymatdan bir oz kattaroq qiymatda boshlanishi kerak (odatda, bu chastota AES yoki IES larining yirik energoblokлari ishlash shartlaridan olinadi va 49 Gs ga teng).

Amaliy holatda, AChYu birinchi boscichi  $f_{i.t.1}=48,8$  Gs ga o’matiladi.

Eng katta quvvat yetishmovchiliga mos chastotaning maksimal og’ishi quyidagiga teng:

$$\Delta f_{maks} = \frac{P_{d,maks} \%}{2K_{r,e}} \quad (7.5)$$

Bu chastotaning  $f_{min.} = 50 - \Delta f_{maks}$  minimal qiymatiga mosdir.

Agar hisob bo‘yicha  $f_{min.} > 46,5$  Gs bo‘lib chiqsa, unda shu qiymat AChYu-Ining eng oxirgi navbatining ishga tushish chastotasi sifatida olinadi:

Agar  $f_{min} < 46,5 \text{Gs}$  bo'lib chiqsa, unda oxirgi navbatning ishga tushish chastotasi sifatida  $46,5 \text{Gs}$  olinadi. Buning sababi shundaki, yuqorida aytilgandek, chastota qisqa muddatga ham  $45 \text{Gs}$ dan past bo'lishi mumkin emas. Mavjud maksimal  $R_{d,maks}$  yetishmovchilikni chastota bu qiymatga tushgunga qadar bartaraf etish kerak, chunki u inersiya bo'yicha yana bir oz kamayishi mumkin. Shuning uchun  $f_{ish,n}=46,5 \text{ Gs}$ ga teng deb olinadi.

Katta yetishmovchiliklarda chastota keskin tushib ketish xavfi bor. Unga yo'l qo'ymaslik uchun AChYu-Ining sabr vaqt 0,5 soniyadan oshmasligi kerak.

Ikkita qo'shni navbatlarning chastota bo'yicha ishga tushish o'matmalari farqi  $\Delta f_{ish}=0,1 \text{Gsga}$  teng deb qabul qilinadi. Bunda AChYu-Ining navbatlar soni quyidagicha topildi:

$$n_i = \frac{f_{ish,1} - f_{ish,n}}{\Delta f_{ish}} + 1. \quad (7.7)$$

Barcha navbatlar yordamida maksimal quvvat yetishmovchiligi to'la to'kis bartaraf etilishi lozim bo'lganligi uchun, har bir navbat orqali o'chiriladigan quvvat quyidagicha bo'ladi

$$P_{o'ch} \% = \frac{P_{d,maks} \%}{n_i}. \quad (7.8)$$

Bir nechta navbatlar ishlagandan so'ng quvvat yetishmovchiligi kamayadi. Bunga qo'shimcha yuklamaning rostlash effekti hisobiga ishda qolgan iste'molchilarining quvvati ham chastota pasayganda kamayadi. Natijada past chastotada ishlab chiqarilayotgan va iste'mol qilinayotgan quvvatlar balansi hosil bo'lishi mumkin. Bunday holatda chastota o'zgarishining davom etishi to'xtaydi va **chastota osilib qolishi** deb ataluvchi vaziyat hosil bo'ladi.


Past chastotada energotizim uskunalarining ishlashiga ruxsat etilmaydi. Bunday holatda, masalan, podshipniklarni moylovchi moy nasoslarining ish unumdarligi kamayadi va ular qizishni boshlaydi.

Chastota osilib qolishining oldini olish uchun va uni nominalgacha yaqin bo'lgan qiymatgacha ko'tarish uchun ikkinchi toifali chastotaviy yuksizlantirish **AChYu-II** ishlatiladi.

**AChYu-II** ning barcha navbatlari orqali maksimal yetishmovchilikning  $0,4 \div 0,5$  qismi o'chiriladi. Shuni hisobga olish kerakki, **AChYu-II** ning navbatlari chastota

osilib qolishidan oldin AChYu-I ning oxirgi navbatlari orqali o'chirilishi kerak bo'lgan iste'molchilarga ta'sir qiladi.

Masalani,  $n_I = 16$  bo'lsa va AChYu-II tomonidan  $P_{d,maks}$ ning 50 foizi o'chirilsa, unda AChYu-II navbatlarining soni  $n_{II} = 8$  bo'ladi.



### 7.2-rasm. AChYu-I va AChYu-II tarning ishlash prinsipi

AChYu-II ning birinchi navbati ACnYu-I ning to'qqizinchi navbatidan, ikkinchisi esa – o'ninchisi navbatidan va sh.k. o'chirilishi kerak bo'lgan iste'molchilarni o'chiradi (7.2-rasm).

AChYu-II ning chastota bo'yicha ishga tushish o'matmalari barcha navbatlar uchun bir xil, ACHYU-Ining birinchi navbat o'matmasidan  $0,5G_{sg}$  kattaroq olinadi:

$$f_{ish,II} = f_{ish,I} + 0,5 G_{sg}. \quad (7.9)$$

AChYu-IIning birinchi navbati uchun  $t_I = 10-20$  soniya sabr vaqtini olinadi. Qo'shni navbatlarning sabr vaqtini  $\Delta t_{ish} = 3 \div 5$  soniyaga farq qiladi.

Ayrim hollarda AChYu-IIning oxirgi navbatlarida sabr vaqtini  $60 \div 90$  soniyagacha oshirishadi. Bu vaqt sovuq rezervda bo'lgan gidrogeneratorlarni yoki sinxron kompensator rejimida ishlayotgan gidrogeneratorlarni aktiv rejimga o'tkazishga ulgurish uchun kerakdir.

AChYu-IIning navbatlar soni quyidagi ifodadan topiladi:

$$n = \frac{(0.4 \div 0.5)P_{d,maks}\%}{P_{o'ch} \%} \quad (7.10)$$

AChYu-I va AChYu-IIdan tashqari **qo'shimcha (yoki mahalliy)** deb ataluvchi **chastotaviy yuksizlantirish** ham mavjud. Uni keyinroq ko'rib chiqamiz.

### 7.3. Chastotaviy avtomatik qayta ulash (ChAQU)

AChYu qurilmasidan o'chirilayotgan liniyalarda AQU bo'lmasligi shart. Lekin amalda AChYuning noto'g'ri ishlash holatlari uchrab turadi.

#### Ularning sabablari quyidagicha:

- mavjud yetishmovchilik bartaraf etilgandan so'ng chastota pasayishi inersiya bo'yicha davom etishi;
- sinxron yuklamasi mavjud podstansiyalarda AQU va ZAULar ishlaganda toksiz to'xtam oralig'ida chastota tushib ketishi;
- tizimdag'i chayqalishlarda qiymati nominal chastotadan ancha past sirpanish  $f_s$  chastotasi paydo bo'lishi ( $f_s < f_{nom}$ ).

AChYuning noto'g'ri ishlashidan tashqari tizimdag'i chastota sovuq rezerv kiritalgandan so'ng hamda minimal yuklamali soatlarda tiklanishi mumkin. Bu degani, tizimdag'i chastota tiklanganda AChYudan o'chirilgan iste'molchilarini qayta ulash maqsadga muvofiqdir. Bu vazifa avtomatik qayta ulash qurilmasiga yuklatiladi (ChAQU).


ChAQU ham alohida navbatlar bilan bajariladi: 49,2 Gsdan 50,2 Gsgacha oraliqda qo'shni navbatlarning farqi chastota bo'yicha  $\Delta f = 0,1 \text{ Gs}$ , vaqt bo'yicha esa  $\Delta t = 3 \div 5 \text{ soniya}$  bo'lishi kerak. Shuni e'tiborga olish kerakki, ChAQUda mas'uliyati yuqoriroq bo'lgan iste'molchilarining ularish navbatli ilgarimoq bo'ladi.


ChAQU birinchi navbatining sabr vaqt  $t_{ish.1} = 10\text{-}15 \text{ soniyaga teng qabul qilinadi}$ .

ChAQU bir marta ishlovchi qurilma bo'lishi kerak.

### 7.4. AChYu va ChAQU qurilmalari

Quyidagi 7.3-rasmida AChYu va ChAQU sxemalarida ishlataladigan IVCh-3 induksion chastotani tiklash relesi ko'rsatilgan. U induksion quvvat relesi asosida bajarilgan.





7.3-rasm. IVCh-3 chastotani tiklovchi induksion rele:

- a) induksion chastotani tiklash relesining sxemasi;
- b)  $f > f_{cp}$  bo'lgandagi diagramma; d)  $f \leq f_{cp}$  holatdagi diagramma.

Barcha induksion prinsipda ishlovchi asboblar kabi rele barabanchasidagi aylanturuvchi moment  $M = kF_1F_2 \sin\psi$ , bu erda  $F_1$  – gorizontal qutblar oqimi,  $F_2$  – vertikal qutblar oqimi,  $\psi$  – ular orasidagi burchak.

Transformator TVdan olinuvchi  $U$  kuchlanishi bilan gorizontal qutbda joylashgan chulg‘amdagisi  $J_1$  toki orasidagi burchak

$$\varphi_1 = \operatorname{arctg} \frac{\omega L_1}{R_1 + R_r}, \quad (7.11)$$

bu yerda:

$L_1$  – bu chulg‘am induktivligi;

$R_1$  – uning aktiv qarshiligi;

$R_r$  – uning zanjiridagi rostlanuvchan qarshilik.

Yarmoda joylashgan va  $F_2$  oqimini paydo ettirgan chulg‘am uchun:

$$\varphi_2 = \operatorname{arctg} \frac{\omega L_2 - 1/\omega C}{R_2}, \quad (7.12)$$

bu yerda  $L_2$  va  $R_2$  – bu chulg‘amning induktivligi va aktiv qarshiligi;

$C$  – u bilan ketma-ket ulangan kondensatorning sig‘imi;

$\omega$  – burchak chastotasi;


$\varphi_2$  – bu chulg‘amga keltirilgan  $U$  kuchlanishi bilan undagi  $J_2$  (yoki  $F_2$  oqimi) orasidagi burchak.

Rele parametrлari shunday tanlanganki tarmoqdagi chastota rele ishga tushish chastotasidan katta ( $f > f_{cr}$ ) bo‘lganda (7.3.b-rasmi),  $\varphi_2 > \varphi_1$  bo‘ladi. Bunda burchak  $\psi = \varphi_1 - \varphi_2 < 0$  bo‘lgani uchun,  $\sin\psi < 0$  va reledagi aylanturuvchi moment  $M < 0$  bo‘ladi, ya’ni relening barabanchasi kontaktlarning ochish tarafiga aylanadi. Rele ishlamaydi.

Chastota pasayganda  $\varphi_1$  burchagi ham,  $\varphi_2$  burchagi ham kamayadi.

Animo  $\varphi_2$  kamayashi  $\varphi_1$  ga nisbatan tezrok kechadi, chunki  $\omega = 2\pi f$  kamaygan sari  $1/\omega C$  o'sishi hisobiga ( $\omega L_2 - 1/\omega C$ ) ning kamayishi  $\omega L_1$  ning kamayishidan nisbatan tezroq bo'ladi.

Chastotating qandaydir, relening ishga tushish chastotasidan kam qiymatida ( $f < f_{cr}$ ),  $\varphi_2$  burchagi  $\varphi_1$  burchagidan kam bo'lib qoladi va  $\psi$  burchagining qiymati musbatga aylanadi ( $\psi = \varphi_1 - \varphi_2 > 0$ ). Aylantirish momenti ham musbat ishoraga ega bo'ladi ( $M > 0$ ).



**7.4-rasm. AChYu va ChAQU ning bitta navbatli sxemasi**

Rele, kontaktini qo'shib, ishga tushadi. Bu vektor diagrammada ko'rsatilgan (7.3.v-rasmi).

Ishga tushish chastotasi  $R$ , qarshiligini o'zgartirish hisobiga rostlanadi. Rele ishlagandan so'ng  $R$ , ning bir qismini shuntlab quylisa,  $\varphi_1$  burchagini  $\varphi_1'$  burchagigacha oshirish mumkin (rasmda punktir bilan ko'rsatilgan). Bu relening qaytish chastotasini oshirish uchun qilinadi (bunda  $\varphi_2 > \varphi_1'$  bo'lishi shart,  $\varphi_2$  ning o'sishi esa chastota  $f$  ko'tarilgan sari oshadi).

7.4-rasmda AChYu va ChAQUlar bir navbatining sxemasi ko'rsatilgan.

Chastota  $f$  ishga tushish chastotasi  $f_{cr}$  gacha pasayganda IVCh-3 rusimidagi KF relesi o'zining KF1 kontakti bilan KT vaqt relesininig ta'minot zanjirini qo'shadi.

KT relesi ishga tushib, o'zining KT1 kontaktini uzadi. Tok r qarshiligi orqali oqib boshlab, qiyamatini kamaytiradi. Buning hisobiga relening termik turg'unligi bajariladi.

Ko'rيلотган navbatning sabr vaqt o'tgach, vaqt relesining KT2 kontaktlari qo'shiladi va u orqali 1KL, 2KL va 3KL relelariga baravvar ta'minot beriladi.

Rele 1KL, o'zining 1KL1 va 1KL2 kontaktlarini qo'shib, ushbu navbat orqali o'chiriladigan 1-chi va 2-chi fiderlarni o'chirishga impuls yuboradi.

Rele 2KL o'zining ochiluvchi 2KL1 kontakti orqali KLT relesining chulg'am zanjirini uzib yuboradi. Bu rele 1-chi va 2-chi fiderlami o'chirishga yetarli bir oz sabr vaqt bilan KLT1 kontaktini uzadi va 1KL relesini ish holatidan chiqarib qo'yadi.

Buning yordamida 1-chi va 2-chi fiderlarni o'chirishga impuls davomiyligi cheklanadi. Ochilib ketuvchi 2KL2 va 2KL3 kontaktlar yordamida 2KL relesi o'chirilayotgan fiderlarning AQUsidan operativ tokning plyusini uzib tashlaydi.

3KL oraliq relesi 3KL1 kontakti orqali KF relesidagi R, qarshiligining bir qismini shuntlab qo'yadi. Buning oqibatida KF relesining qaytish chastotasi ko'rيلотган navbatning CHAQU qiyamatigacha oshiriladi. Agar chastota shu qiyamatgacha ko'tarilsa, KF relesi dastlabki holatiga qaytadi.


Uning KF1 kontakti orqali KT vaqt relesining ta'minot zanjiri uzeladi. Uning KT2 kontakti ochilib ketadi. 2KL va 3KL relelar chulg'amlari ta'minotsiz qoladi.

2KL oraliq relesi o'zining 2KL2 va 2KL3 kontaktlari yordamida ACHYU orqali o'chirilgan fiderlarni qayta ulash relesini (RPV) ishga tushirib yuboradi. Fiderlar qayta ulanadi.

Agar CHAQUdan so'ng chastota qayta pasaysa, ACHYU ushbu fiderlarni yana, ikkinchi marta o'chiradi. Birinchi CHAQU siklida RPV relesining kondensatorlari zaryadini yo'qtogani sababli, ikkinchi marta qayta ulash bo'lmaydi. Shunday qilib CHAQUning bir marta ishlashi bajariladi.

Quyidagi 7.5-rasmda **qo'shimcha (mahalliy) chastotaviy yuksizlantirishning** qo'llash doirasi va ishslash prinsipini tushuntirish sxemasi ko'rsatilgan.

Unda elektr stansiya ko'rsatilgan bo'lib, uning shinalaridan ta'minot oluvchi iste'molchilarining quvvati stansiya agregatlarining o'natilgan quvvatidan kattadir. Yetishmayotgan quvvatni stansiya tizimdan bog'lanish liniyasi orqali olmoqda.



### 7.5-rasm. Qo'shimcha (mahalliy) chastotaviy yuksizlantirishning ishlash prinsipi

Stansiya shinalaridan ketuvchi liniyalardan ta'minlovchi iste'molchilar toifasi tizimdag'i podstansiyalardan ta'minlovchi iste'molchilar nikidan yuqoriroqdir. Shuning uchun tizimda chastota pasayganda tizimdag'i podstansiyalardagi AChYu-I va AChYu-II lar ishga tushadi.

Ammo tizim bilan bog'lanish liniyasi o'chganda stansiyaning chastotasi pasayib ketadi (agar uning quvvati mahalliy yuklamalarni ta'minlashga yetmasa). Bunda qo'shimcha AChYu qurilmasi ishga tushib, liniyalarning bir qismini, masalan, 1- va 2-liniyalarni o'chiradi.

Qo'shimcha AChYu qurilmasini bunday ishlashi yo'naltirilgan quvvat KW relesi yordamida bajariladi.

Agar chastota pasayganda liniya orqali oquvchi quvvat R tizimdan stansiya tomon yo'nalgan bo'lsa, KW quvvat relesi kontaktini ochiq holatda ushlab turadi. Buning hisobiga KF chastota relesi kontaktini qushishiga qaramasdan operativ tok KL oraliq relesiga o'tmaydi va uning kontaktlari ochiqligicha qoladi. Mahalliy AChYu ishlamaydi va faqatgina tizimdag'i AChYular ishlab, toifasi pastroq iste'molchilarini o'chiradi.


Agar bog'lanish liniyasi o'chib qolsa, unda KW quvvat relesi kontaktini qo'shadi. Stansiyadagi chastota KF chastota relesining ishga tushish qiymatigacha pasaysa, unda u kontaktini qo'shib KL relesini ishga tushirib yuboradi va u L-1 va L-2 liniyalarini o'chirishga impuls yuboradi.

Agar tizimda chastota pasayganda stansiya ortiqcha quvvat mavjud bo'lib, bog'lanish liniyasi bo'yicha quvvat stansiyadan tizim tomon yo'nalgan bo'lsa, unda mahalliy AChYu ishga tushib, tizimdag'i chastotani tiklashga yordam beradi.

## **7.5. Zamonaviy avtomatik chastotani yuksizlantirish qurilmalari**

### **7.5.1. “Sirius-2-AChYu” qurilmasi**

Sirius-2-AChYu avtomatik chastotani pasaytirish qurilmasi (7.6 rasm) chastota pasayganda iste'molchilarni avtomatik ravishda uzib, chastota tiklanganda uzilgan iste'molchilarni avtomatik ravishda qayta ulash orqali aktiv quvvat taqchilligini bartaraf etish maqsadida elektr stansiyalarini va energotizim podstansiyalarida foydalanishga mo'ljallangan.



**7.6-rasm. «Sirius-2-AChYu» - avtomatik chastotani yuksizlantirish qurilmasi**

Qurilma 3-110 (500) kV podstansiyalarida va elektr stansiyalarining boshqaruv pultida va rele zallaridagi shkaflarda va panellarda, shuningdek, taqsimlash punktlarida va podstansiyalardagi KTQ va 6–10 kV li KCO yacheikalarda o'matish uchun mo'ljallangan.

Sirius-2-AChYu qurilmasi quyidagilarni ta'minlab beradi:

- chastotani pasaytirish uchun mo'ljallangan ulanishlarni avtomatik ravishda uzib qo'yish;
- chastota ko'tarilganda uzilgan ulanishlarni avtomatik tarzda ulash;
- bir vaqtning o'zida ikkita bo'limni boshqarish;
- AChYu va ChAQU ning har qanday navbatiga blokirovkani tezkor kiritish;
- har qanday kanallardan kuchlanish yo'qolib qolganda signal berish;
- Tashqi rele signallari bilan ishlashni to'xtatish.

### **7.5.2. “AChYu-MP” chastotaviy avtomatika mikroprotsessor qurilmasi**

«AChYu-MP» chastotaviy avtomatika mikroprotsessor qurilmasi elektr tarmoqlarining ish holatlarni boshqarish va AChYu-I qurilmalarining algoritmlariga muvofiq ishlash uchun mo'ljallangan.

### **Asosiy funksiyalari:**

- ikki kanalgacha analog kuchlanishlarni kiritish;
- ikki donagacha boshqariladigan tok kanallarini kiritish;
- tashqi shovqinni bostirish va signallarning birinchi garmonikasini ajratish maqsadida raqamlashtirilgan kirish signallarini matematik qayta ishlash;
- boshqaruva o'matilgan displayli shaxsiy kompyuter yoki texnologik jarayonlarni boshqarish avtomatikasi yordamida chastotani o'zgarish tezligini, chastota yoki vaqt o'g'ishining integralini va chastota ko'rsatkichlarini o'zgartirish;
- Quyidagi algoritmlarni matematik tatbiq etish: energetika tizimida boshqariladigan quvvatning yetishmasligida chastotani avtomatik pasaytirish (chastotaning og'ishida AChYu-I va AChYu-II yoki chastota og'ish tezligi bo'yicha – AChYu-T);
- Kommutatsiya qurilmalarining mavjud boshqaruva tizimlariga boshqarish harakatlarining chiqishi.

### **Nazorat savollari:**

1. AChYu vazifasi.
2. "Chastota ko'chkisi" nima?
3. "Kuchlanish ko'chkisi" nima?
4. Energotizimda chastota 45 Gsdan past bo'lishi nimaga taqiqlanadi?
5. AChYu tizimi nega bir nechta pog'onali bo'ladi? AChYu iste'molchilami meyordan ortiq o'chirib yuborishi mumkinmi?
6. «Yuklamaning rostplash effekti» nimadan iborat?
7. Asinxron rejim qanday sharoitlarda paydo bo'lishi mumkin?
8. Yuklama rostplash effektining fizikaviy ma'nosi nimada?
9. Chastota qisqa vaqtga pasayganda iste'molchilar noto'g'ri o'chib qolmasligini AChYu sxemasi qanday ta'minlab beradi?
10. AChYu o'matmalarini hisobplash uchun energotizimdagи maksimal quvvat defisisiti qanday aniqlanadi?
11. AChYu-I nima uchun kerak?
12. AChYu-I ning birinchi va oxirgi pog'onalar o'matmalari nimaga teng?
13. ChAQUning chastota va vaqt o'matmalari qanday tanланади?
14. AChYu-II vazifasi nimadan iborat?
15. Qo'shimcha chastotaviy yuksizlantirish tizim faktorlari bo'yicha ishlamasdan, mahalliy faktorlar bo'yicha ishlashi qanday bajariladi?
16. AChYu dan o'chgan liniyalarning avtomatik qayta ulanishi nima uchun taqiqlanadi? Bu AChYu sxemasida qanday bajariladi?
17. ChAQUning vazifasi nimadan iborat?


18. Qo'shimcha (mahalliy) chastotaviy yuksizlantirishning vazifasi nimadan iborat?
19. Qo'shimcha (mahalliy) AChYu faqatgina mahalliy faktorlar bo'yicha emas, balkim energotizimda chastota pasayganda ham ishlashi qaysi holatlarda bo'lishi mumkin?
20. Chastota relesi chastota o'zgarishini qanday «sezadi»?
21. Chastota o'rnatmalarini tanlashda AChYu-I va AChYu-II larning prinsipial farqi nimada?
22. Vaqt o'rnatmalarini tanlashda AChYu-I va AChYu-II larning prinsipial farqi nimada?
23. Chastota relesida chastota o'rnatmasini qanday o'zgartirish mumkin?
24. AChYu sxemasida ChAQU qachon va qanday bajariladi?
25. Chastota relesida qaytish chastotasi qanday o'rnatiladi?
26. AChYu-Ining pog'onalar soni qanday topiladi?

## VIII BOB. AVARIYANING OLDINI OLİSH AVTOMATİKASI

### 8.1. Asinxron rejim

Parallel ishlayotgan generatorlar yoki tizimlar orasida turg'unlik buzilsa, asinxron rejim paydo bo'ladi. Asinxron rejim liniyaning qayta ulanishi nosinxron bajarilganda ham paydo bo'lishi mumkin.

Quyidagi sxema (8.1-rasm) misolida asinxron rejim qanday kechishini ko'rib chiqamiz:



**8.1-rasm.** Asinxron rejimning paydo bo'lishi:  
 a) elektr tarmog'inining prinsipial sxemasi;  
 b) ekvivalent almashtirish sxemasi.

Normal ish rejimida stansiya tizimga quvvat beradi:

$$P = \frac{E_g \cdot E_t}{X_{\Sigma}} \cdot \sin \delta, \quad (8.1)$$

bu yerda  $E_g$  – stansiya generatorlarining EYuKi;  $E_t$  – tizim EYuKi;

$X_{\Sigma}$  – stansiyadan tizimga uzatilayotgan quvvat yo'lidagi umumiy qarshilik;  $\delta$  – generator va tizim EYuKlari orasidagi burchak.

$$X_{\Sigma} = X_{st} + X_l + X_t, \quad (8.2)$$

bu yerda  $X_{st}$  – stansiya qarshiligi;


$X_l$  – liniya qarshiligi;

$X_t$  – tizim qarshiligi.

Bunda burchak

$$\delta = \arcsin \frac{P_X}{E_q \cdot E_c} \sum \quad (8.3)$$

Misol uchun, K nuqtada qisqa tutashuv sodir bo‘lib, turg‘unlik buzilsa, stansiya agregatlarida yuklama tushib ketadi va ularning tezligi oshib ketadi, tizimdagi agregatlar esa stansiyadan tizimga quvvat  $P$  kelishi to‘xtay boshlaganligi uchun tormozlanib boshlaydi.



8.2-rasm. Sinxron generatoring burchak xarakteristikasi

Elektr stansiya va tizim aggregatlari orasida sirpanish chastotasi deb ataluvchi chastotalar farqi paydo bo‘ladi:  $f_s = f_g - f_t$ .

Sirpanish chastotasi hisobiga asinxron yurish paydo bo‘ladi.  $\delta$  burchagi uzuksiz o‘zgaradi:

$$\delta = 2\pi f_s \cdot t \quad (8.4)$$

Vaqti-vaqti bilan u  $180^\circ$  ga ham tenglashishi mumkin. Bu holatga mos diagrammani yuqoridagi rasmda ko‘rish mumkin.

Tizimning turli nuqtalarida kuchlanish  $E_q$  dan  $E_t$  gacha o‘zgarishi mumkin va shu sababli tarmoqning ayrim nuqtasida kuchlanish nolga teng bo‘ladi. Bu nuqta tebraniishlarning elektr markazi (TEM) deb nomlanadi.

Asinxron yurish rejimida tenglashtiruvchi tok paydo bo‘ladi:

$$J_{\text{max}} = \frac{2E}{X_1} \cdot \sin \frac{\delta}{2}, \quad (8.5)$$

bunda  $E_q = E_t = E$

Bu tokning maksimal qiymati generator chiqishidagi qisqa tutashuv toki qiymatidan katta bo'lishi mumkin.


$$P = \frac{E_q \cdot U_s}{X_\Sigma} \cdot \sin \delta \quad (8.6)$$

Asinxron yurish vaqtidagi uzatilayotgan quvvat  $\delta$  burchagi o'zgarishi hisobiga o'zining qiymatini va ishorasini davriy o'zgartiradi. Natijada quvvatning o'rtacha qiymati nolga teng, ya'ni liniyadan **quvvat uzatilmaydi**.

Asinxron yurish uzoq davom etishiga ruxsat berilmaydi. Shuning uchun **asinxron yurishni tugatish** va **sinxronizmni tiklash** uchun bir qator maxsus tadbirlar amalga oshiriladi:

- yuqori chastota bilan ishlayotgan stansiyaning agregatlar quvvatini tezkor kamaytirish yoki ayrimlarini o'chirish;
- tizimning past chastota bilan ishlayotgan qismida qaynoq rezerv hisobiga generatorlarning quvvatini oshirish;
- sovuq rezerv holatida bo'lgan gidrogeneratorlarni chastotaviy ishga tushirish yoki sinxron kompensator rejimida ishlayotgan gidrogeneratorlarni generator rejimiga o'tkazish;
- tizim iste'molchilarini qisman o'chirish.

Aytish joizki, bir qator holatlarda **asinxron yurishni to'xtatish avtomatikasiga** (AYuTA) kiruvchi ushbu tadbirlar yordamida resinxronlashni ta'minlab berishga imkoniyat bo'lmaydi. Masalan, quyidagi 8.3-rasmda shunga mos vaziyat keltirilgan:



**8.3-rasm. Asinxron yurishni to'xtatish avtomatikasi**

S1 tizimidan S2 tizimiga quvvat, asosan, L-1 liniyasi orqali beriladi. L-2, L-3 va L-4 liniyalarning o'tkazish qobiliyati unchalik katta emas va ular 2-chi va 3-chi podstansiyalardagi iste'molchilarga ta'minot yetkazib berish uchun mo'ljallangan.

Shu sababli L-1 liniyasi o'chganda qarshilik keskin oshib ketadi va asinxron rejim paydo bo'lishi muqarrar. Bu holatda yuqoridagi tadbirlar yordamida asinxron rejimni deyarli resinxronlab bo'lmaydi va **AYuTAni** ishlatalishdan foyda yo'q.

Bunday vaziyatlarda tizim oldindan belgilangan nuqtada **nosinxron qismlarga** bo'linadi. Asinxron rejimni paydo bo'lishini aniqlash va bartaraf etish **asinxron holatni avtomatik tughatish (AHAT)** qurilmasi yordamida bajariladi.

AHAT butun energetika tizimi turg'unligini ta'minlovchi murakkab va muhim tizim hisoblanadi. AHAT ishlash prinsiplari qo'zg'atuvchi qurilmalarning fiksatsiyalari turlari bo'yicha farqlanadi.

- qarshilikning kamayish tezligi (AHAT FQKT): asinxron rejimga xos kuchlanishning sekin pasayishi va tokning oshishiga (quvvat yo'naliishing o'zgarishi davomida chegaralangan tezlik bilan tizimning kompleks qarshiligining pasayishiga) ta'sir ko'rsatadi.

- elektr energiyasini uzatishning fazaviy burchagini oshirish (AHAT FFBO): tarmoqdagi boshqaruv nuqtalarida faza kuchlanishlari oshishi bilan asinxron yurish boshlanganligini ko'rsatadi.

- asinxron rejimni sikllarini ko'rsatadi (AHAT FAS): asinxron yurishning boshlanganligini qarshilik relesining (yoki maksimal tok relesi) sikl bo'yicha ishlashi va u bilan birga aktiv quvvat relesining ishlash va qaytish davrlarini ko'rsatadi.

- fazai tokini (AHAT FT).

Odatda, AHAT qurilmasi bir nechta ishlash bosqichlaridan iborat bo'lib, ularning qo'zg'atuvchi qurilmalarini ishga tushirish bosqichlari turlicha.

Masalan, MODUS firmasining AHAT-S qurilmasi to'rtta aniqlovchi organni o'z ichiga oladi:

- burchakni aniqlovchi organ (BAO);
- siklni aniqlovchi organ (SAO);
- tokni aniqlovchi organ (TAO);
- qisqa tutashuv vaqtida generatorni asinxron rejimga o'tganligini ko'rsatuvchi organ (QTAO).

AHAT tarmoqdagi tebranishlarning paydo bo'lishini aniqlaydi va energotizimdagi liniyalarning bir qismini uzib, uni avtonom ishlaydigan qismlarga ajratadi.


Bu holatda AHAT tarmoqni bo'lishga ishlaydi.

Shu bilan birga AHAT yuklamani o'chirish maxsus avtomatikasi, energetika tiziminining quvvat yetishmagan qismida AChR va quvvat ortiqcha qismida generatorlarni o'chirish avtomatikasi bilan ishlaydi.

Ajratilgan qismlar normal ish holati o'matilgandan so'ng, ya'ni ularning chastotalarini tenglashtirilgandan so'ng, ularning orasidagi liniyalar ulanishi sodir bo'ladi va energotizimning butunligi tiklanadi.

Tehrannshlar sikllari sonini ko'rsatuvchi oddiy АИАТ turini ko'rib chiqmiz.

## 8.2. Asinxron holatlari avtomatik tugatish




8.4-rasm. Tizimni avtomatik ravishda asinxron qismlarga bo'lish sxemasi

8.4-rasmida tizimni nosinxron qismlarga avtomatik ajratish sxemalaridan biri keltirilgan. Bu sxema asinxron yurishning davrlarini hisoblab, ularning to'rtinchisida tizimni nosinxron qismlarga ajratuvchi uzgichga impuls berib yuboradi.

Asinxron yurish davomida paydo bo'lgan tenglashtiruvchi tok uchala fazada quyidagicha o'zgaradi:

$$J_{tg} = \frac{2E}{X_{\Sigma}} \cdot \sin \frac{\delta}{2} = J_{tg, \max} \sin \frac{\omega_s t}{2} \quad (8.6)$$

Bu tokning to'rtta davri quyidagi rasmda ko'rsatilgan. KA(A), KA(B), KA(C) tok relelarining ishga tushish  $J_{ish}$  va qaytish  $J_q$  toklari ham ushbu rasmda ko'rsatilgan.



8.5-rasm. Tenglashtiruvchi tokning davrlari

Sxema quyidagicha ishlaydi.

Tenglashtiruvchi tok KA relesining ishga tushish tokiga tenglashganda (1-nuqta), uchala fazadagi tok releleri KA(A), KA(B) va KA(C) kontaktlarini qo'shadi.

KL oraliq relesi ta'minot oladi va kontaktlarini rasmda ko'rsatilganga teskari holatga mos o'zgartiradi. Shunda **1KL** oraliq relesi ta'minot olib, o'ttadagi kontaktlari orqali **o'zini-o'zi ushash** holatiga turadi.

Tenglashtiruvchi tok KA relesining  $J_q$  qaytish tokiga tenglashganda (2-chi nuqta) KA(A), KA(B) va KA(C) relelari kontaktlarini ajratib yuboradi.

KL oraliq relesining ta'minoti yoqoladi. Uning pastki kontakti va **1KL** relesining pastki kontakti orqali KT vaqt relesi ta'minot olib, kontaktini qo'shadi.

Bu relening o'matmasi 2-3 soniyaga teng olingan. Zamonaviy energotizimlarda asinxron yurishning bir davri odatda 0,2-0,3 soniya davom etadi. Shuning uchun tenglashtiruvchi tok qayta  $J_{ish}$  qiymatiga (3-chi nuqta) etib kelguncha KT vaqt relesi ishga tushishga ulgurmaydi.

2-nuqtada KL relesining pastdan uchinchi kontaktlari va **1KL** relesining tepadagi kontaktlari orqali **2KL** relesi ta'minot oladi va ishga tushib, **o'zini-o'zi ushash** holatiga turib oladi.

3-nuqtada yana KA va KL relelari ishga tushadi. KLning pastki kontakti orqali KT relesining ta'minot zanjiri uziladi va u ishga tushishga ulgurmasdan dastlabki holatga qaytadi.

KL relesining pastdan to'rtinchchi kontaktlari va **2KL** relesining tepadagi kontakti orqali **3KL** oraliq relesi ta'minot olib, **o'zini-o'zi ushash** holatiga turadi.

Ko'rimib turibdiki, **asinxron yurish davom etaversa**, 4-nuqtada **4KL** oraliq relesi ishga tushib, **o'zini-o'zi ushash** holatiga turib oladi, 5-nuqtada esa – **5KL** relesi va sh.k. Asinxron yurishning har bir davrida KT vaqt relesi ishga tushadi, ammo kontaktlarini qo'shishga ulgurmay, dastlabki holatiga qaytadi.

Asinxron yurishning **to'rtinchchi davrida** (7-nuqta) **7KL** relesi ta'minot oladi va ishga tushib **uzgichni o'chirishga impuls** yuboradi.

Shundan so'ng liniyada tok yoqoladi va KA tok relelari uzoq vaqt davomida ta'minotsiz qoladi. Buning oqibatida KT vaqt relesining ta'minoti uzoq vaqt davomida uzilmaydi va u kontaktlarini qo'shadi.

Shunda operativ tokning plyus ishorali potensiali **o'zini-o'zi ushab** turgan **1KL+6KL** relelar chulg'amlarining ham boshlanishiga, ham ohiriga beriladi va ushbu chulg'amlar orqali tok oqishi to'xtaydi. Relelar va butun sxema dastlabki holatga qaytadilar.

KT relesi kontaktlarini qo'shganda operativ tok zanjirida qisqa tutashuv bo'imasligi uchun unga tok qiymatini cheklovchi *r* qarshiligi kiritilgan.

**Asinxron yurish to'rtinchchi davrgacha tugab qolsa** oraliq relelarining faqatgina bir qismi ishga tushib **o'zini-o'zi ushab** turishga ulgurgan bo'ladi. Keyinchalik vaqt relesi ishga tushganda, u sxemani dastlabki holatiga qaytaradi.

Bo'rnolalar davrida yashinlar liniyaga qayta-qayta urib turishi holatlari amalda uchrab turadi.

Agar tizimni nosinxron qismlarga bo'lish avtomatikasida KA tok relesi faqat bir fazada ishlatilganda, unda har bir yashin razryadida uzgich o'chib qolaverar edi. Buning oldini olish uchun tok relelari uchchala fazaga qo'yiladi va ularning kontaktlari ketma-ket ulanadi.

Liniyaning uchchala fazasiga baravvar uradigan chaqmoqlar amalda uchramaydi va shu tariqa ushbu faktor bo'yicha sxemaning noto'g'ri ishlash holatlari bo'lishi mumkin emas.

Ko'rib chiqilgan AHAT sxemasida **faza toklari ishlatilganligi** uchun bu sxema tokli AHAT sxemasi deb ataladi. Bundan boshqa, murakkabroq sxemalar ham mavjud. Ularda liniya qarshiliklari, liniyaning boshi va oxiri orasidagi burchak va sh.k. ishlatininadi.

Zamonaviy AHAT sxemalari mikroprotsessор texnikasi asosida bajariladi.

#### **AHAT ishlagandan so'ng energotizimda nima sodir bo'ladi?**

Energotizim ikkita asinxron qismlarga ajraladi:

- quvvat tanqisligi mavjud bo'lgan, chastota pasayuvchi va AChR ning ishlaydigan qismi. Agar quvvat tanqisligi ancha katta bo'lsa, AChR ning ishlashi foydasiz bo'lishi mumkin. Buni bartaraf etish uchun AHAT ishlagandan keyin, qoida bo'yicha, oldindan tanlab olingen liniyalarni uzish uchun AHAT ishga tushadi, bu quvvat tanqisligini kamaytirish va AChR ning ishonchli ishlashini ta'minlab beradi.

- ortiqcha quvvat bo'lgan, chastota oshadigan qism. Yuqori chastota generatorlarga xavfli hisoblanadi va uni pasaytirish uchun oldinda tanlab olingen generatorlarni uzish avtomatikasi ishlaydi.

Energotizim dispetcheri tomonidan chastotani rostlash bo'yicha chora ko'riganidan so'ng, u energotizimdagagi ajralgan qismlami sinxronizatsiyalash uchun buyruq beradi, ya'ni AHAT tomonida o'chirilgan liniyalarni sinxronizmni tekshirib ulash uchun.

Loyiha bo'yicha AHAT o'matilishi kerak bo'lgan ammo o'matilmagan liniyalarni ishlash taqiqlanadi. Shuning uchun AHAT remontga chiqqan holatda yoki uning ishlamaslik holatida liniyaning boshqa tarafida o'matiladigan zaxira AHAT kompleksi ko'rib chiqiladi.


### **8.3. Asinxron rejimlarni bartaraf etuvchi zamonaviy raqamli avtomatika qurilmalari**

Quyida «Rossiya YET» RAJ tomonidan tasdiqlangan va buyurtma asosida va texnik topshiriq bo'yicha tayyorlangan AHAT-S qurilmasi (8.6 rasm) ko'rsatilgan:

Qurilma «Rossiya YET» RAJ MVK tomonidan 2002 yilda qabul qilingan va loyihalovchi institutlarga, energetika tizimlariga va yangi qurilishlarda ishlatiadigan elektr tarqmoqlari korxonalariga va 110-500 kV kuchlanishli energoobyektlarni rekonstruksiya qilish uchun hamda energotizim ishonchliligini ta'minlash uchun ishlatishtga tavsiya beriladi.

Qurilma Rossiya Davlat standartining muvofiqlik sertifikatiga, Ukrainianing Yoqilg'i va energetika vazirligi to'g'risida DonORGRES ekspert xulosasiga ega.

Ishlab chiqruchchi: «DTEUITI» OAJ, Shimoli-g'arbiy BDI, «Modus» IIK MChJ.



**8.6-rasm. AHAT-S qurilmasi**

#### **8.4. Liniyani o‘ta kuchlanishlardan himoyalash avtomatikasi**


Quyidagi (8.7.a) va (8.7.b) rasmlarida yuqori kuchlanishli liniya va uning T-shakldagi almashtirish sxemasi ko‘rsatilgan. Bunday almashtirish sxemasini uzunligi 200-300 kmdan oshmagan liniyalar uchun ishlatalish mumkin. Uzunroq liniyalar uchun aslida taqsimlangan induktiv va sig‘im qarshiliklarini jamlangan qarshiliklar orqali ifodalash noto‘g‘ri bo‘ladi.

Oxirgi (8.7.v) rasmda esa B podstansiyasi tomonidagi uzbek orqali o‘chirilgan liniya uchun almashtirish sxemasi keltirilgan.

$E_{tiz}$  va  $X_{tiz} - A$  nimstansiyasi kuchlanishiga keltirilgan tizimning EYuK va induktiv qarshiligi.



a)



c)



d)

**8.7-rasm. Yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasining sxemasi:**

a) EUL ning principial sxemasi; b) EUL ning almashtirish sxemasi;

v) B podstansiyasi tomondagи EUL uzbek orqali o'chirilgandagi almashtirish sxemasi.

Liniyaning o'chiq turgan uchidagi kuchlanishi topamiz.

Bu holatda tok oqib o'tuvchi zanjirning umumiyligi

$$X_{\Sigma} = X_t + X_{L/2} - X_c \quad (8.7)$$

unga mos tok esa –

$$I = \frac{E_t}{X_t + X_{L/2} - X_c} \quad (8.8)$$

Liniyaning o'chirilgan uchidagi  $U_0$  kuchlanishi ((8.7.v) rasmi) "a" nuqtaning kuchlanishi bilan bir hil bo'ladi, ya'ni

$$U_o = I * (-X_c) = \frac{E_t * (X_c)}{X_t + X_{L/2} - X_c} \quad (8.9)$$

Ifodaning surati bilan maxrajini ( $-X_c$ ) ga bo'lib, quyidagini hosil qilamiz:

$$U_o = \frac{E_t}{1 - \frac{X_t + X_{L/2}}{X_c}} \quad (8.10)$$

Bu ifodadan liniya qanchalik kalta bo'lsa (ya'ni  $X_l$  kichikroq) va tizimning quvvati qanchalik katta bo'lsa (ya'ni  $X_{tz}$  kichikroq), liniyaning uchidagi  $U_K$  kuchlanishi shunchalik kichik bo'lishi va uning aksi ham kelib chiqadi.

Liniyaning boshida, ya'ni A podstansiyasining chiqishida kuchlanish quyidagicha topiladi:

$$U_B = I * (-X_c + X_{L/2}) = \frac{E_t * (X_{L/2} - X_c)}{X_t + X_{L/2} - X_c}, \quad (8.11)$$

yoki

$$U_B = \frac{\frac{E_t}{X_t}}{1 - \frac{X_t}{X_c - X_{L/2}}} \quad (8.12)$$

Liniyaning induktiv va sig'im qarshiliklarini solishtiramiz:

Liniyaning sig'im qarshiligi

$$X_c = 1/b_s = 1/b_o L, \quad (8.13)$$

bu yerda  $b_o$  – liniyaning solishtirma sig'im o'tkazuvchanligi,

L- liniya uzunligi.

Liniyaning induktiv qarshiligi

$$X_l = X_o L \quad (8.14)$$

Yuqori kuchlanishli liniyalarda sig'im qarshiligi induktiv qarshiligidan ancha katta bo'ladi ( $X_s > X_l$ ).

(2) ifodasidan ko'rinish turibdiki, tizim quvvati qanchalik kichik bo'lsa (ya'ni  $X_{sist}$  katta) va liniya qanchalik uzun bo'lsa (ya'ni  $X_l$  katta), liniyaning boshidagi  $U_A$  kuchlanishi shunchalik katta bo'ladi (liniya qarshi tarafdan o'chirilganda A nimstansiyasining shinalaridagi kuchlanish).

Misol sifatida uzurligi 250 km, 3xAC-500 markali simdan tayyorlangan 500 kVli liniyaning boshidagi  $U_B$  va oxiridagi  $U_o$  kuchlanishlarini topamiz.

3xAC-500 simi uchun  $X_o = 0,295 \text{ Om/km}$  va  $b_o = 3,79 \cdot 10^{-6} \text{ Om/km}$ .

Uzunligi 250 km uchun:

$$\frac{X_L}{2} = \frac{0,295 \cdot 250}{2} = \frac{73,75}{2} \text{ Om}$$

$$X_o = \frac{1}{b_o} = \frac{1}{3,79 \cdot 10^{-6}} = 264000 - \text{Om/km}$$

$$X_c = \frac{1}{b_o L} = \frac{264000}{250} = 1056 \text{ Om}$$

Tizimning qisqa tutashuv quvvatining turli qiymatlari uchun (A podstansiya shinalaridagi qisqa tutashuv) quyidagilarni hosil qilamiz:

$$S_{q,tiz}=10^4 \text{ MVA}, \text{ tizim qarshiligi } X_{tiz}=U_{tiz}^2/S_{q,tiz}=500^2/10^4=25 \text{ Om}$$

$$U_o = \frac{500}{1 - \frac{25 + 73,75}{1056}} = 531 \text{ kV}; \quad U_B = \frac{500}{1 - \frac{25}{1056 - 73,7512}} = 512,6 \text{ kV};$$


$$S_{q,tiz}=25 \cdot 10^2 \text{ MVA}, \text{ tizim qarshiligi } X_{sist}=500^2/25 \cdot 10^2=100 \text{ Om}$$

$$U_o = \frac{500}{1 - \frac{100 + 73,7512}{1056}} = 574,5 \text{ kV} \quad U_B = \frac{500}{1 - \frac{100}{1056 - 73,7512}} = 554 \text{ kV};$$

330-500 kVli liniyalarda uzoq muddat (20-30 daqiqadan ortiq) davom etuvchi 1,15U<sub>r</sub> dan yuqori kuchlanish ko'tarilishi tavsiya etilmaydi, chunki bunday holatda paydo bo'ladigan tojlanish bu liniyalar bo'yicha o'tuvchi yuqori chastotali aloqa kanallariga xalaqtirish kiritadi.

Bunday liniyalarda kuchlanish ko'tarilishini cheklash uchun **shuntlovchi reaktorlar** o'matiladi. Ular liniyalarga (8.8-a-rasm) yoki podstansiya shinalariga (8.8.b-rasm) ulanadi.

Reaktiv quvvat iste'mol etuvchi bu reaktorlar kuchlanishni pasaytiradi hamda liniya bir tomondan ulanganda rezonans paydo bo'lish ehtimolini bartaraf etadi yoki uni jiddiy darajada kamaytiradi.



**8.8-rasm. Shuntlovchi reaktorlarning ulanish sxemalari:**  
a) EUL ga ulanadigan; b) podstansiya shinasiga ulanadagan

Eng yuqori kuchlanishlar liniya kuchlanish manbasiga bir tomondan ulanganda paydo bo'ladi (bir tomonlama ulanish rejimi). Bunday rejim liniyani sinxronlash

uchun ulanganda paydo bo'lishi mumkin va 5-10 daqiqadan ko'p davom etishi mumkin.


Liniyaning bir tomonlama ulanish rejimi liniya bir tomonlama o'chganda yoki liniyaning bir tarafida AQU ishlaganda ham paydo bo'ladi.

Liniyalardagi **kuchlanish oshishini avtomatik cheklash** (KOACH) ikki pog'onali bajarilib, uchta asosiy organdan tashkil topgan:

- ishga tushirish organi;
- reaktiv quvvat tanlash organi;
- sabr vaqt organi.

**Ishga tushish organi** sifatida liniya kuchlanish transformatorlarining faza kuchlanishlariga ulangan kuchlanish reteleari ishlatalidi:

- KV1- KVZ – sezgir pog'onasi uchun;
- KV4- KV6 – dag'al pog'onasi uchun.



8.9-rasm. Kuchlanish oshishini avtomatik cheklash qurilmasi (KOACH)

**Sezgir pog'onaning ishga tushish kuchlanishi** maksimal ishchi kuchlanishga nisbatan sozlanadi:

$$U_{C1} = k_{soc} \frac{U_{ish\ max}}{k_k}, \quad (8.13)$$

bu yerda  $k_{soc} = 1,05 - 1,1$  – sozlash koefisiyenti;

$U_{ish\ max}$  – maksimal ishchi kuchlanish;

$k_k$  – kuchlanish relesining qaytish koefisiyenti.

Kuchlanish oshishini cheklash avtomatikasining birinchi pog'ona sezgirligini oshirish uchun qaytish kuchlanishi kattaroq kuchlanish relesini ishlatalish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinci, **dag' al pog'onaning ishga tushish kuchlanishi** shunday tanlanadiki, ushbu kuchlanish birinchi pog'onaning ishi davomida ruxsat etilgandan oshmasligi kerak. Odatda, bu kuchlanish quyidagi olinadi:

$$U_{C2} = (1,2 \div 1,4) U_{ish\ max} \quad (8.14)$$

Kuchlanish oshishini cheklash avtomatikasining **tanlash organi** kuchlanish oshishi sababi bo'lgan bir tomonloma o'chgan liniyani aniqlaydi. Aniqlashning prinsipi shundan iboratki, bunday liniyada **reaktiv quvvat** liniyadan **nimstansiya shinalari tomon**, nimstansiyadan ketuvchi qolgan liniyalarda esa – **tizim tomon** yo'nalgan bo'ladi.

Sxemada tanlash organlari sifatida KW1-KW3 reaktiv quvvat releleri ishlataligan. Ular nimstansiya shinalari tomon yo'nalgan reaktiv quvvatni har bir fazada qiymatlarini qayd qiladi.

Kuchlanish oshishini cheklash avtomatikasi qurilmasida sezgirlik burchagi 75 – 105° oralig'ida rostlanadigan reaktiv quvvat releleri ishlataladi. Relening maksimal sezgirlik burchagi shunday tanlanadiki, ulangan va bir muncha yuklanishga ega liniyadan berilayotgan aktiv quvvat releta tormozlovchi ta'sir ko'rsatishi kerak. Bunday sozlashda rele normal rejimlarda noto'g'ri ishlab ketishi ehtimoli kamayadi.

Avval aytilganday, kuchlanish oshishini cheklash avtomatikasi **ikki navbatli ta'sir etishga** ega.

**Birinchi navbatida** sxema ishga tushgach, **KL1** oraliq relesi **KT1** vaqt relesini ishga tushirib yuboradi. Undagi **KT1.2** sirpanuvchi kontaktining sabr vaqt o'tganidan so'ng, avtomatikaning sezgir pog'onasi **KL2** oraliq relesi yordamida shuntlovchi reaktorni ulaydi. Bu sabr vaqt liniyada paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli o'ta kuchlanishlardan sozlanish uchun mo'ljallangan (masalan, nosimmetrik qisqa tutashuvlar rejimidagi liniya orqali o'tuvchi chayqalishlarda).

Agar shuntlovchi reaktor ulanishi o'ta kuchlanishlarni ruxsat etilgan qiymatgacha kamaytirmasa, unda vaqt relesining **KT1.3** kontakti belgilagan sabr vaqt o'tgach, o'ta kuchlanishlarning sababi bo'lgan liniyani o'chirishga signal yuboriladi.

Kuchlanish oshishini cheklash avtomatikasi kuchlanish ( $1,2 \div 1,4$ )  $U_{ish}^{max}$  qiymatidan yuqori kuchlanishni qayd etsa, uning **ikkinci navbat** ishga tushadi va **KT2** vaqt relesidagi kichik qiymatga ega sabr vaqt o'tganidan so'ng liniyani o'chirishga signal beradi. Bu sabr vaqt qisqa muddatli kommutasion o'ta kuchlanishlardan sozlangan bo'lib, 0,1-0,5 soniyaga teng olinadi. Liniya o'chirilganda AQU ishlashi taqiqlanadi.

500 kV va undan ziyod kushlanishli liniyalarni kuchlanish oshishini cheklash avtomatikasiz ishlatish taqiqlanadi. Buning sababi shundaki, liniya o'chganda uning qayta ulash davrida kuchlanish oshib ketishi oqibatida yuqori kuchlanish uskunalariga ziyon etishi mumkin.

### Nazorat savollarari:

1. Asinxron rejim qanday sharoitlarda paydo bo'lishi mumkin?
2. Asinxron rejimdagi tebranishlar elektrik markazining fizikaviy ma'nosi nimada?
3. Tizimlararo liniyalarda asinxron rejim paydo bo'lganda, ular orqali aktiv quvvatni nega uzatib bo'lmaydi?
4. Asinxron rejim uzoq davom etishi nega mumkin emas?
5. Asinxron ishlashni to'xtatish avtomatikasi yordamida resinxronlash nimadan iborat?
6. Asinxron rejimni tugatish avtomatikasi (AHAT) qanday holatlarda ishlatiladi?
7. AHAT nimalarga ta'sir etadi (ta'sir etish tadbirlari)?
8. Asinxron rejimni tugatish avtomatikasi (AHAT)da sikllar schetchigi nimaga kerak?
9. Tok prinsipidagi AHAT R sxemasida asinxron rejimning sikllar soni qanday aniqlanadi?
10. Agar AHAT sxemasida ko'zda tutilgan asinxron ishlash sikllar soni o'tib bo'lmasdan asinxron rejim tug'ab qolsa, AHAT sxemasi qanday ishlaydi?
11. Liniyada qisqa tutashuv bo'lganda AHAT sxemasining noto'g'ri ishlashini oldini olish qanday bajarilgan?
12. Tokli AHAT sxemasida sikllar sonini aniqlashda vaqt relesining ahamiyati nimada?
13. Uzgich o'chirilishiga signal ketgandan so'ng tokli AHAT sxemasi dastlabgi holatiga qaytishi qanday bajariladi?
14. O'ta kuchlanishni cheklash avtomatikasi (KOACH) qanday liniyalarda ishlatilishi shart?
15. 500 kVli liniyani bir tornonlama o'chishi/ulanishi qanday xavf tug'diradi?
16. Liniyalar bir tomonlama o'chirilganda/ulanganda kommutasion o'ta kuchlanishlar muammosi qanclay yechiladi?
17. Uzunroq yoki kaltaroq bo'lgan liniyalardan qaysi birida kattaroq o'ta kuchlanishlar mavjud?

18. O'ta kuchlanishni cheklash avtomatikasining (KOACH) vazifasi nimadan iborat?
19. O'ta kuchlanishni cheklash avtomatikasi (KOACH)ning birinchi pog'onasi qachon ishlaydi?
20. O'ta kuchlanishni cheklash avtomatikasi (KOACH)ning ikkinchi pog'onasi qachon ishlaydi?
21. Nimstansiyaada kuchlanish oshib ketishining sababchisi bo'lmish liniyani avtomatik tarzda qanday aniqlashadi?
22. O'ta kuchlanishni cheklash avtomatikasi (KOACH) nega ikki pog'onali bajariladi?
23. Energotizimning normal ishlash rejimida o'ta kuchlanishni cheklash avtomatikasining (KOACH) noto'g'ri ishlashining oldini olish qanday bajariladi?
24. O'ta kuchlanishni cheklash avtomatikasi (KOACH) sxemasi ishlaganda AQU nega taqiqlanadi?
25. O'ta kuchlanishni cheklash avtomatikasiz (KOACH) 500 kV liniyalarni ishlatish nega taqiqlanadi?

## ILOVA

### Ishlatishda foydalaniladigan elektr tizimidagi harf-raqamli belgilanishlar (GOST 2.710)

#### Eng keng tarqalgan elementlarning harfli kodlari

<b>Kodning birinchi xarfi (majburiy)</b>	<b>Element turlarining guruhi</b>	<b>Element turlarining na'munasi</b>
<b>A</b>	Qurilma	Kuchaytirgichlar, telekontrol qurilmalari, lazerlar
<b>B</b>	Noelektr qiymatlarni elektr qiymatlarga yoki aksincha o'zgartirgichlar (Generator va kuchlanish manbayidan tashqari) yoki ko'prazryadli o'zgartirgichlar yoki o'chash hamda ko'rsatish uchun qo'llaniladigan datchiklar	Karnaylar, mikrofonlar, termoelektrik sezgir elementlar, ionlashtiruvchi nurlanish detektorlari, pikaplar, selsinlar
<b>C</b>	Kondenstaorlar	
<b>D</b>	Mikroyigishlar, integral sxemalar	Analog va raqamli, mantiqiylar elementlar, xotira qurilmalari, kechiktiruvchi qurilmalar
<b>E</b>	Har xil elementlar	Yoritish moslamalari, isitish elementlari
<b>F</b>	Razryadniklar, saqlagichlar, himoyalovchi qurilmalar	Tok va kuchlanishdan himoya qiluvchi diskret elementlar, eruvchan saqlagichlar, razryadniklar
<b>G</b>	Generatorlar, kuchlanish manbalari	Batareyalar, akkumlyatorlar, elektrokimyoiy va elektrotermik manbalar
<b>H</b>	Ko'rsatkich va signalizatsiya moslamalari	Ovozli va chiroqli signalizatsiya moslamalari, ko'rsatkichlar
<b>K</b>	Rele, kontaktorlar, ishga tushirgichlar	Tok va kuchlanish relesi, elektroissiqlik relesi, vaqt relesi, kontaktorlar, magnitli ishga tushirgichlar

<b>L</b>	Induktiv g'altaklar, drossellar	Lyuminessent yoritish drossellari
<b>M</b>	Dvigatellar	O'zgarmas va o'zgaruvchan tok dvigatellari
<b>P</b>	O'Ichovchi qurilmalar, priborlar	Ko'rsatuvchi, qayd qiluvchi va o'Ichovchi priborlar, hisoblagichlar, soatlar
<b>Q</b>	Kuch zanjirlaridagi uzbekch va ajratkichlar	Ajratkichlar, qisqa tutashtirgichlar, avtomatik uzbekchlar
<b>R</b>	Rezistorlar	O'zgaruchan rezistorlar, potensiometrlar, varistorlar, termorezistorlar
<b>S</b>	Boshqarish, signal berish va o'Ichash zanjirlaridagi kommutatsion qurilmalar	Uzbekchlar, kalitlar, turli xil ta'sirlardan ishga tushadigan uzbekchlar
<b>T</b>	Transformatorlar, avtotransformatorlar	Tok va kuchlanish transformatorlari, stabilizatorlar
<b>U</b>	Elektr miqdorini elektr, aloqa moslamalariga o'zgartirgichlar	Modulyatorlar, demodulyatorlar, diskriminatorylar, invertorlar, chastota o'zgartirgichlar, to'g'irlagichlar
<b>V</b>	Elektrovakuum priborlar, yarim o'tkazgichlar	Elektron lampalar, diodlar, tranzistorlar, tiristorlar, stabilitronlar
<b>W</b>	O'ta yuqori chastotali elementlar va liniyalar, antennalar	To'lqin qo'llannmalari, dipollar, antennalar
<b>X</b>	Aloqa ularishlari	Pins, rozetkalar, ajratib olinmaydigan bo'g'inlar, kollektorlar
<b>Y</b>	Elektromagnit qo'zg'atuvchi mexanik qurilmalar	Elektromagnit muftalar, tormozlar, patronlar
<b>Z</b>	Terminal qurilmalari, filtrlar, chekllovlar	Modellashtirish liniyalar, kvars filtrlari

**Ikki va uch harfli kodlarning namunalari**

<b>Kodning birinchi xarfi (majburiy)</b>	<b>Elementlar turlarining guruhi</b>	<b>Element turlariga na'munalar</b>	<b>Xarfli kod</b>
<b>A</b>	<b>Qurilma (umumiy belgilanishi)</b>	Tok rostlagichi*	<b>AA</b>
		Bajaruvchi mexanizm yuritmalari*	<b>AB</b>
		ZAU qurilmalari*	<b>AC</b>
		Chastota rostlagichlar *	<b>AF</b>
		Rele himoya qurilmalari (to'liq)*	<b>AK</b>
		KRB turidagi blokirovkalash qurilmasi*	<b>AKB</b>
		AQU qurilmasi*	<b>AKS</b>
		EUL nib o'ylama differensial himoya qilish uchun to'liq qurilma*	<b>AKV</b>
		Qarshilik relesining to'liq qurilmasi*	<b>AKZ</b>
		UROV relesining to'liq qurilmasi*	<b>AR</b>
		Kuchlanishni rostlash qurilmasi*	<b>AV</b>
		Quvvat rostlagich*	<b>AW</b>
		Ovozni ko'tarib beruvchi qurilmalar	<b>BA</b>
<b>B</b>	Elektr bo'Imagan katta iklarni elektrga (generator va kuchlanish manbayilardan boshqa) yoki aksincha o'zgartirgichlar yoki ko'p razryadli o'zgartirgichlar yoki o'lhash va ko'rsatish uchun datchiklar	Magnetostriktiv element	<b>BB</b>
		Ionlashtiruvchi nurlanish detektori	<b>BD</b>
		Selsin qabul qiluvchisi	<b>BE</b>
		Telefon (kapsula)	<b>BF</b>
		Selsin sensori	<b>BC</b>
		Issiqlik sensori	<b>BK</b>
		Fotoelement	<b>BL</b>
		Mikrofon	<b>BM</b>
		Bosim sensori	<b>BP</b>
		Pyezoelektrik element	<b>BQ</b>
		Aylanish chastotasi sensori (taxogeneratorlar)	<b>BR</b>
		Ovozni yozib oluvchi (adapter)	<b>BS</b>

		Tezlik sensori	<b>BV</b>
		Issiqlik sensori*	<b>BT</b>
		Refaol voltamper o'chagich *	<b>BVA</b>
		Aktiv vat-soat hisoblagich	<b>BW</b>
<b>C</b>	Kondensatorlar	Kondensator qvvat bloki*	<b>CB</b>
		Kondensator zaryadlash moslamasi *	<b>CG</b>
<b>D</b>	Integral mikrosxemalar, mikrokompaniyalar	Analog integral mikrosxema	<b>DA</b>
		Integratsiyalashgan elektron, raqamli, mantiqiy element	<b>DD</b>
		Ma'lumotlarni saqllovchi qurilma	<b>DS</b>
		Kechiktirish qurilmasi	<b>DT</b>
<b>E</b>	Turlichay elementlar	Isituvchi element	<b>EK</b>
		Yorituvchi lampa	<b>EL</b>
		Piropatron	<b>ET</b>
<b>F</b>	Razryadniklar, saqlagichlar, himoya qurilmalari	Tokning oniy qiymati bo'yicha diskret himoyalovchi element	<b>FA</b>
		Tokning inersiya qiymati bo'yicha himoyalovchi diskret element	<b>FP</b>
		Ervchan saqlagich	<b>FU</b>
		Kuchlanish bo'yicha himoyalovchi diskret element, razryadnik	<b>FV</b>
		Batareya	<b>GB</b>
<b>G</b>	Generatorlar, kuchlanish manbaalari	Sinxron kompensator*	<b>GC</b>
		Generator qo'zg'atkichi*	<b>GE</b>
		Nimqo'zg'atkich (yordamchi qo'zg'atkich)*	<b>GEA</b>
		Ovozli signalizatsiya qurilmasi	<b>HA</b>
<b>H</b>	Ko'rsatkich va signalizatsiya moslamalari	Belgililar ko'rsatkichi	<b>HG</b>
		Rangli signalizatsiya qurilmasi	<b>HL</b>
		Rangli doska*	<b>HLA</b>

		Yashil linzali signalizatsiya chiroqchasi*	HLG
		Qizil linzali signalizatsiya chiroqchasi*	HLR
		Oq linzali signalizatsiya chiroqchasi *	HLW
		Yarim o'tkazgichli ko'rsatkich*	HY
K	Rele, kontaktorlar, ishga tushirgichlar	Tok relesi	KA
		Ko'rsatish relesi	KH
		Elektr issiqlik relesi	KK
		Kontaktor, magnitli ishga tushirgich	KM
		Vaqt relesi	KT
		Kuchlanish relesi	KV
		Nolinchiketma-ketlik tok relesi, nolinchiketma-ketlik tokli himoyasi*	KA0
		To'yingan transformatoming tok relesi, ushlab turish vaqtiga ega tok himoyasi*	KAT
		Tormozlashga ega tok relesi*	KAW
		Filtrli tok relesi*	KAZ
		Blakirovkalash relesi*	KB
		Ko'p martalik ulashdan blokirovkalash relesi	KBS
		"Ulash" buyrug'i relesi*	KCC
		"Uzish" buyrug'i relesi*	KCT
		Chastota relesi*	KF
		Impulsli signalizatsiya relesi*	KHA
		Bosim tugmasi relesi*	KLP
		Kalitning holatini aniqlash uchun relesi*	KQ
		"Ulangan" holati relesi*	KQC
		"Uzilgan" holat relesi*	KQT
		Ulash buyrug'i ni fiksatsiyalovchi relesi*	KQQ
		Ajratish holatini	KQS

		fiksatsiyalovchi rele*	
		Nazorat relezi*	KS
		Gazli rele*	KSG
		Refaol rele (bosim)*	KSH
		Sinronazimni nazorat qiluvchi rele *	KSS
		Kuchlanishni nazorat qiluvchi rele *	KSV
		Qarshilik relezi*	KZ
		Kuchlanish relesi filtri*	KVZ
		Quvvat relesi*	KW
L	Induktiv g'altak, drossel	Lyuminissent yoritgich drosseli	LL
		Reaktor*	LG
		Generatorming qo'zg'atish chulg'ami*	LR
		Chastotamer	PF
		Aktiv energiya hisoblagichchi	PI
		Refaol energiya hisoblagichchi	PK
P	Qurilmalar, o'lchovchi jihozlar  Eslatma: PE kombinatsiyasini qo'llashga ruxsat berilmagan	Ommetr	PR
		Qayd qiluvchi moslama	PS
		Soatlar, vaqt ta'sirini o'lchagichlar	PT
		Voltmetr	PV
		Vattmetr	PW
		Ampermetr*	PA
		Elektromexanik impulsli hisoblagich*	PC
		Otsilograf*	PG
		Holatni ko'rsatkich*	PHE
		Varmetr*	PVA
Q	Zanjirlardagi ajratkichlar va uzgichlar (energiya ta'minoti, quvvat manbayi jihozlari va boshqalar)	Avtomat uzgich	QF
		Qisqa tutashtirgich	QK
		Ajratkich	QS
		Qisqa tutashtirgich*	QN
		Bo'lgich*	QR
		Yuklama uzgichi*	QW
R	Rezistorlar	Termorezistor	RK
		Potensiometr	RP
		O'lchovchi shunt	RS

		Varistor	<b>RU</b>
		Reostat*	<b>RR</b>
		Uzgich yoki uzib-ulagich	<b>SA</b>
		Tugmali uzgich	<b>SB</b>
		Avtomat uzgich	<b>SF</b>
		Uzib-ulagich, blokirovkalash zanjiridagi kalit *	<b>SAB</b>
		Rejim uzib-ulagichi*	<b>SAC</b>
		Kommutator*	<b>SC</b>
		O'lchash uzib-ulagichi*	<b>SN</b>
		Sinxronlash uzib- ulagichi*	<b>SS</b>
		Tugash yo'li uzgichi*	<b>SQ</b>
		Uzgichning avariiali o'chirishini fiksatsiyalovchi yordamchi kontakt*	<b>SQA</b>
	Boshqaruv zanjirlaridagi kommutatsion, signalizatsiya va o'lchovchi qurilmalar	Elektromagnit ulash zanjiridagi yordamchi kontakt*	<b>SQC</b>
	Eslatma: SF kombinatsiyasi quvvat zanjiriga aloqasi bo'lмаган apparatlar uchun qo'llaniladi	Uzgichni o'chishida tutashadigan yordamchi kontakt*	<b>SQK</b>
		Uzgichni ulashida tutashadigan yordamchi kontakt (AVM prujina zavodi dvigatelini ishga tushirish)*	<b>SQM</b>
		Elektromagnit uzish zanjiridagi yordamchi kontakt*	<b>SQT</b>
		AVM prujina elektr dvigatelini boshqarishda prujina tayyorgarligining yordamchi kontakti*	<b>SQY</b>
		Operativ nakladka*	<b>SX</b>
		Turlicha ta'sirlarda ishga tushadigan uzgichlar:	
		darajadan	<b>SL</b>
		bosimdan	<b>SP</b>
		holatdan	<b>SQ</b>

		aylanish chastotasidan	<b>SR</b>
		haroratdan	<b>SK</b>
<b>T</b>	Transformatorlar, avtotransformatorlar	Tok transformatori	<b>TA</b>
		Elektromagnit stabilizator	<b>TS</b>
		Kuchlanish transformatori	<b>TV</b>
		Nolinchi ketma-ketlik tok transformatori*	<b>TAN</b>
		Oraliq transformator*	<b>TL</b>
		Kuchlanishni tanlash transformatori*	<b>TLV</b>
		Elektromagnit stabilizator*	<b>TS</b>
		Rostlanuvchan transformator*	<b>TUV</b>
		transreaktor*	<b>TAV</b>
		Modulyator	<b>UB</b>
<b>U</b>	Aloqa qurilmalari, elektr bo'limagan kattaliklarni elektrga o'zgartirgichlar	Dernodulyator	<b>UR</b>
		Diskriminator	<b>UI</b>
		Chastotali o'zgartirgich, invertor, chastota generatori, to'g'irlagich	<b>UZ</b>
		Tok o'zgartirgichi*	<b>UA</b>
		Chastota o'zgartirgich*	<b>UF</b>
		Kuchlanish o'zgartirgichi, fazarostlagich*	<b>UV</b>
		Diód, stabilítron	<b>VD</b>
		Elektrovakuum qurilma	<b>VL</b>
<b>V</b>	Elektrovakuum va yarim o'tkazgichli qurilmalar	Transistor	<b>VT</b>
		Tiristor	<b>VS</b>
		Birlashtirgich	<b>WE</b>
		Qisqa tutashtirgich	<b>WK</b>
<b>W</b>	Yuqori chastotali elementlar va liniyalar, antennalar	Ventil	<b>WS</b>
		Transformator, faza o'zgartitgich	<b>WT</b>
		Attenyuatr	<b>WU</b>
		Antenna	<b>WA</b>
		Joriy kollektor, sirpanuvchan kontakt	<b>XA</b>
		Shtir	<b>XP</b>
		Yachevka	<b>XS</b>
<b>X</b>	Kontaktli bog'lanishlar	Yig'iladigan bog'lanish	<b>XT</b>
		Yuqori chastotali	<b>XW</b>

		bog'lagich	
		Bog'lagich*	<b>XB</b>
		Sinov qisqichi*	<b>XG</b>
		Yig'ilmaydigan bog'lanish*	<b>XN</b>
		Elektromagnit	<b>YA</b>
		Elektromagnit uzatmali tormoz	<b>YB</b>
		Elektromagnit uzatmali mufta	<b>YC</b>
		Elektromagnit patron yoki plastinka	<b>YH</b>
		Elektromagnit blokirovkalash qulfi*	<b>YAB</b>
<b>Y</b>	<b>Elektromagnit yuritmali mexanik qurilma</b>	Havoli uzgich yuritmasidagi elektromagnit ulash (yengil yuritma), ulash kontaktori*	<b>YAC</b>
		Elektromagnit uzgich (uzish solenoidi)*	<b>YAT</b>
		Moyli uzgich yuritmasidagi elektromagnit ulash (og'ir yuritma)*	<b>YMC</b>
<b>Z</b>	<b>To'g'ri chiziqli cheklovchi filtrlar</b>	Cheklovchi	<b>ZL</b>
		Kvars filtr	<b>ZQ</b>
		Tok filtr*	<b>ZA</b>
		Chastota filtr*	<b>ZF</b>
		Kuchlanish filtr*	<b>ZV</b>

\* “\*\*” bilan belgilangan na’munaviy element turlari mualliflar tomonidan quyidagi syatdan olib qo’shilgan:

<https://elektroschema.ru/2009-02-05-22-57-45/ugo-2/58-oboznbuky>

## GLOSSARY

1. **Elektr tizimi** – elektr energetika tizimining elektr qismi bo‘lib, unda elektr energiya ishlab chiqariladi, uzatiladi va taqsimlanadi.
2. **Elektr tizim elementlari** – elektr energiyasini ishlab chiqarish, o‘zgartirish, uzatish va taqsimlash jarayonida o‘zaro bog‘langan va ularning ishlash rejimini nazorat qiladigan, rostlaydigan va boshqaradigan holda qatnashayotgan mashina, qurilma va uskunalar majmuasiga aytildi.
3. **Elektr energetika tizimning rejimi** – aynan bir lahzada uning holatini belgilaydigan jarayonlar yig‘indisiga aytildi.
4. **Energetika tizimlarini avtomatlashtirish** – tizimni elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash texnologik jarayonlarini avtomatik tarzda boshqaruvchi qurilmalar bilan jihozlashga aytildi.
5. **Texnologiya avtomatikasi** – normal ishlash rejimida avtomatik boshqarish yoki rostlashni ta’minlab beradi.
6. **Tizim avtomatikasi** – avariya rejimlarida avtomatik boshqarish yoki rostlashni ta’minlab beradi.
7. **Elektr tizimning normal rejimi** – tizimning barcha elementlari shu rejimda ishlashga mo‘ljallanib loyihalanadi, bu rejimda tizim uzoq vaqt davom etadigan rejim hisoblanadi.
8. **Chastota ko‘chkisi** – chastotaning qayta tiklab bo‘lmaydigan darajada pasayib ketishi.
9. **Kuchlanish ko‘chkisi** – reaktiv quvvat yetishmovchiligidan paydo bo‘ladi va kuchlanish keskin pasayib ketadi.
10. **Sinxronlash** – aylanish chastotasi va kuchlanishni tenglashtirish hamda generatori tarmoqqa ulash momentini tanlash jarayoni.
11. **Aniq sinxronlash** – generator ushbu usul bilan ulanganda sinxronga yaqin chastotada ochiladi va qo‘zg‘atiladi.
12. **O‘z-o‘zini sinxronlash** – bu usulda generator sinxronga yaqin chastotada ochiladi va qo‘zg‘atilmagan holatda ulanadi.
13. **Pulslanish kuchlanishi** – generator va tizim kuchlanishlarining ayirmasi.
14. **Sirpanish kuchlanishi** – pulslanish kuchlanishining ta’sir etuvchi qiymati.
15. **Qayta ulash** – avariyalarni bartaraf etishda liniyanı kuchlanish ostida qayta ulash jarayoni.
16. **Muvaffaqiyatli qayta ulash** – noturg‘un shikastlanish sodir bo‘lgan liniya qayta ulash jarayonida ish rejimida qolishi.
17. **Muvaffaqiyatsiz qayta ulash** – turg‘un shikastlanish sodir bo‘lgan liniyalarni qayta ulashda yana QT sodir bo‘ladi va himoya qayta o‘chiradi.
18. **Qo‘zg‘atish tizimi** – qo‘zg‘atish tokini hosil qilishga, nazorat qilishga, boshqarishga va rostlashga xizmat qiladigan mashina va uskunalar majmuasi.

**19. Qo'zg'atishni avtomatik rostlagich** – qo'zg'atish toki va kuchlanishini nazorat qilinayotgan rejim parametlarining orttirmasi, orttirma ishorasi va rejim parametrining o'zgarish tezligi va tezlanishini hisobga olib o'zgartiradigan mashina va uskunalar majmuasiga aytildi.

**20. Qo'zg'atishni avtomatik rostlash tavsifi** – quvvat koeffitsiyenti o'zgarmas ( $\cos\varphi = \text{const}$ ) bo'lganda rostlagich yordamida hosil qilingan generator kuchlanishini uning reaktiv quvvati yoki tokiga bog'liqligi.

**21. Kompaundlash chegarasi** – kompaundlash toki paydo bo'lishiga mos generatorning yuklama toki.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. P. C. Krause, O. Wasynczuck, and S. D. Sudhoff, Analysis of Electric Machinery and Drive System, 2nd ed., Piscataway, NJ: IEEE Press, 2002, p. 191.
2. R. D, "Protective relaying for power generation systems," in CRC Press, Taylor and Francis group, pp. 592 (pages) 2005.
3. Шамсиев Х.А. Автоматика электрических станций и энергосистем. Конспект лекций. – Т.: ТашДГУ, 2006.-72с.
4. Электротехнический справочник: Т. 3. Производство, передача и распределение электрической энергии./ Под общ. Ред. Профессоров МЭИ. – М.: Издательского МЭИ, 2004, 96 с.
5. М.В. Андреев, Ю.С. Боровиков, А.С. Гусев, А.О. Сулаймонов. Автоматика энергосистем: учебное пособие / Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2015, - 193 с.
6. Кривенко В.В. Релейная защита и автоматика: учебное пособие / под ред. А.Ф. Дьякова – М.: Изд-во МЭИ, 2010.
7. Основы автоматики энергосистем / Беркович М.А. и др -М.:2010.- 432 с.
8. Дьяков А.Ф., Овчаренко Н.И. Микропроцессорная релейная защита и автоматика электроэнергетических систем .- М.: Изд-во МЭИ, 2009.- 199 с.
9. Барзам А.Б. Системная автоматика. – 4-е изд. перераб. и доп. – М.: Энергоатомиздат, 2009.
10. Теория автоматического управления / В.Н. Брюханов и др.; Под ред. Ю.М. Соломенцева.-М.: Высш.шк., 2007.-268 с.
11. Бурденков Г.В. , Малышев А.И. Автоматика, телемеханика и передача данных в энергосистемах. -М.: Энергия, 2003.-344 с.
12. Беркович М.А. Автоматика энергосистем / М.А. Беркович, В.А. Гладышев, В.А. Семенов – 4-е изд. перераб. и доп. – М: Энергоатомиздат, 2008.
13. Андреев В.А. Релейная защита и автоматика систем электроснабжения. Учеб. для вузов – 3-е изд. перераб. и доп. – М: Высшая школа, 2002.
14. Неклепаев Б.Н., Крючков И.П. Электрическая часть электростанций и подстанций: справочные материалы для курсового и дипломного проектирования, учебное пособие для вузов. – М: Энергоатомиздат, 1989.
15. Электротехнический справочник: Т. 3. Кн. 1. Производство и распределение электрической энергии./ под общ. Ред. Профессоров МЭИ. – М.: Энергоатомиздат, 1988

16. Правила устройства электроустановок. М.: Энергоатомиздат, 1986.,  
880 с.
17. <http://www.ruscable.ru> – сайт отраслевого электронного СМИ  
Энергетика. Электротехника. Связь.
18. <http://www.fsk-ees.ru/> – сайт Открытого акционерного общества  
«Федеральная сетевая компания Единой энергетической системы» (ОАО «ФСК  
ЕЭС»).
19. <http://www.holding-mrsk.ru/> – сайт ОАО "Холдинг МРСК"  
<http://catalog.ncstu.ru/> – сайт Ассоциации электронных библиотек учебных  
заведений и организаций СКФО.

**X.A. Shamsiyev, Sh.M. Mirzabekov, G.F. Mo'sinova**



# **ELEKTR TIZIMLARINING AVTOMATIKASI**

## **O‘quv qo‘llanma**

Muharrir: E.Egamqulov  
Sahifalovchi: M.Qosimova

Bosishga 10.12.2021-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/16. Ofset qog‘izi.

Offset bosma usulida bosildi.

Times New Roman garniturasi.

Shartli bosma tobog‘i 10,25. Adadi 100 nusxa.

Original maket "Regbooks" nashriyotida tayyorlandi.

"Aktiv print" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.